

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
FAN, TA'LIM VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO'LIMI**

Qo'lyozma huquqida
UDK:811.512.133:81-
366.58

TILAKOVA SOHIBJAMOL ERGASHOVNA

**O'ZBEK TILI HOLAT FE'LLARINING LINGVOSTILISTIK
XUSUSIYATLARI**

70230101 – Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi bo'yicha
magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.d. prof. Sh.Maxmaraimova

TERMIZ – 2023

Magistrlik dissertatsiyasi mavzusi Termiz davlat universiteti rektorining 2022-yil ____ martdagি №____-T/M sonli buyrug‘i asosida tasdiqlangan.

Magistrlik dissertatsiyasi Termiz davlat universiteti O‘zbek tilshunosligi kafedrasida bajarilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi elektron nusxasi Termiz davlat universitetining rasmiy veb sahifasiga joylashtirilgan.

Dissertatsiya manzilining QR-kodi



Magistrlik dissertatsiyasi bilan Termiz davlat universitetining axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____ raqam bilan ro‘yxatga olingan. Manzil: Termiz shahri Barkamol avlod ko‘chasi 43-uy.)

Ilmiy rahbar: _____

f.f.d. prof. Sh.Maxmaraimova

Kafedra mudiri: _____

f.f.f.d, (PhD) N.Amonturdiyev

Magistratura bo‘limi boshlig‘i: _____

(PhD) A.Narbayev

70230101 – Lingvistika (o‘zbek tili) mutaxassisligi magistranti Tilakova Sohibjamol Ergashovnaning “O’zbek tili holat fe’llarining lingvostilistik xususiyatlari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi

Annotatsiyasi

Tayanch so’zlar: lingvostilistika, fe’l, so’zlar, matn, holat fe`li; semantik valentlik, semantik maydon, holat fe’llarining ichki semantik guruhi, holat fe’llarining komponenti, leksik-semantik guruhlar.

Tadqiqot obyekti: o‘zbek tillari holat fe’llarining uslubiy jihatlarining gap tarkibida namoyon bo‘lishi ushbu magistrlik ishining asosiy tadqiqot obyekti.

Tadqiqot predmeti: o‘zbek tilidagi holat fe’llari turlari va ularni ifodalovchi vositalar bo‘yicha o‘xshashlik va farqlar hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: o‘zbek tilidagi barcha holat fe’llarining turlarini aniqlash, ularni ifodalovchi uslubiy vositalarini aniqlash hamda tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

so‘z ma’nosiga berilgan ta’riflar va so‘zning semantik strukturasi haqidagi fikrlarni o‘rganishi;

holat fe’llarining yasalishi va ularning turkiy tillarda xoslanishi;

o‘zbek tilidagi holat fe’llarining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish.

Tadqiqot metodlari sifatida kuzatish, qiyosiy metod, tilni bevosita tashkil etuvchilarga ajratish va komponent tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Mazkur tadqiqot ishi natijalaridan fe’l so‘z turkumining, xususan, holat fe’llarining uslubiy jihatlarini o‘rganuvchilarga amaliy yordam beruvchi o‘quv uslubiy qo‘llanma yaratishda, bakalavr bosqichi talabalari uchun o‘quv uslubiy majmua tayyorlashda va amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash uchun brashyuralar tayyorlashda foydalanish mumkin.

Magistrlik dissertatsiyasining asosiy tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi quyidagi holatda yozildi. Birinchi “Kirish” qismi, unda fe’lning o‘rganilishi haqida qisqacha ma’lumot, so‘ng bob fasllarida fe’llarning o‘rganilish tarixi va ilmiy izlanishning maqsad va vazifalari, tadqiqot mavzusining predmeti va obyekti,

tadqiqot metodlari, tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati kabi masalalar haqida so‘z yuritildi.

70230101 - master’s thesis of Ergashovna Sohibjamol Tilakova, a master’s student of Linguistics (Uzbek language) on the topic “Linguostilistic features of Uzbek case verbs”

Annotation

Key words: linguostylistics, verb, words, text, case verb; semantic valence, semantic field, internal semantic group of case verbs, component of case verbs, lexical-semantic groups.

Research object: the absence of stylistic aspects of Uzbek language verbs in the sentence structure is the main research object of this master’s work.

The subject of the study: similarities and differences in terms of the types of verbs in the Uzbek language and the means of expressing them.

The purpose of the research: to determine the types of all case verbs in the Uzbek language, to determine their expressive means and to analyze them.

The research objectives are as follows:

to study the definitions given to the meaning of the word and the opinions about the semantic structure of the word, formation of state verbs and their characteristics in Turkish languages;

study and analysis of stylistic features of case verbs in the Uzbek language.

As research methods, observation, comparative method, dividing the language into its direct constituents, and component analysis were used.

The main structure of the master’s thesis. The master’s thesis was written in the following case. Practical significance of research. The results of this research work are used to create a teaching methodical guide that provides practical help to learners of the stylistic aspects of the verb word group, in particular, case verbs, in the preparation of a teaching methodical set for undergraduate students and in practical training. can be used in the preparation of brochures for application.

The first “Introduction” part contains brief information about the study of the verb, the goals and objectives of scientific research, the subject and object of the research topic, research methods, theoretical and practical importance of research were discussed.

MUNDARIJA

KIRISH.....
I BOB. O'ZBEK TILIDA FE'L LEKSEMALARINING TADQIQI.....
1.1-§.Fe'l leksemalarining jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi.....
1.2-§.O'zbek tilshunosligida fe'l leksemalarining an'anaviy va zamonaviy talqini.....
1.3-§.Holat fe'llarining yasalishi
Bob bo'yicha xulosa.....
II BOB. HOLAT FE'LLARINING GRAMMATIK TABIATI.....
2.1-§. Holat fe'llarining grammatik shakllar bilan ifodalanishi.....
2.2-§. Holat fe'llari va nisbat kategoriyasi.....
2.3-§. Holat fe'llarining analitik shakllari.....
Bob bo'yicha xulosa.....
III BOB. HOLAT FE'LLARINING STILISTIKASI.....
3.1-§. Holat fe'llarining uslubiy xoslanishi.....
3.2-§. Sodda va yasama holat fe'llarining uslubiy tabiat.....
3.3-§. Nutq uslublarida holat fe'llarining sinonimik tabiat.....
Bob bo'yicha xulosa.....
XULOSA.....
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbliji va zarurati. Jahon tilshunosligida obyektiv olam va tafakkur qonuniyatlariga asoslanib ilmiy izlanishlar olib borish davr talabiga aylandi. Ma'lumki, obyektiv borliqdagi narsa va hodisalar uzlucksiz o'zgarishda, shuning uchun ham ular miqdor o'zgarishlarining sifat o'zgarishlariga o'tishi, inkorni inkor hodisalari bilan uzviy bog'liqdir. Albatta, bu jarayon va munosabatlar inson tafakkuri hamda tilida aks etadi.

Dunyo tilshunosligida o'tgan asrdan boshlab tilni o'rganishga antropotsentrik yondashuvning yuzaga kelishi til va uning sohibi, til va jamiyat, madaniyat, tafakkur kabilar munosabatini o'rganayotgan zamonaviy yo'nalishlarda bevosita tadqiq etilishi lozim bo'lgan dolzarb muammolarga duch kelinmoqda. Hozirgi kunda respublikamizda ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda tub islohotlar o'tkazilayotgan bir davrda o'zbek tilshunosligida ham hal etilishi lozim bo'lgan muhim masalalar ko'zga tashlanmoqda. Darhaqiqat, "Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tmoqdamiz.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldag'i "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF- 4947- son Farmoni, 2017- yil 16- fevraldag'i "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PF- 4958- son Farmoni; 2017- yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 22- maydag'i "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi VMQ- 304- con qarori; 2018- yil 5- iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ- 3775- son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertasiya tadqiqoti ham muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot obyekti: o‘zbek tillari holat fe’llarining uslubiy jihatlarining gap tarkibida namoyon bo‘lishi ushbu magistrlik ishining asosiy tadqiqot obyektiidir.

Tadqiqot predmeti: o‘zbek tilidagi holat fe’llari turlari va ularni ifodalovchi vositalar bo‘yicha o‘xshashlik va farqlar hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi: o‘zbek tilidagi barcha holat fe’llarining turlarini aniqlash, ularni ifodalovchi uslubiy vositalarini aniqlash hamda tahlil qilish.

Tadqiqot vazifalari etib quyidagilar belgilangan:

so‘z ma’nosiga berilgan ta’riflar va so‘zning semantik strukturasi haqidagi fikrlarni o‘rganishi, holat fe’llarining yasalishi va ularning turkiy tillarda xoslanishi;

o‘zbek tilidagi holat fe’llarining uslubiy xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi:

fanda holat fe’llarning semantik guruhlarini ajratishga doir tasniflar tanqidiy ko‘rib chiqildi hamda to‘plangan tadqiqiy materiallar: 1) holat fe’llari; 2) harakat fe’llari; 3) munosabat fe’llariga ajratilib tahlil qilindi;

holat ma’noli fe’llarning sememasida ham minimal harakatni ifodalovchi semalar mavjud bo‘lishi tahlillar misolida dalillandi;

tub va yasama fe’l shaklidagi: *zerikmoq, ishonmoq, yoqmoq, erinmoq, og‘rinmoq, tutinmoq, qizg‘anmoq, chidamoq, odamsinmoq, alaxsiramoq, alaxlamoq, istig‘nolanmoq, g‘ashlanmoq, daxshatlanmoq, telbalanmoq, ma'yuslanmoq, chulg‘amoq, susaymoq, jimirlamoq* kabi ruhiy holat fe’llarining farqlovchi semalari uslubiy jihatdan yoritildi;

holat fe’llaridagi uslubiy o‘zgarishlarga xulosalar berildi.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari.

Ilmiy tadqiqot ishida fe’l leksemalarining lingvostilistik xususiyatlari yoritildi va fe’l birliklar haqida aniq xulosalar berildi.

Tadqiqot mavzusi bo‘yicha adabiyotlar sharhi.

O‘zbek tilshunosligida fe’l so‘zlari grammatik, semantik, uslubiy yo‘nalishlarda o‘rganilgan. Tilshunoslik, xususan o‘zbek tilshunosligi tarixida fe’l

so‘z turkumiga so‘z turkumlarining asosiy tarkibiy qismi sifatida qaralgan. Ushbu mavzu o‘zbek tilshunosligida qadimdan olimlar diqqat markazida bo‘lib kelgan. Xususan, X - XI asrlarda Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘atit turk”, asari, Alisher Navoiy, Bobur kabi ajdodlarimizning asarlarida o‘rganilgan. Keyinchalik A.Hojiyev, M.Sodiqova, R.Rasulov Sh.Rahmatullayevning ishlarida ilmiy tadqiq etilgan. Bu olimlar o‘zlarining qator ilmiy tadqiqotlarida fe’llarning til hodisasi sifatidagi o‘ziga xosliklari, boshqa til hodisalari bilan o‘xhash va farqli xususiyatlari va grammatik tabiatini o‘rganishgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, fe’l so‘zlarining tahlili ko‘plab leksik sathdagi ishlarda ham uchraydi

Tadqiqotda qo‘llanilgan metodikaning tavsifi.

Ishda tavsiflash, qiyosiy, etimologik, konseptual tahlil, semantik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalari o‘zbek tilshunosligida holat fe’llariga oid izlanishlarni nazariy va amaliy ma’lumotlar bilan boyitadi. Ishda keltirilgan aniq materiallar o‘zbek tilidagi holat fe’llarining uslubiy jihatlarini mukammallashtirishda, oliv o‘quv yurtlarida maxsus kurs o‘qitishda, fe’lning stilistik tomoni bo‘yicha qo‘llanmalar, lug‘atlar yaratishda foydalanish mumkin. To‘plangan dalillar, amalga oshirilgan tahlillar lingvostilistik tahlilni o‘rganish uchun muhim material bo‘lib xizmat qiladi.

Ishning tuzilishi. kirish, uch bob, boblar bo‘yicha xulosalar, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, 78 sahifani tashkil etadi.

I BOB. O'ZBEK TILIDA FE'L SO'Z TURKUMINI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1. Fe'l leksemalarining jahon va o'zbek tilshunosligidagi tadqiqi

Hozirgi o'zbek adabiy tilining yuzaga kelishi va uning ravnaqi uchun til sathlarini har jihatdan o'rganish borasida muhim yozma manbalarga tayanib ona tilimizning me'yorlarini belgilashda o'ziga xos ilmiy tadqiqotlar va xulasalar bayon etilgan hamda bu izlanishlar davom etmoqda. Xususan, tilning morfologik sathi yuzasidan qilingan tadqiqotlar anchayindir.

Fe'l so'z turkumi qadimdan tilshunoslarni qiziqtirib kelgan va bu turkumni o'rganish borasida ko'plab izlanishlar, tadqiqotlar amalga oshirilgan. O'zining uzoq tarixiga ega bo'lgan o'zbek tilshunosligi bu borada jahon olimlarining ilmiy merosidan bahramand bo'lishlari bilan birga jahon tilshunosliginining ravnaqi uchun ham o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar.

Ma'lumki, hozirgi o'zbek adabiy tilida morfologiyaning eng salmoqli qismini fe'l bo'limi tashkil etadi. Fe'llar harakat va holat ma'nosini anglatuvchi so'zlardir. Harakat fe'llari shaxslarning jismoniy faoliyati natijasida yuzaga kelsa, holat fe'llari esa shaxslarning ruhiy holati, ichki kechinmalari hamda narsalarning bir holatdan ikkinchi bir holatga o'tishishini ifodalaydi.

Aynan fe'l so'z turkumining leksik-semantik, grammatik, stilistik xususiyatlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi anchayindir.

Bizga ma'lumki, fe'l so'z turkumi bo'yicha juda ko'plab ishlar amalga oshirilgan. Buni X-XI asrlarda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit turk", asarining birinchi qismida fe'l so'zlaridan otlarning yasalishi, fe'llar ikki, uch, to'rt, besh, olti harfli bo'lishi, so'ng orttitriladigan o'nta harf (a, t, r,s, sh, q, k, l, n, la,) ning har biri fe'llarda biror qo'shimcha ma'no berishga xizmat qilishi haqida fikr yuritgan hamda fe'llarga qo'shilgan bu harflar, uning fikricha, fe'llarning o'timli- o'timsizligi, mayl, nisbat kabi ma'nolarni ifodalaydi¹. Ikkinci qismida

¹ www.ziyouz.com kutubxonasi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'otit turk" asari Birinchi qism. O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti 55- 57- bet.

esa, asosan, fe'llarning grammatik tomoni izohlangan². Bunda fe'lga xos qoidalalar, fe'llarning yasalishi, turlari, fe'l so'zlarining boblari hamda fe'lning boshqa mukammal xususiyatlari tushuntirilgan.

Bizningcha, Mahmud Qoshg'ariyning fe'l so'zlari nuqtai nazardan yondashuvi an'anaviy tilshunosligimizda ham o'z aksini topgan. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", XIV- XV asrlarda esa A.Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayin", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" kabi asarlarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari XX asrda Abdurauf Fitratning fe'l so'z turkumi bo'yicha o'quv qo'llanmalari va darsliklarini ko'rishimiz mumkin.

Abdurauf Fitratning sof morfologik qarashi uning "Sarf" (morfologiya) asarida o'z ifodasini topgan. Olim o'zining mazkur asarida so'zlarning anglatadigan ma'nosini asos qilib olgan holda quyidagi turkumlarga ajratadi: ot, sifat, son, fe'l, olmosh, ko'makchi kabi. Shu tariqa o'zi belgilagan barcha so'z turkumiga alohida- alohida to'xtalib, ularning o'ziga xos jihatlarini yoritib beradi. Fitratning fe'l turkumiga oid qarashlari fe'l so'z turkumining taraqqiyotida katta ahamiyatga ega. Uning "Har bir fe'l bir ish bilan uning ishlovchisi hamda bir zamonni bildiradi" tarzida aytgan fikrlari bu borada muhimdir. Olim fe'lning zamon, shaxs-son, bo'lishli- bo'lishsizlik, o'timli-o'timsizlik, shuningdek, nisbat kabi kategoriyalariga nisbatan o'z qarashlarini bayon qilgan.

Zamonaviy o'zbek morfologik ta'limotining rivojlanishi va keng ommalashishida professor A.G'ulomovning ilmiy izlanishlari va tadqiqotlari katta ahamiyat kasb etadi. Olim tomonidan "Fe'l" kitobining yaratilishi o'zbek tilshunosligi tarixida katta voqeа bo'ldi. Chunki o'zbek tilshunosligida alohida bir so'z turkumini to'liq tadqiq etish tajribasi shu davrga qadar bu tarzda amalga oshirilmagan edi. Mazkur kitobda fe'l so'z turkumi yaxlit tarzda chuqur tahlil qilinishi bilan bir qatorda barcha fikrlarlar jamlangan. Grammatik ma'nosi va belgisi, grammatik kategoriyalari, yasalishi, to 'liqsiz fe'l, fe'lning sintaktik vazifasi kabi fe'lga xos bo'lgan xususiyatlar to'liq tahlil qilingan.

² www.ziyouz.com kutubxonasi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asari. Ikkinci qism. O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti

XX asrning o‘ttizinchi yillarida tilshunos olim U.Tursunov ham morfologiya sohasiga oid tadqiqotlarni amalga oshirib, o‘z qarashlarini namoyon qilgan. Olim o‘zbek morfologiyasining eng dolzarb muammolarini hal qilish bilan shug‘ullangan. Xususan, uning “O‘zbekchada fe’l yasalishi”, “O‘zbek tilida fe’l darajalari” kabi tadqiqotlari shu sohaning rivojlanishi uchun juda muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

O‘zbek tilida so‘z turkumlari, xususan, fe’lni o‘rganish borasida akademik A.Hojiyevning xizmatlarini alohida ta’kidlash lozim. Olim o‘zbek tilida lisoniy birlikning o‘zbekona tabiatini va o‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari ustida izlanishlar olib borgan va 30 ga yaqin maqola e’lon qilgan.

A.Hojiyevning fe’l so‘z turkumiga bag‘ishlangan bir qator “Fe’l”, “O‘zbek tilida ko‘makchi fe’llar”, “To‘liqsiz fe’llar” kabi monografiyalari, maqolalari, M.Sodiqovaning “Fe’l uslubiyati”, Sh.Shukurovning “ Fe’l tarixidan”, “O‘zbek tilida fe’l mayllari taraqqiyoti”, Sh.Rahmatullayevning “O‘zbek tilida fe’l zamonlari taraqqiyoti”, “O‘zbek tilida fe’l frazemalarining bog‘lashuvi”, U.Sanaqulovning fe’l so‘z turkumi haqidagi maqolalarini kiritishimiz mumkin. R.Rasulovning “O‘zbek tilidagi holat fe’llari va ularning obligator valentliklari” doktorlik dissertatsiyasi holat fe’llari va ularning zaruriy valentliklarini o‘rganishga bag‘ishlangan. U holat fe’llarini quyidagi leksik semantik guruhlardan tashkil topganligini aniqlagan:

- 1) davomli holat fe’llari;
- 2) harakat natijasi bo‘lgan holat fe’llari;
- 3) ijro holati fe’llari;
- 4) harakatning holati fe’llari;
- 5) malaka holati fe’llari;
- 6) obrazli holat fe’llari;
- 7) biologik holat fe’llari;
- 8) fiziologik holat fe’llari;

9) ruhiy holat fe'llari. Shuningdek, u holat fe'llarining agens, lokalisi va obyekt valentliklari haqida juda muhim ma'lumotlar bergen³.

Shunday qiziqarli ma'lumotlar S.Muhamedovaning doktorlik dissertatsiyasida ham mavjud. S.Muhamedova fe'llarni, avvalo, ikkiga - obyektsiz va obyektli harakat fe'llariga bo'ladi. Birinchi guruh ichida yana oltita (gorizontal, vertikal, aylanma, tebranma, nafas va tovush chiqarish harakatini, tik holatdan boshqa holatga o'tishni ifodalovchi fe'llar), ikkinchi guruh ichida uchta yanada kichik bo'lgan guruhchalarni (natijali ijroni, natijasi mavhum bo'lgan ijroni, og'iz bo'shlig'idagi harakatni ifodalovchi fe'llarni) ajratadi. Harakat fe'llarining agens, patiyens, grammatik shakl semantikasi valentligi, emotiv, obyekt, o'rinni valentliklariga ega ekanligi ishonarli qilib ochib berilgan⁴.

Shunday qilib yumush fe'llari O'.Sharipova ishida⁵, sezish fe'llari T.Musayev qarashlarida⁶, fe'llarning obyekt argumenti G.Narimovaning ishlarida o'z aksini topgan⁷. M.Mirtojiyev o'zining "O'zbek tilida fe'l valentliklari" asarida o'zbek tilidagi valentlik tiplarini oydinlashtirishga harakat qiladi va bu boradagi fikrlarga munosabat bildirib, ularni birlashtiradi⁸.

Aytish lozimki, fe'lning semantik turlarini va ularning valentliklarini o'rganishda respublikamiz tilshunoslari tomonidan katta yutuqlarga erishilgan bo'lib, fe'l, uning ayrim turlari va grammatik kategoriyalari haqidagi ma'lumotlar deyarli barcha o'zbek tili grammatikalarida berilgan.

Qadimgi turkiy tilda *alqıntıi* (*tugadi*), *əlti* (*o'ldi*), *boltı* (*boldi*), *bərti* (*berdi*) *kəlti* (*keldi*) kabilar eng faol qo'llangan mustaqil fe'llardir. Biroq mustaqil fe'llar qo'makchi fe'llar vazifasida ham ishlatilgan.

Mustaqil fe'llarni harakatning obyektga bo'lgan munosabatiga qarab *obyektlı fe'llar va obyektsiz fe'llar* kabi turlarga ham bo'lish mumkin. Obyektlı fe'llar

³ Rasulov R. O'zbek tilidagi holat fe'llari va ularning obligator valentliklari. - T: Fan, - 1989, - 131b.

⁴ Мұхамедова С.Х. Ўзбек тилида йўналма харакат феълларининг предикативлиги ва валентлиги: Филол. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 22 б.

⁵ Шарипова Ў. Ўзбек тилидаги юмуш феълларининг маъно валентликлари: Филол. фан. ном. дисс. – Тошкент, 1996. – 152.

⁶ Мусаев Т.Т. Ўзбек тилидаги сезги феъллари: Филол. фан. ном. ...дисс. – Тошкент, 1992.

⁷ Наримова Г.А. Ўзбек тилида феълларнинг обьект аргументи: Филол. фан. ном. ...дисс. автореф. – Тошкент, 2005.

⁸ Mirtojiev M. Fe'l valentligi. Toshkent. 2007

tushum kelishigida bo‘lgan so‘zlarni boshqarsa, obyektsiz fe’llar esa bunday xususiyatlarga ega bo‘lmaydi. Shuningdek, fe’llar qadimgi turkiy tilda ham *yetakchi va ko ‘makchi* fe’llardan tashkil topadi: *tika bərtim, ucha barti, basa kəlti kabi*.

Ko‘makchi fe’llar sifatida *ərti* (*edi*), *ərmish* (*emish*), *ərinch* (*ekan*), *ərsa* (*esa*) kabilarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, *Qag ‘an ərmish, alp qag ‘an ərmish*.

Fe’l turkumiga mansub so‘zlar shaxs-sonda tuslanishi, mayl, bo‘lishli, bo‘lishsizlik, fe’l nisbatlari, zamon kategoriyasiga ega bo‘lishi, funktsional formalari va boshqa xususiyatlari bilan boshqa so‘z turkumlaridan farq qiladi⁹.

Bizning fikrimizcha, tekshirishni qulay yo‘l bilan olib borish uchun guruuhlar sonini buncha ko‘paytirmay, dastlab yirik guruuhlar belgilash lozim. Masalan, avval fe’llarni ikki katta guruhgaga: harakat va holat fe’llari guruhiga ajratib, keyingilarini o‘z ichida yana mayda guruhlarga ajratgan holda tekshirish mumkin. Ayrim hodisalar nisbatlanish hodisasining holat ma’nosini hosil qilishi (*ko ‘rdi – ko ‘rishdi kabi*) yoki “ikki marta holat bildirishi” (*sezdi – sezdirdi kabi*) “biridan-biriga o‘tib turishlar” guruhlashtirish masalasida har xilliklar tug‘diradi, shuningdek, murakkablashtiradi.

Fe’llarning semantik guruuhlarini belgilab chiqish va har bir guruhni chuqr o‘rganish, yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, alohida ilmiy ishlarning obyekti bo‘lib, maxsus tadqiqot talab etadi.

Bu ishda (ba’zi murakkabliklar hisobga olinib) fe’llar harakat fe’llari, holat fe’llari va munosabat fe’llari kabi uch katta guruhgaga ajratildi.

Lingvistik adabiyotlarda bu guruhlarga oid har xil fikrlarga duch kelamiz. Masalan, K.Xoliqov o‘zining harakat fe’llariga bag‘ishlangan dissertatsiyasida harakat fe’llarini leksik-semantik jihatdan dastlab ikki katta guruhgaga ajratadi: I umumiy ma’noli fe’llar, II xususiy ma’noli fe’llar. Bular o‘z ichida mayda guruhlarga ajratib tekshiriladi¹⁰. Hatto o‘zbek grammatik adabiyotlarida fe’l

⁹ An-king Lim. The meaning structure of the Old Turkic denominal verb formatives. Germany. 2011.

¹⁰ Ҳозирги ўзбек адабий тили. Қисм I. - Т.: Фан, 1966. Б. 320.

turlarining tasnifi haqidagi fikrlar bir-biridan keskin farq qiladi. Fikrlar o‘rtasidagi bunday keskin farqning sababi umumiyl tilshunoslikda ham, xususiy tilshunoslikda ham fe’llarning tasnif qilish tamoyillarini ilmiy ravishda ishlab chiqilmaganligi va tasniflash jarayonida grammatikaning leksika bilan bog‘liqligini yetarli hisobga olinmaganligida deb bilamiz. Lekin o‘zbek va jahon tilshunosligiga doir tadqiqotlarda talaygina grammatik jihatdan ahamiyatli bo‘lgan tasniflar mavjud.

1.2. O‘zbek tilshunosligida fe’l leksemalarining an’anaviy va zamonaviy talqini

Fe’llarning mustaqil ma’no anglatishiga ko‘ra tasnifi haqida tilshunos olimilarimizning fikrini ta’kidlab o‘tish joiz, mustaqil ma’no anglatishiga ko‘ra fe’llar mustaqil va nomustaqil guruhlarga bo‘linadi.

Mustaqil fe’llar. Bu turdagи fe’llarning leksik ma’nolari to‘liq bo‘ladi va ular mustaqil ravishda ifodalananadi. Mustaqil ma’noli fe’llar odatda gap bo‘lagi bo‘lib keladi va ular ikkala tildagi lug‘atlarda markersiz beriladi. Mustaqil ma’noli fe’llar ochiq sistemani hosil qiladi, ya’ni yangi so‘zlardan fe’llar paydo bo‘ladi va ularning soni o‘zgaruvchan hisoblanadi. Gap nominatsiyasini (ifodalangan voqeani) mustaqil ma’noli fe’llarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, chunki ular obyektiv borliqdagi konkret harakat va holat jarayonlarini atab, gap nominatsiyasining eng kerakli qismini hosil qiladi. Nomustaqil fe’llar mustaqil ma’no anglatmaydi, gap bo‘lagi vazifasida kela olmaydi, asosan, mustaqil fe’llarga xizmat qiladi. Ular, asosan, turli grammatik ma’no ifodalash uchun qo‘llanadi va ko‘pincha asosiy fe’lga modal, tus, zamon, nisbat, bo‘lishli- bo‘lishsizlik va boshqa grammatik ma’nolarini qo‘shishga xizmat qiladi.

Nomustaqil fe’llarning muhim grammatik ahamiyati ham shundadir. Nomustaqil fe’llar yopiq sistema sanaladi, chunki ularning soni juda kam bo‘lib, barmoq bilan sanarlidir. Ingliz tilida nomustaqil fe’llarga bog‘lama, yordamchi va modal fe’llar, o‘zbek tilida esa ularga bog‘lama, yordamchi (to‘liqsiz) va ko‘makchi fe’llar kiradi.

O‘zbek tilida alohida bog‘lama va yordamchi fe’llar yo‘q, shu sababdan ayrim tilshunoslar bu ikki atamani bir atamaga birlashtirib, “to‘liqsiz fe’l” deb ham ataydilar¹¹.

O‘zbek tilida bir nomustaqlil fe’l kontekstga qarab bog‘lama va yordamchi fe’l bo‘lib kelishi mumkin. Misol sifatida, edi nomustaqlil fe’li quyidagi gaplarning birinchisida bog‘lama fe’l vazifasida, ikkinchisida yordamchi fe’l vazifasida kelgan:

1. *U yosh edi; (bog‘lama fe’l).*
2. *U biznikiga kelib turar edi;*

Yordamchi fe’llar mustaqil fe’llarga qo‘shilib, ularning kategorial shakllarini yasaydi. Bunday shakllar analitik shakllar hisoblanadi. Analitik shakllarda bitta mustaqil va birdan to‘rttagacha (ingliz tilida) yordamchi fe’llar bo‘ladi. Yordamchi fe’llar leksik ma’nosini yo‘qotib, grammatik ma’no ifodalaydi. Shu boisdan ular defektiv (kamchiligi bor) fe’llar sanaladi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, o‘zbek tilida modal fe’llar mavjud emas, shuning uchun ingliz tilidagi modal fe’llar o‘rniga o‘zbek tilida ko‘p hollarda modal so‘zlar to‘g‘ri keladi.

Modal so‘zlar universal hisoblanib, ular (shart, zarur, mumkin, ehtimol, kerak) ingliz tilidagi modal fe’llar bajargan vazifada qo‘llanilishi qayd etiladi.

Ko‘makchi fe’llar nomustaqlil fe’llarning bir turi bo‘lib, o‘zbek tilida mavjud, ingliz tilida esa mavjud emas. Misol sifatida, ko‘makchi fe’llar tarkologiyadagi, shuningdek, o‘zbek tilshunosligidagi munozarali masalalardan biri hisoblanadi. Shuni ta’kidlash lozimki, so‘zning ma’no tarkibidagi mushtarak, birlashtiruvchi va farqlovchi ma’nolar ma’noning oddiy miqdoriy to‘plami emas, balki so‘z ma’nosining tarkibida o‘ziga xos tizim va strukturani tashkil qiluvchi tilning aloqa- aralashuv vazifasini bajarish uchun xizmat qiladi. Birlashtiruvchi sema asosida o‘zbek tilidagi holat fe’llarning semantik maydoni hosil bo‘ladi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, ayni fe’llar ma’nosining birlashtiruvchi semasi

¹¹ XожиевА. Тўлиқсиз феъл. - Т.: Фан, 1970. Б. 8; ХЎАТ. — Хозирги ўзбек адабий тили. Қисм I. - Т.: Фан, 1966. Б. 320.

“holat” bo‘lib, bunday fe’llar katta doiraga kiradi. Ya’ni birlashtiruvchi sema so‘z ma’nosining mohiyatini ifodalaydi.

Muayyan bir mantiqiy guruhga kiruvchi predmetlarda har birining umumiyligi va alohida belgilari bo‘lganidek, ma’nosini “holat” birlashtiruvchi semali fe’llarda ham farqlovchi semalar mavjud. Chunki fe’llar farqlovchi semalar bilan aniqligiga ifodaga, umumiyligidan nisbiy ajralishga egadir.

G.B. Stepanova “Лексико – семантическая группа глаголов понимания” nomli maqolasida fikrlash bildiruvchi birgina *понимать* (*tushunish*) so‘zining ma’no xususiyatini to‘la yoritib, fe’llarning ichki tomondan ham juda murakkab, chuqur ekanligini yaqqol ko‘rsatib berdi. Fe’lning ko‘p ma’noli xususiyatini aniqlab chiqishda u bir necha xil usullarni qo‘llaydi: *понимать* fe’lini so‘z birikmasi tarkibida kelgan holatida olib tekshiradi (buni u so‘z ma’nosini aniqlashdagi eng xarakterli usullardan biri deb ta’kidlaydi), vid shakllarini olgan holatida analiz qiladi va bu fe’l ma’nosini bilan uning sinonimlaridagi semantik xususiyatlarini qiyoslab chiqadi: sinonimik variantlarning ma’no jihatidan ayrim o‘rinlarda yaqinlashishlarini, birlashishlarini va ayrim o‘rinlarda uzoqlashishlarini faktlar bilan ko‘rsatadi, asoslaydi. Bundan tashqari, sinonim variantlardagi vid o‘zgarish holatlarni ham hisobga oladi. So‘ng *понимать* fe’lini uning uslubiy variantlari (ularning uslubiy xususiyatlari) bilan taqqoslab chiqadi (*Masalan, уяснить, уразуметь, раскумекать, расчухать, усечь*). Bunday tekshirish usuli o‘zining murakkabligiga qaramay so‘z ma’nolarini konkretlashtirishda yaxshi natijalar beradi¹². Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin.

Fe’llarning semantik va uslubiy jihatdan guruhlarga va bu muammo ustida ilmiy ish olib borish rus tilshunosligida ham, turkiy tillar tilshunosligida ham ko‘p tilshunos olimlar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Lekin tekshiruvchilarning bu murakkab mavzuga yondoshishlari hamda klassifikatsiyalarida yagonalik yo‘q. Misol tariqasida, L.M.Vasilyev o‘zining “Semanticheskiye klassi russkogo glagola” nomli doktorlik dissertatsiyasida fe’llarni semantik jihatdan to‘rt katta guruhga ajratib tekshiradi.

¹² Stepanova.G.B. Лексико – семантическая группа глаголов понимания.

L.N.Xaritonov esa yoqut tilidagi fe'llarni 3 semantik guruhga ajratadi: harakat va holat fe'llari, tovushga taqlid qilib yasalgan fe'llar, obrazga taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llar¹³.

Aslida, holat ma'nosida ham qandaydir minimal harakat bor. Ammo bu yashirin tusda bo'ladi. Kishidagi turli ruhiy-jismoniy, ekspressiv-emotsional holatlar tashqi va ichki ta'sir yoki munosabatlar natijasida yuz beradi. Holat ma'nolari turlichadir. Masalan, tabiat olamidagi har turli holatlar (vaziyatlar), hayvonot, qushlar olamidagi va inson jismi, ruhiyati, munosabatlariga oid holatlar. Bularning ko'pi fe'l shakllari vositasida ifodalanadi¹⁴.

Bulardan inson tabiatiga xos bo'lgan. jismoniy, ekspressiv-ruhiy holatlar o'ziga xos xarakterga ega. Buni quyidagicha ko'rishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval. Emotsional-ekspressiv holatning turlari

ichki holat	<i>psixologik, ekspressiv-emotsional, modal, ruhiy kechinmalar</i>
tashqi holat	<i>xursandlik, darg'azablik</i>
jismoniy, tabiiy holat	<i>Sog'lomlik, betoblik, kuchlilik, zaiflik</i>
ijtimoiy holat	<i>boylik, kambag'allik</i>

1) Ruhiy-psixologik holat. Bunday holat, asosan, insonga xos. Bunda ichki kechinma, o'y-xayol, eslash, unutish, dard-alam tortish, iztirob chekish, darg'azab bo'lish, achchiqlanish, kuyish va shu kabi ko'plab kishi ruhiyati bilan bog'liq bo'lgan turli-tuman holatlar aks etadi. Bular tilda fe'llarning turg'un va frazeologik birikmalari orqali ifodalanadi. Shuni ham aytish kerakki, psixologik holatlar, odatda, fikrlash — miya orqali, sezish — yurak dil orqali namoyon bo'lganligi tufayli bu holatni aks ettiruvchi so'z va frazeologizmlarda, ko'pincha, o'y, miya, bosh, yurak, ko'ngil, dil, fikr so'zlari ishtirok etadi;¹⁵

¹³ Vasilyev L.M. o'zining "Semanticheskiye klassn russkogo glagola"

¹⁴ Sodiqova M. Fe'l stilistikasi. –T.: Fan, 1975. – 108 b.

¹⁵ Kollektiv mualliflar. O'zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2011

2) Fikrlash, mushohada yurgizish, tasavvur etish. Bu holat, ko‘pincha, tasviriy yo‘l bilan beriladi: *Mirzo Ulug‘bek... ko‘zlar yumulib borarkan, xayolidan yana o‘sha fikr o‘tdi* (*O.Yoqubov*). *Qandaydir uzuq-yuluq fikrlar, ko‘ngilni g‘ash qiladigan sezgilar uni chulg‘ab oldi* (*Oybek*). *Orif yana chuqurroq o‘yga toldi, xolos* (*A. Muxtor*). *Ikkisi ham fikrga tolgan edi* (*A.Qodiriy*). Bunday qo‘llanish (“*o‘yga toldi*”) badiiy tilga xos bo‘lib, “*o‘yga cho‘mdi*” konstruksiyasiga moslab olingan bo‘lishi mumkin.

Aslida esa, “- ga+tol” shakli “tolmoq” fe’lining ma’nosiga qaraganda mantiq jihatidan to‘g‘ri bo‘lmaydi. Misol tariqasida, buni quyidagi birikmalarga qiyos qilamiz: *qo‘li toldi, oyog‘i toldi*, shunga qaramay, bu shakl “xayolga berildi” ma’nosida (badiiy tilda) shakllangan.

Bunday daqiqalarda kishini o‘y bosadi, xotiralar to‘lqini g‘alayon qiladi, xayol qanotlanadi (*H.G‘ulom*). Bu misolda fikrlash protsessini berishda yozuvchi turli badiiy bo‘yoqlar va jonlantirish usulidan foydalangan.

U o‘ylab-o‘ylab o‘yiga yetolmasdi (*S.Ahmad*). Bunday takror usuli bir narsa – biror masala ustida ko‘p bosh qotirish, biror fikrga kelolmaslik kabi ma’nolarni berishda qo‘llanadi).

U yarim kechagacha o‘qib o‘tirib, xayoli qochdi-yu, birdan o‘zini ojiz, notavon sezdi (*A.Qahhor*). “Xayoli qochdi” idiomatik iborasi — uzoq va ko‘p narsalarni o‘ylashni anglatadi.

Yo‘lchi o‘z ichida o‘yladi: “Haligi sho‘x yigitlar qani? Nega ularni aralash-tirmaydilar? To‘y emas, aza bu” (*Oybek*).¹⁶

3) Biror kishi, predmet, vohea-hodisani o‘ylash, tasavvur etish, esga olish kabi ruhiy holat ma’nolari shunga mos keladigan (*eslamoq, esiga olmoq, yodiga olmoq, yodlamoq, o‘ylamoq kabi*) fe’llar bilan va ko‘z, ko‘ngil, quloq, ich kabi so‘zlarning fe’llar bilan birga qo‘llanib kelishi orqali ham beriladi.

Misollar: *Lekin hozir cholning o‘zi uning ko‘z o‘ngidan ketmay qoldi*. (*A.Muxtor*). *Kampir aytgan jonivorlarni sal kunda ko‘z oldingga keltiradigan bo‘ldim* (*A.Qahhor*). *Uning ko‘rkam qomati ko‘z oldida turardi* (*S.Ahmad*).

¹⁶ Kollektiv mualliflar. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2011.

Shu-shu bo‘ldi-yu, Tursunboyning qulog‘idan Zebixonning ovozi nari ketmay qoldi (S.Ahmad).

La’li shularni ko‘nglidan o‘tkazar ekan, avval kungi oqshom esiga tushdi (H.G‘ulom).

A.Hojiyevning ta’kidlashicha, o‘zbek tilida butunlay ko‘makchi fe’lga aylangan birorta ham fe’l mavjud emas. Ayrim mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasida ham qo‘llaniladi. Bu turli-tuman ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi. Bir guruh tilshunoslar yetakchi fe’l bilan qo‘silib kelgan ko‘makchi fe’llarni qo‘shma fe’l deb hisoblaydilar, boshqalar esa ularga fe’lning analitik shakllari deb qaraydilar.

Aksariyat olimlar tomonidan e’tirof etilgan ko‘makchi fe’llar quyidagilar: *boshlamoq, yotmoq, turmoq, yurmoq, o‘tirmoq, bo‘lmoq, bitirmoq, olmoq, bermoq, solmoq, so‘ymoq, bormoq, kelmoq, ketmoq, yubormoq, tashlamoq, solmoq, tushmoq, o‘lmoq, o‘tmoq, yetmoq, ko‘rmoq, qaramoq, bormoq, yozmoq*¹⁷.

Ruhiy holat fe’llari inson faoliyatini, ruhiy holatini ifodalaydi. Yoqimli va yoqimsiz tuyg‘ular, tinchlik, farog‘at, hayajonlanish va ma’yuslanish, dadillik va taraddudlanish, quvonish va g‘azablanish, qo‘rquv va shodlanish kabi ijobiy va salbiy hissiyotlar ruhiy holat fe’llariga kiradi.

Ruhiy holat fe’llari inson (ba’zan hayvon) ruhiy holatini tub va yasama fe’l shaklida ifodalaydi: *zerikmoq, ishonmoq, yoqmoq, erinmoq, og‘rinmoq, tutinmoq, qizg‘anmoq, chidamoq, odamsinmoq, alaxsiramoq, alaxlamoq, istig‘nolanmoq, g‘ashlanmoq, daxshatlanmoq, telbalanmoq, ma’yuslanmoq, chulg‘amoq, susaymoq, jimirlamoq* kabi ruhiy holat fe’llarining farqlovchi semalari quyidagicha:

1. *Qizg‘anmoq berishga og‘ringan* (*berishni xohlamagan*) *holatda bo‘lmoq*: Ayron so‘rab kelgandan chelagingni ham qizg‘anma (*Maqol*).

2. *Achingan* (*rahmi kelgan holatda bo‘lmoq*): Yigit ko‘zlaridagi alam va firoqni ko‘rgan Iskandar uni qattiq qizg‘andi (*Oybek*).

3. *Rashq qilgan holatda bo‘lmoq*: Umar Gulsumni Xolmuroddan

¹⁷ Kollektiv mualliflar. O‘zbek tili leksikologiyasi. Toshkent, 2011

qizg'anib, ichi o'rtanib kelgan edi (P.Tursun).

Alahlamoq - alahsirash, qattiq bosinqirash holatida bo'lmoq. *Boy bir hafta uyida alahlab yotibdi (S.Yunusov).*

Istig'nolanmoq – noz-karashma holatida bo'lmoq: *Ra'no istig'nolandি (A.Qodiriy).* Bu holat fe'li ko'proq badiiy uslubda ishlatiladi. Istig'no so'zi o'zbekcha-ruscha¹⁸, o'zbek tilining morfem¹⁹ va o'zbek tilining izohli lug'atlarida²⁰ qayd etiladi, izohlanadi. Ammo shu so'z (ot) asosida yasalgan istig'nolanmoq fe'li bu lug'atlarning birortasida ham aks etmagan.

Birlashtiruvchi semasi "holat", "birlashtiruvchi" semasi "psixik" bo'lgan holat fe'llari muayyan munosabatni ifodalashiga ko'ra ikki guruhga ajraladi:

- a) ijobiy munosabat ifodalovchi holat fe'llari;
- b) salbiy munosabat ifodalovchi holat fe'llari;
- c) insonning ijobiy yoki salbiy munosabat ifodalovchi holat fe'llari ta'sirchanlik konnotativ darajasi ortiqligiga, kuchliligiga ko'ra alohida ahamiyatlidir. Bunday semantik guruhga kiruvchi so'zlar ham xabar (darak), ham ta'sirchanlik ifodalashi, ba'zi hollarda esa tasirchanlik darak (xabar) mantiqiy ifodasiga nisbatan ustunligi, ortiqligi bilan ifodalanadi. Qiyoslash uchun ushbu misollarga e'tibor qaratamiz, *dahshatlanmoq, telbalanmoq, shodlanmoq*.

Ijobiy munosabat ifodalovchi psixik holat fe'llari quyidagi semantik guruhlarga kiruvchi til birliklarida quyidagi mantiqiy ifoda bilan kuzatiladi: *xursandchilik: quvonmoq, suyunmoq, sevinmoq, yayramoq, shodlanmoq.* *Xursandlik* mantiqiy ifoda bilan kelgan holat fe'llarini asosan, inson ruhiy holati hissiyoti yoqimli ichki kechinmasi uning faoliyati va tashqi hodisalardan qattiq ta'sirlanishi, nihoyatda mammun, shod kabi holatda bo'lishini ifodalaydi. Bunday ifodaga ega holat fe'llari hissiy (emotsional) munosabatni tub, ba'zan yasama fe'l sifatida bildiradi. Ushbu farqlovchi semali holat fe'llari quyidagilar: quvonmoq – xursand sevingan holatda bo'lmoq: *to'la katta bayramga ketayotgani uchun quvonardi (M.Ismoilov). Donishmand o'z ishidan quvondi (S.Yunusov).*

¹⁸ Ivonov.P.I. Umumiy psixologiya.Toshkent, 1967,13- bet.

¹⁹ Узбекско - русско словар, Т.,1988, 182- bet.

²⁰ G'ulomov.A, Tihonov A, Qo'ng'irov R.O'sha lug'at.112- bet.

Quvonmoq, suyunmoq, sevinmoq, yayramoq, shodlanmoq kabilar bir tomondan umumiy birlashtiruvchi ma’nosiga ko‘ra sinonimik qatorni hosil qilsa, ikkinchi tomondan ular qo‘shimcha ma’no ohanggiga, ma’no nozikligiga ko‘ra o‘zaro farqlanadi. O‘zbek tilining sinonim va izohli lug‘atlarida bu so‘z manolari deyarli bir xil izohlanadi. Ularning ichki ma’no nozikligi, farqi, uslubiy imkoniyati hisobga olinmaydi. Bizningcha, *suyunmoq, sevinmoq* fe’l ma’nolarida ta’sirchanlik, qo‘shimcha belgi darjasи quvonmoq, yayramoq, shodlanmoq so‘zi ma’nolaridagi qo‘shimcha bo‘yoqqa nisbatan ortiqroq ifodalangan. Ayni vaqtda suyunmoq so‘zida qo‘shimcha bo‘yoq sevinmoq fe’lidagiga nisbatan biroz ortiqroq tuyiladi. Suyunmoq so‘zida hissiyot ta’sir kuchiga yoqimli his-tuyg‘u uyg‘otishiga ko‘ra xarakterlanadi. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, suyunmoq so‘zi ma’nosiga, talaffuziga tinglovchida yoqimli kechinma hosil qilishiga ko‘ra farqlanadi. Suyunmoq, sevinmoq, quvonmoq, yayramoq so‘zlari ko‘proq jonli nutqda shuningdek, poetik uslubga xos nutqda ko‘p qo‘llaniladi. Shodlanmoq, asosan, kitobiy bo‘lib, nutqda nisbatan kam qo‘llanadi²¹.

Qanoat hosil qilishi, mamnunligi – o‘zidan qoniqishi yoki predmet bilan muayyan munosabatga kirishib, ta’sirlanishi natijasida yuz bergen qoniqish (itoat qilish) hissi bilan bog‘liq ichki kechinmalarni aks ettiradi. Ushbu holat fe’llari ichki kechinmani tub va yasama fe’l shaklida ifodalaydi, Yasama fe’l quyidagicha tuziladi: fe’l –*k*, ot, -*lan*. Shunisi o‘ziga xoski, yasama holat fe’llarida bildiriluvchi xabar (darak) ga nisbatan qo‘shimcha xabar, qo‘shimcha ma’no, qo‘shimcha bo‘yoq ortiq darajada bo‘ladi. Shuningdek, yasama fe’ldagi ta’sirchanlik hatto tub fe’llardagi ta’sirchanlikdan ham ortiqligi, kuchliligi bilan farqlanadi. *Misol sifatida, qoniqmoq, lazzatlanmoq, rohatlanmoq “Qoniqmoq (qanoat qilmoq)”* farqlovchi semali holat fe’llari quyidagilar: **Qonmoq** –

1. Qanoat (ishonch) hosil qilgan, ko‘ngli to‘lgan, holatda bo‘lmoq²². *Mutalboy sizni obdon yaxshi biladur, Xamid aka, sizning qanday xizmatingiz*

²¹ Ўзбек тилининг изохли лугати . 2013 II. 32, 90, 422, 476, 612- betlar.

²² Ўзбек тилининг изохли лугати . 2013 II. 32, 90, 422, 476, 612- betlar.

borligiga ham qongan (A.Qodiriy). *Yaxshi qoling, sevgan yurt-u diyorim. Xizmat qilib qonmay, qonga bo'yaldim* (Hamza).

2. Bemalol, to‘yan, miriqqan holatda bo‘lmoq. *Sevgan qizi bilan hech bo‘lmasa bir tomoshaga borib, bir qonib gaplashishi istagi uning go‘yo qorong‘u ko‘nglida yog‘du sochgandek bo‘ldi* (P.Tursun).

To‘ymoq – mamnun (xursand) holatda bo‘lmoq. *Quvnoq yuzlariga qarab to‘ymayman, shirin qiziqlari yuragimga esh.* (M.Boboev). *Qancha boqmay o‘tmay, to‘ymaydi ko‘ngil, hayot go‘zalligi porlar yuzida* (M.Boboev).

Huzurlanmoq – juda xursand, zavqlanmoq holatda bo‘lmoq. *Qo‘qon darvozasiga kirgan xalq Azizbekning ot-oyoqlari ostida sudralib ketishini huzurlanib tomosha qilar edi* (A.Qodriy).

Rohatlanmoq – huzur qilgan (miriqqan) holatda bo‘lmoq. *Hozirgina issiq hammomdan chiqib, rohatlanib o‘tirgan Muzlagan xonaning kichkina, ochilmas to‘rt ko‘zli derazasidan qizni ko‘rib qoldi* (Shuhrat). Miriqmoq, lazzatlanmoq, huzurlanmoq, rohatlanmoq fe’llari belgi darajasining ortiqligiga ko‘ra ajralib turadi. To‘ymoq, miriqmoq, rohatlanmoq, asosan, so‘zlashuv nutqiga xos.

“Zavq-shavq”: *zavqlanmoq, shavqlanmoq, maroqlanmoq*. “zavq-shavq” mantiqiy ifodali holat fe’llarida inson ruhiy holati ifodalananadi. Bunday holat fe’llari “zavq-shavq”, “ishtivoq (qiziqish)” semalariga ko‘ra boshqa semantik guruhlardan ajralib insonning ko‘tarinki (ijobiy) kechirmasini biror narsa hodisadan ortiq darajada ta’sirlanib, juda mammun, xursandligini bildiradi. “Zavq-shavq” ma’nosiga ega fe’llarga xos doimiy xususiyatlardan biri ruhiy holatni yasama (ot - lan) shaklida ifodalashdir: -lan yasovchisi bunday holat fe’llarida shaklan -la -n kabi qismlarga bo‘linadi, ammo ma’no jihatdan shu holat fe’llari doirasida alohida qismlarga ajralmaydi, bir butun sanaladi. Zavqlanmoq, maroqlanmoq, shavqlanmoq sinonimlari tilda ham (leksema), nutqda ham (so‘z fo‘rmasi sifatida) ta’sirchanligi, qo‘srimcha ma’nosи (bo‘yog‘i) ning kuchliligi, bo‘rtib turishiga ko‘ra qo‘srimcha ta’sir kuchiga ega sinonimik munosabatdagi boshqa holat fe’llaridan farqlanadi. Ayni vaqtida bu semantik guruhda maroqlanmoq, shavqlanmoq qo‘srimcha belgisining ortiqligiga ko‘ra yetakchi

sanaladi. Bu fe'llar, asosan, adabiy tilga, badiiy uslubga xos. Zavqlanmoq og‘zaki nutqqa oid bo‘lib, ko‘p ishlatiladi.

“Ko‘tarinkilik”: *ruhlanmoq, dadillanmoq, dadillashmoq*: “ko‘tarinkilik” mantiqiy ifodali holat fe'llariga shaxs, ba’zan hayvon holatini ifodalaydi. Ular inson (ba’zan hayvon) ning muayyan faoliyatiga, maqsad-xohishiga, zaruriyatga katta kuch, istak bilan intilishini, shunga erishishda ruhiy tayyorligini, ruhiy imkoniyatga egaligini, maqsadga erishishda dastlabki “qadam” – psixologik hozirligini ifoda etadi. Ushbu fe'llar oldidan gapda holatning ta’sir darajasini anglatuvchi ancha, yana ham, shu kabi so‘zlar qo‘llanadi. Ayni holat fe'llari ot-lan, sifat -lan, -lash tuzilishdagi yasama fe'llar sifatida kuzatiladi: *Ruhlanmoq – ilhomlangan holatda bo‘lmoq: Shayboniyxonning bu mag‘lubiyati Boburni ancha ruhlantirdi* (Bobur).

-*lash* qo‘shimchasi bilan yasalgan holat fe'llarida o‘zlik nisbatiga xos xususiyat sezilarli bo‘lgani holda (yuqoridagi misol) bunday fe'llar ma’no jihatdan -lan bilan yasaluvchi fe'llarga o‘xshaydi. Shuning natijasida ba’zi holat fe'llarida

-*lash*, -*lan* qo‘shimchalarining birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin²³. Boshqa ruhiy holat fe'llarida esa bunday jarayonni amalga oshirib bo‘lmaydi. Dadillashmoq, aytganimizdek, “tobora tetiklangan, dadil” izohiga ega. “Aytib bersangiz, balki toparman, dedi Adolat dadillashib,” gapida dadillashmoq fe'lida o‘zlik nisbatiga xos xususiyat aniq ifodaga ega. Shu sababli bu gapda ham so‘zning xususiyatini -lan affaksi bilan hosil qilish mumkin. -lan va -lash yordamida yasaluvchi holat fe'llarida bunday nisbatga xos xususiyatining ifodalanishidan qat’iy nazar bu qo‘shimchalar bilan yasalgan fe'llar aniq nisbat shakli hisoblanadi²⁴.

Yaxshilanmoq – yumshagan holatda bo‘lmoq. *Gulnor hozir Nurining mehribonchiligiga sevindi, erga tegib, fe’li ancha yaxshilanibdi, shekilli, deb o‘yladi* (Oybek).

²³ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2013.

²⁴ Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2013.

Yumshamoq, bo'shashmoq so'zlashuv nutqiga, muloyimlashmoq, yaxshilanmoq ko'proq kitobiy she'riyatga xos. *Muloyimlashmoq* hissiyta'sirchanlik bo'yog'ining ortiqligiga, qo'shimcha "yoqimli" semasiga ko'ra tavsiflanadi. *Muloyimlashmoq* to'g'ri ma'noga nisbatan ko'chma ma'noda ko'p qo'llanadi²⁵.

Salbiy munosabat ifodalovchi holat fe'llari o'zbek tilida ham salbiy munosabat ifodalovchi psixik holat fe'llari quyidagi semantik guruhlarga kiruvchi til birliklarida quyidagi mantiqiy ifodada qatnashadi: a) "*jaxli chiqmoq*": *g'ijinmoq, ijirg'anmoq, qizishmoq, yonmoq, xo'mraymoq, shumshaymoq, olymoq, o'qraymoq, g'azablanmoq, qahrlanmoq, achchig'lanmoq, shiddatlanmoq, asabiylashmoq*. "*Jahli chiqmoq*" mantiqiy ifodali holat fe'llari, asosan, inson, ba'zan hayvon ruhiy holati, uning mavjud voqelikka va o'ziga nisbatan bo'lgan salbiy munosabati bilan bog'lanadi. Ular insonning salbiy munosabatini kuchli darajada ifodalashga ko'ra ajralib turadi. Bunday holat fe'llari inson faoliyatini, g'ayrati, harakati – holatini kuchaytiradigan – shunga faol ta'sir qiladigan hissiyotni ifodalaydi. Ya'ni bu holat fe'llari insonning salbiy ta'sirlanishi (ijobiy bo'lishi ham mumkin) natijasida tez, birdan yuz bergen, nihoyat darajada kuchli, jo'shqinlik bilan o'tadigan qisqa muddatli hissiy holat – g'azablanish, jahllanish kabilar kuzatiladi. Shunga ko'ra bu fe'llarni g'azablanish ma'nosini ifodalovchi holat fe'llari deyish mumkin.

Holat fe'llarining ma'no tarkibini belgilashda, asosan, lingvistik – semantik nazariyaga uning differentsial – semantik tahlil qilish usuliga suyandik. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, ushbu so'z ma'nosini tarkibiy qismlarga ajratish usuli (component tahlil usuli) ma'noning tarkibini, tuzilishini aniqlashda eng asosiy va qulay usullardan biridir.

Salbiy munosabat ifodalovchi holat fe'llari quyidagi semantik guruhlarga kiruvchi til birliklarida quyidagi mantiqiy ifodada qatnashadi

²⁵ Hojiev.A. O'sha lug'at. 235-bet

a) “**jahli chiqmoq**”: **g‘ijinmoq, ijirg‘anmoq, qizishmoq, yonmoq, xo‘mraymoq, shumshaymoq, olaymoq, o‘qraymoq, g‘azablanmoq, qahrlanmoq, achchiqlanmoq, shiddatlanmoq, asabiylashmoq.** “Jahli chiqmoq” mantiqiy ifodali holat fe’llari, asosiy hollarda, inson, ba’zan hayvon ruhiy holati, uning mavjud voqelikka va o‘ziga nisbatan bo‘lgan salbiy munosabati bilan boshlanadi. Ular insonning salbiy munosabatini kuchli darajada ifodalashiga ko‘ra ajralib turadi. Bunday holat fe’llari inson faoliyatini, g‘ayrati, harakati-holatini kuchaytiradigan – shunga faol ta’sir qiladigan hissiyotni ifodalaydi. Ya’ni bu holat fe’llarida insonning salbiy ta’sirlanishi ijobiy bo‘lishi ham mumkin) natijasida tez, birdan yuz bergen, nihoyat darajada kuchli, jo‘shqinlik bilan o‘tadigan qisqa muddatli hissiy holat – g‘azablanish, jahllanish kabilar kuzatiladi. Shunga ko‘ra bu fe’llarni g‘azablanish ma’nosini ifodalovchi holat fe’llari deyish mumkin. Ushbu holat fe’llari semantik guruhi tub va yasama fe’llardan tashkil topadi. Yasama fe’llar quyidagicha tuziladi: ot -lan, sifat -y, -lan,(-lash). Yasama fe’lning -lan, -lash qo‘shimchasi asosga nisbatan yasovchi sifatida alohida, mustaqil sanaladi.“Jahli chiqmoq” ma’noli holat fe’llari quyidagilar: *G‘ijinmoq – achchiqlanish, jahllanish holatida bo‘lmoq: Ravshan yigidan Xojarning eski odatini davom ettirayotganini eshitib, ichida g‘ajindi* (N.Yoqubov).

Ijirg‘anmoq – achchiqlangan, asabiylashgan holatda bo‘lmoq. *Qudrat ijirg‘anib, mushtlarini tugdi* (M.Ismoiliy). *Sevar ijirg‘anib, o‘rnidan turib ketdi, dadasining gapi og‘zida qolaverdi* (U.Nazarov). *Alimardon uning gaplashgisi kelib turganini payqab, yana ijirgandi* (O‘.Hoshimov). Ijirg‘anmoq so‘zida “jahllanish” belgisi va tasirchanlik darajasi ortiq.

Qizishmoq – tutaqqan, achchig‘langan holatda bo‘lmoq. *Otasi qiziqishib, bo‘g‘ilib gapirar* (M.Ismoiliy). *O‘zi nima gap - chol yana qiziqishib ketdi* (Oybek).

Yonmoq – qizishgan, (asabiylashgan) holatda bo‘lmoq. Yonmoq harakat jarayonini ifodalovchi so‘z bo‘lib, gapda nutq birligi sifatida ko‘chma ma’noda inson ruhiy holatini bildiradi. Qiyoslash uchun ushbu misollarga e’tibor qaratamiz. *Siz onamdan xafa bo‘lmang, azizim, uning odatini bilasiz-ku, bir yonib, bir*

o'chaveradi (S.Anarboyev). Yonmoq ma'nosi "tezda" qo'shimcha belgiga ham ega bo'lib, ayni til birligi so'zlashuv nutqiga xos.

Xo'mraymoq – qovog'i soliq, jahl holatida bo'lmoq. *To 'g'onbek indamadi, dastro 'moli bilan keng, sherdek ko'kragini yelpib, atrofga "chirt-chirt" tupuk otib o'tirdi-da, nihoyat xo'mrayib qaradi* (A.Qahhor). *Tog'ning baland cho'qqisida o'tirgan qushlar shoxi pastda yig'ilayotgan odamlarga yirtqich ko'zlar bilan xo'mrayib qaraydi* (M.Ismoiliiy).

Shumshaymoq – xafa holatda bo'lmoq ma'nosini anglatadi. *Ivan Petrovich shumshaydi, bir nimalar deb to'ng'illadi* (A.Qahhor).

Olaylamoq – o'qrayib g'azablanish holatida bo'lmoq. *Domla o'grayib qaradi* (Mirmuhsin). *Bolalar unga o'girilib, shunday o'grayib qarashdiki.* (N.Fozilov). *Bola esa burchakka tikilib olgan, bizga yeb qo'ygudek o'grayib tikilardi* (F.Musajonov). Olaymoq, o'qraymoq so'zi ma'nolarida "jahli chiqish" darajasi ortiq, o'qraymoq ma'nosida bunday belgi olaymoqqa nisbatan ortiq, ta'sirchanlik kuchli. Ular, asosan, jonli nutqda ko'p qo'llanadi.

G'azablanmoq – juda jahli chiqqan holatda bo'lmoq. *Hovliqqan, g'azablangan, hayajonlangan Sergey shu gapni aytib, minbardan tusharkan, xotinlar piq-piq yig'ilayotganini ko'rди* (H.G'ulom). *Hokim bu gapni eshitib, shunday g'zablandiki, yuzi birdan burishdi, qistirma ko'zoynagi burni ustidan tushib ketdi* (M. Ismoiliiy).

Qahrlanmoq – nihoyatda, kuchli darajada g'azablangan holatda bo'lmoq. hokim picha qahrlanb turdi, keyin qo'lini siltab, yasovulini qaytardi (M.Ismoiliiy). *Kemtik tishlari orasidan tilini yaltillatib, qahrlanb turgan Qutbi otin alvasti kabi uning ko'z o'ngiga kelib to'xtaydi* (R.Azizxo'jaev). Qahrlanmoq so'zi "jahli chiqmoq" ifodali semantik guruhda "jahllanish, g'azablanish"ni kuchli darajada ifodalashiga qo'shimcha belgisiga ko'ra asosiy sanaladi.

Achchiqlanmoq – jahli chiqqan holatda bo'lmoq. *Mahsum qattiq achchiqlandi* (A. Qodiriy). *Achchiqlanib g'azab bilan yuribdi* (F. Yo'ldosh). *Bunday kel, hoy, o'tir, achchiqlanib qichqirdi Majiddin* (Oybek)

Shiddatlanmoq – g‘azabi kuchaygan (toshgan) holatda bo‘lmoq. *Tufa birdan o‘zgardi, alamidan qo‘zg‘algan isyonkor kabi shiddatlandi* (Oybek). *Gulnor bu yot kishining ellik boshi ekanini bilgach, g‘azabi shiddatlandi* (Oybek). G‘azablanmoq so‘zida hissiy ta’sirchanlik bo‘yog‘i achchiqlanmoq so‘ziga nisbatan ortiq. Shidatlanmoq so‘zida esa undan ham ortiq. Shiddatlanmoq so‘zi ma’nosi qo‘srimcha “kuchayish” belgisiga ega.

Asabiylan(-sh)moq – 1. Asabi qo‘zg‘agan, g‘ijingan holatda bo‘moq. *Fosih afandini hayotning yolvorishlari, ko‘z yoshlari asabiyantirdi* (M.Ismoiliy). *Sultonmurod yana ko‘proq asabiyandi* (Oybek). *Sakson-to‘qson masofa yurganda Axmadjonning sherigi asabiyandi* (A.Qahhor). 2. Asabi tobora cho‘lg‘agan, g‘ijingan holatda bo‘lmoq: *Domla yana asabiyashib, qaltiradi* (M.Ismoiliy). *Yusufbek hoji yurt besaramjonligi va o‘g‘il qayg‘usi bilan asabiyashgan edi* (A.Qodiriy). *U biroz asabiyashdi* (N. Yoqubov). Asabiyashmoq so‘zi ma’nosida belgi darajasi biroz ortiq bo‘lib, ushbu so‘z, asosan, badiiy uslubga xos.

“Jahli chiqmoq” mantiqiy ifodali holat fe’llari ham darak (xabar), ham ta’sirchanlik (konnotatsiya) bildirishiga ko‘ra ajralib turadi. Ayniqsa, o‘qraymoq, g‘azablanmoq, qahrlanmoq, shiddatlanmoq so‘zlarida ta’sirchanlik (pragmatika) xabarga nisbatan ortiqroq. Umuman olganda, bu so‘z ma’nolarida belgi darajasi kuchli. Qahrlanmoq, shiddatlanmoq so‘zlarini kitobiy – she’riy uslubga xos.

“Hazar qilmoq” bezmoq, irg‘amoq, yirg‘anmoq, jirkanmoq, nafratlanmoq. “Hazar qilmoq” mantiqiy ifodali holat fe’llari inson ruhiy kechinmasini, uning predmetga bo‘lgan salbiy munosabatini bildiradi. Bunday hissiy munosabatda inson dunyo qarashi, orzu-umidi, ahloqiy qarashi bilan ayrim predmet-hodisalari o‘rtasida “nomutanosiblik” yuz beradi. Bu nomutanosiblik “hazar qilmoq” ma’noli holat fe’llarining mazmun tomonini, mantiqiy asosini tashkil qiladi. Bu semantik guruh a’zolari tub, ba’zan yasama (ot -lan) fe’l bo‘lib kuzatiladi. Ushbu holat fe’llari quyidagilar:

Bezmoq – joniga tekkan (bezor) holatda bo‘lmoq. Ha, fuqaro bobosi *Amir Temur davridayoq jang-jadaldan bezgan, yuragi zirqirab qolgan* (O.Yoqubov). *Zolim podshodan bezdik, o‘laqolsinu, deb qichqirishdi xotinlar* (Oybek).

Hadiksiramoq – sal cho‘chish, xavotirlanish (bezovta) holatida bo‘lmoq. *Otasi hadiksirab, bir oz so‘rayapti* (Alpomish). *Qaytanga oldingi darsda xayol surib o‘tirgandi, endi bu darsda unga qo‘rquv qo‘silib, bolalarning har bir so‘zidan hadiksirardi* (N.Fozilov). *Muqaddasning to‘satdan o‘girilib qarashidan hadiksirardim* (O.Yoqubov).

Xavfsiramoq – ancha cho‘chigan, xavotirlangan holatda bo‘lmoq. *Aslida Mansur aka o‘g‘lining... biron juvon to‘riga ilinishidan xavfsirar* (U.Nazarov). *Yoshroq bir o‘zbek, avval uni Piyon bozorda payqadim. Keyin u Mirobodda ko‘rindi. Xavfsiradim* (H.G‘ulom). *Musa avval indamadi, keyin bir narsadan xavfsiraganday gapirdi* (P.Tursun).

Xavotirlanmoq – bezovta, hadiksirash holatida bo‘lmoq. *Muqaddam xavotirlanib, unga ugirildi- yu, shu ondayoq Alimardonning qaynoq, titroq, lablari o‘ziga yopishganini his etdi* (O‘.Hoshimov). *Shu orada otasi bir narsadan xavotirlandi, shekilli, qizini ko‘chaga chiqarmay qo‘ydi, - dedi Davlatyor* (P.Tursun).

Ta’kidlash kerakki, til birliklarida qo‘shimcha belgi darajasining ifodalanishi nisbiy, ya’ni so‘zlardagi ta’sirchanlik ba’zan faol, ba’zan, aksincha, bo‘lishi mumkin. Ba’zi hollarda so‘z ma’nosи, umuman, ta’sirchanligi jihatdan betaraf bo‘lishi mumkin. Qiyoslash uchun ushbu misollarga e’tibor qaratamiz: *tosh, soat, qoshiq, bir, o‘n besh, u, bu, ko‘p, kam, olmoq.*

Tashvishlanmoq – xavotir (bezovta) halakda bo‘lmoq. *Shokirbekning kecha ertalab chiqqanidan beri daraksiz ketishiga tashvishlanib o‘tirgan usta Olim uni yo‘lakda ko‘rishi bilanoq so‘radi* (A.Qodiriy). *Yopiray, nima bo‘ldi bolalaringizga,*

deb ota tashvishlana boshladi (H.G‘ulom). “*Nima bo‘ldi, katta buving og‘ridimi yo buving betobmi?*” - *tashvishlanib so‘radi G‘ulomjon* (M.Ismoilij).

“O‘zbek tiling izohli lug‘ati” da *muzlamoq* so‘zining faqat ikki ma’nosini qayd etiladi:

1. Muzga aylanmoq.

2. Qattiq sovuq ta'sirida qotib qolmoq, to'nmoq, yaxlamoq, qattiq sovuq o'tib, qaqshamoq, sovuq qotmoq.

Bu ma'nolar *muzlamoq* so'zining boshi to'g'ri ma'nolaridir. *Muzlamoq* ko'p ma'noli so'z bo'lib lug'at ma'nosida aks etmagan ko'chma ma'noga – holat ma'nosiga ham ega. Bu ma'no muayyan til birliklari qurshovida – ta'sirida voqe bo'lishi, nutqiy xususiyatga egaligi bilan izohlanadi, nutqiy ma'no hisoblanadi. Qiyoslash uchun ushbu misollarga e'tibor qaratamiz.

Qo'shmoq – ruhan azoblangan, ezilgan, juda g'amgin holatda bo'lmoq: *Ali Qushchining ko'z oldiga yo'lda uchragan Qalandarning Qarnoqiy kelib, erigan ko'ngli qayta muzladi* (O.Yoqubov). *Botir ali uning bag'rini isitib turgan o't ekan, shu o't kul bo'lishi bilan vujudi muzladi* (H.G'ulom). Muzlamoq so'zida ko'ngli aynish darajasi ortiq. Sovumоq so'zlari, asosan, og'zaki nutqqa xos.

Achinmoq – kuyinish, rahm kelish holatida bo'lmoq. “*Bemorning ahvoli nechuk*” - so'radi achinib Navoiy (Oybek). *Men sahroda o'layotgan bo'rini ko'rgandim, bir choqlar o'shanga ham achingandim* (O.Muxtorov).

Yo'lovchilar savdogarlarni holiga achinardilar (Latifalar).

Afsuslanish – ranjish xizmatida bo'lmoq: *Ishim bitmaganiga emas, balki og'aynimning yosh bolani gapiga gapirishiga odatlanganiga achinaman* (Toshkent haqiqati).

Koyimoq, kuymoq so'zlari ham jarayon (harakat), ham holat ma'nosini bildirishi-nutqiy vaziyatga ko'ra harakat yoki holat fe'li bo'la olishiga ko'ra unga xosdir. Bu fe'llarning ham harakat, ham holat ifodalash imkonyati unda ham, nutqda ham nomoyon bo'ladi. Ayni vaqitda bu so'zlarning holat fe'li bo'lib, tilda, til birligi sifatida kelishi nutuqdagi, nutq birligi sifatidagi ko'rinishiga nisbatan mavhumroq, faolsizroq. Chunki bu so'zlar haddan tashqarida, alohida olinganda ulardagi jarayon, harakat ma'nosи ko'proq, kuchliroq bo'ladi. Ya'ni bu so'zdagi holat ma'nosи til birligi sifatida nisbatan faolsizlanib, nomoyon bo'lishga tayyor turgan imkonyat hisoblanadi. Bu imkonyatning voqe bo'lishi, faollashishi nutqda, so'zlar qurshovida, gap qurilish birliklarining ma'no jihatdan ta'sirida, ularning ijro munosabatida yuz beradi. Bunday hollarda koyimoq, kuymoq fe'llarida illat

ma’nosi “bo‘rtib”, muayyan mantiqiy ifodaga ega bo‘ladi. Bu ifodada inson ruhiy holati qayd etiladi. Ushbu fe’llarning holat bildiruvchi, izohlovchi semasi markaziy, ya’ni xabar, darak tashuvchi sema bo‘lib qatnashadi. Qiyoslash uchun ushbu misollarga e’tibor qaratamiz.

Koyimoq – xafalangan (ranjigan) holatda bo‘lmoq. *Norqo‘zi bu gapimning oddiy haqiqatini anglamasligidan koyidi* (A.Qahhor). *Raximaning o‘z boshimchaligidan (Umurzoq akaning) bunchalik koyib gaprishi Qudratni ishda xushyor qildi* (H.Nazir).

Shunday shakllanishda xotirada saqlanadi. Shunisi muhimki, bu so‘zlar tilda ham, asosan, holat fe’li sifatida ham holat ma’nosini ifodalaydi. Ular inson ruhiy holatini bildradi²⁶. Bu so‘zlardagi holat ma’nosini ular alohida olinganda ham, nutqiy qurshovida ham kuzatiladi. Bu fe’lllar aniq nisbatdagi shaklda farqli bo‘ladi. Ular aniq nisbatdagi shakldan farqli “harakat”, ya’ni jarayon semasiga ega emasligi yoki bu belgi yo‘q darajadaligi bilan boshqalardan faqrqlanadi. Qiyoslash uchun ushbu misollarga e’tibor qaratamiz:

Koyimoq – o‘kingan, qayg‘urgan holatlarda bo‘lmoq. *Dilshod sevindi, ammo Sevaraning so‘zlarini ko‘proq eshtishga mushtoq edi, to‘ymadi, nega so‘zini ayadi, deb, koyindi* (U.Nazarov). *Eh, odamning guli ko‘rsin-da, ellikboshi Hasan ovchidan koyindi* (Sh.Toshmatov).

Kuyinmoq – juda o‘kingan (o‘ksingan), qayg‘urgan holatlarda bo‘lmoq. *Yotoqning qorong‘i burchagidagi divanda o‘tirgan Anvar hammasiga zarda qilib, irg‘ib ornidan turdi, tovush chiqarmay kuyinib yig‘ladi- yu, oyoq uchida zalga otildi* (A.Qahhor). *G‘ulomjon yalinuvchi tovush bilan bo‘g‘ilib, kuyunib gapirdi* (M.Ismoiliiy). *Shunday qilib, - dedi to‘la ustida bir chelak qaynoq suv quyub yuborgan kishiday kuyinib* (M.Ismoiliiy). Kuyinmoq so‘zida ta’sirchanlik darajasi kuchli

O‘kinmoq – afsuslangan, (achingan) holatda bo‘lmoq. *Darbadarlikdan, o‘zimning simobda sayoqligimdan juda o‘kinar edim* (G‘.G‘ulom). *Adolat frontdan xat kelganiga xursand bo‘ldi. Xursand bo‘ldi- yu, Nurmatni, Olimjonni eslab*

²⁶ Ўзбек тилининг изохли лугати. 2013 309- 402 б.

o'kindi (I.Rahim). *Titrab va to'lqillanib aytilgan bu so'zlar Otabekni o'kintirdi* (A.Qodriy). O'ksinmoq so'zida “achinish” darajasi o'kinmoq so'ziga nisbatan biroz ortiq.

Yonmoq jarayon (harakat) ifodalovchi so'z nutq birligi sifatida muayyan nutqiy o'rinda til birliklari ta'sirida ko'chma ma'no kelib, inson holatini bildiradi: *Yonmoq* – 1.Kuyingan zorlangan holatlarda bo'lmoq: *Vali aka G'ulomjonning yonib kuyganiga, ko'zlarining g'o'zallar ichida nigoron bo'lishiga hayron bo'ldi* (M.Ismoiliiy). 2. Kuygan, azoblangan holatda bo'lmoq: *Qiz nima o'yladi, qalbi ham, ishq alangasida yonadimi, yoqmi* (Oybek). *Sendan yashiradigan sirim yo'q... ko'rmasam yuragim yonadi, ko'zimga tushsa, a'zoyi badanimga qaltiroq keladi* (N.Safarov).

Zorlanmoq – juda kuyingan afsuslanga holatda bo'lmoq. *Siz necha pulga oldingiz. Bir yuz yigirma so'm ... xotini boshini chayqadi va dedi: Axir, men buni to'qson so'mga olmagan edim-ku* (A.Qahhor). Yonmoq, zorlanmoq so'zlarida ta'sirchanlik darajasi juda kuchli.

Xafalanmoq – ranjigan (kayfiyati buzilgan) holatda bo'lmoq. *Umri qattiq xafalanib yuribdi* (H.Nazir). *U ishdan charchab, xafalanib keldi* (Toshkent oqshomi).

Afsuslanmoq – pushaymon qilgan (o'kingan) holatda bo'lmoq: *Sultonmurod kelganiga afsuslandi* (Oybek). *O'ktam "palov bo'lgani yaxshi edi deganiga afsuslandi"* (H. Nazir). *Afsuslandi kambag'allikdan afsuslanib, har kuni kechalari nola qilar edi* (Latifalar).

“Notinch”: *hapriqmoq, xavotirlanmoq, bezovtalanmoq, betinchlanmoq, tinchsizlanmoq, betoqatlanmoq, toqatsizlanmoq*. Ushbu mantiqiy ifodali holat fe'llari inson holati bilan bog'lanib undagi salbiy munosabatni, tinchi yo'qolgan bezovtalangan, notinchlangan kabi ruhiy holatlarni bildiradi. “Notinch” ma'noli holat fe'llari ruhiy kechinmani, asosan, yasama fe'l shaklida ifodalaydi. Ular ot-lan, sifat -lan kabi tuzilishga ega.

1.3. Holat fe'llarining yasalishi

Fe'llarni semantik jihatdan guruhlash va bu muammo ustida ilmiy ish olib borish ko‘p tilshunos olimlar diqqatini o‘ziga jalb qilib kelgan. Lekin tadqiqotchilarning bu murakkab mavzuga yondashishlari hamda tasniflarida yakdillik yo‘q. Masalan, L.M.Vasilyev fe'llarni semantik jihatdan 4 katta guruhga ajratib tekshiradi: sezish fe'llari ya’ni sezgi ifodalovchi fe'llar, fikriy faoliyatni ifodalovchi fe'llar, nutq fe'llari va xulq- atvor fe'llari.

Turkiy tillarda fe'llarning semantik guruhlarini dastlab N.K.Dmitriev belgilab chiqqan edi. U ham fe'llarni 4 semantik guruhga ajratgan. Professor Z.Budagova esa fe'llarni 5 guruhga ajratgan. L.N.Xaritonov fe'llarni 3 semantik guruhga ajratgan. Ya’ni harakat-holat fe'llari, tovushga taqlid orqali yasalgan fe'llar va taqlidiy so‘zlardan yasalgan fe'llar. G.Kuliev esa fe'llarni 10 ta semantik guruhga ajratadi. Ular quyidagilar: 1) Ish faoliyat fe'llari; 2) sezgi ifodalovchi fe'llar; 3) nutq fe'llari; 4) ko‘rish fe'llari; 5) tafakkur fe'llari; 6) harakat fe'llari; 7) ruhiy holatni ifodalovchi fe'llar; 8) tovushga taqlidiy so‘zlardan yasalgan fe'llar; 9) taqlidiy so‘zlardan yasalgan fe'llar; 10) tabiat hodisalarini aks ettiruvchi fe'llar. Bu guruhlarning asosida ham yuqoridagi to‘rt elementli tasnif yotadi. Holat fe'llarining ma’no tuzilishi – ma’no tarkibi haqida fikr yuritar ekanmiz, fe'l ma’nosini tahlil qilinishi natijasida uning tarkibiy qismlari, mantiqiy bo‘laklari aniqlanib, shu asosda fe'l ma’nosini izohlanadi.

Fe'l so‘z turkumlari orasida eng qadimgisi bo‘lib, o‘ziga xos yasalish shakllariga ega. Qadimgi turkiy tillarda fe'lning yasalishi quyidagi qo‘sishimchalar vositasida hosil qilinadi:

1. **-a** qo‘sishimchasi. Ot va sifatdan fe'l yasaydi: *at (ot)* -*ata (ata)*, *tuz (to 'g'ri)* - *tuza (to 'g'rila)*.

2. **-la** qo‘sishimchasi. Otdan fe'l yasaydi: *yay (yoz)* - *yayla (yozni o 'tkaz)*, *su (lashkar)* - *sula (lashkar tort)*.

3. **-lan** qo‘sishimchasi. Ot va sifatdan fe'l yasaydi: *kan (xon)* - *kanlan (xonlik bo 'l)* *qato 'g' (qattiq)* - *qato 'g'lan (chiniq)*.

4. **-ad** qo'shimchasi. Bu qo'shimchadagi **d** o'rnida tish orasi bo'lishi ham mumkin. Otdan fe'l yasaydi: *qul (qul) - qulad (qulga aylan) kung (cho'ri) - kungad (cho'riga aylan)*.

5. **-(o')k, -(i)q** qo'shimchasi. Otdan fe'l yasaydi: *tash (tashkari) – tasho 'k (tashqariga chiq), tag' (tog') – tago 'k (toqqa chiq), ich (ichkari) - ichik (ichkari kir)*.

6. **-sa** qo'shimchasi. Ot va fe'lidan fe'l yasab, istak bildiradi: *at (gusht) - atsa (gushtsiradi), ach (och) - achsa (ochmoqchi bo'ldi)*.

Shuningdek, qadimgi turkiy tillarda daraja shakllarini yasovchi qo'shimchalar ham mavjud bo'lgan, ular quyidagilar:

1. **-z** qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda oldida bir tor unli paydo bo'ladi: *tut (tut) - tutuz (tutkiz), tuy (sez) - tuyuz (sezdir)*.

2. **-r** qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda oldida, asosan, tor, ba'zan keng unli paydo bo'ladi: *yash (yashirin) - yashur (yashir), ol (o'l) - olur (o'ldir), qat (ket) - katar (ketkiz)*.

3. **-t** qo'shimchasi. Negiz undosh bilan tugaganda, oldida bir tor unli paydo b'ladi. *Oqo' (o'qi) - oqo't (o'qit), kucha (zo'rла) - kuchat (zo'rлат), sav (sev) - savit (sevdir)*.

Fe'lning bo'lishsiz shakli hozirgi o'zbek tilidagi kabi - *ma* qo'shimchasi bilan yasaladi: *bar (bor) - barma (borma), kal(kel) - kalma (kelma)*.

Buyruq va istak shakllari. Buyruq formasining ikkinchi shaxs birligi fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz negizi bilan bir xildir, ko'pligi esa birlik shakliga - *n* qo'shimchasini qo'shish bilan yasaladi: *ai (ayt), asid (eshit), baro'n (boring (iz), olurung (utiring (iz), amgatmang (kiynamang (iz)*.

Sifatdosh. Qadimgi turkiy tilda quyidagi sifatdosh formalari mavjud bo'lgan:

1. **-mo'sh (mo's), -mish (mis),-mush.** *Kal (qol) -kalmo'sh (kolgan),-ar(a) -armish (ekan)*.

2. **-duk, -tuk** formasi: *bar (bor) - barduq (borgan), bol (bo'l) - boltuk (bo'lgan)*.

3.-gu formasi: *bar (bor)* - *bargu (borish kerak bo‘lgan, boriladigan)*, *kir (kir)* - *kirgu (kirish kerak bo‘lgan, kiriladigan)*.

4. -*tacho*‘, -*tachi*, -*dacho*‘, -*dachi shakli*: *bol (bo‘l)* – *boldacho*‘ (*bo‘lajak*) ol (*ul*) - *oltachi* (*ulajak*).

5. -*so‘k* (-*so‘r*), -*sik* (*sig*), -*suk* (-*sut*) shakli: *alkan (olqishlan)* *alkans’i:* (*olqishlanishga loyiq*), *tug (tut)* - *tutsuk (tutishlik, tutishga loyiq)*. 6. -*r* formasi, undosh bilan tutagan negizga qo‘shilganda oldida bir unli tovush paydo bo‘ladi. Bo‘lishsiz fe‘l negiziga qo‘shilganda *r* tovushi *z* ga aylanadi: *ta (de)* -*tar (der)* *kalur (kelar)* - *kalma (kelmas)*.

7. -*g‘lo*‘ shakli. Undosh bilan tugagan negizga qo‘shilganda oldida bir tor tovush paydo bo‘ladi va qaysi variantining qo‘llanishi negizning qattiq yoki yumshoqligiga bog‘liq. Sodir bo‘lishi kerak bo‘lgan harakatdan iborat sifatni bildiradi: *bar (bor)* – *baro‘glo*‘ (*boradigan, borishi kerak bo‘lgan*) - *kal (kel)* - *qaligli (keladigan, kelishi kerak bo‘lgan)*.

Ravishdosh shakllari. Ravishdoshning quyidagi shakllari qadimgi turkiy tillarda mavjud bo‘lgan:

1. -*a*, -*u*, -*o*‘, -*i* shakllari. Bu hozirgi o‘zbek tilidagi - *a* ravishdoshining turli variantlaridir: *ash (osh)* - *asha (osha, oshib)*, *kach (kech)* - *kacha (kecha, kechib)*, *tugun (ushla)* - *tugunu (ushlay, ushlab)* *asid (ehit)* - *asidu (eshita, eshitib)*, *al (ol)* - *alo‘ (ola, olib)*;

2. -*l*, -*up*, -*ip* shakli. Bu hozirgi -*ib* ravishdoshning turli variantlaridir: *ta (de)*, *tap (deb)*, *al (ol)* – *alo‘p (olib)*, *asid (eshit)* - *asidip (eshitib)*, *olur (o‘tir)* - *olurup (o‘tirib)*, *sungush (urush)*, - *sungushup (urushib)*.

3. -*galo*‘, - *gali*, - *kalo*‘, - *kali* formasi. Bu hozirgi - *gani* (- *gali*) formasining turli variantidir: *al (ol)* – *algado‘ (olgani)* *uz (uz)* - *uzgali (uzgani)*.

Ravishdosh qo‘shimchasining qaysi varianti qo‘llanishi negizning qaliningichkaligi va unlining lablangan-lablanmaganligiga bog‘liq.


Zamon shakllari. Qadimgi turkiy tilda quyidagi zamon formalari mavjud bo‘lgan: -*di*, -*ti* formasi. Bu shakl ma’no jihatdan hozirgi shu shakli bilan bir xil bo‘lib, fonetik jihatdan farq qiladi. Unli bilan tugagan negizga, asosan, jarangli -

do ‘ varianti qo‘shiladi: *kalmado* ‘ - *qolmadi*; *tadi* – *dedi*. Lekin negiz undosh bilan tugaganda ko‘pincha jaranglisiga jarangsizi, jarangsiziga jaranglisi orttiriladi: *Turuk bodun olti, alko ‘nto* ‘ - *turk xalqi o ‘ldi, tutab ketdi; bir urugi yadag erti - bir qismi yayov edi.*

Fe’llar qadimgi turkiy til davrida birinchi va ikkinchi guruh tuslovchilarini bilan tuslangan. To‘liq shaklli birinchi guruh tuslovchilarini kishilik olmoshlaridan kelib chiqqan: - *man*, - *san*, - *ol*, - *miz*, - *biz*, - *siz*, - *olar*. Ikkinchi guruh qisqa formalisi tuslovchilar esa to‘liq formalilarning qisqarishidan hosil bo‘lgan: *keltim*, *kelting*, *kelti*, *keltimiz*, *keltingiz*, *keltilar*, *kelurman*, *kelursan*, *kelurol*, *kelurbiz*, *kelursiz*, *kelurlar*.

Bugungi o‘zbek tilida fe’llar affiksiatsion (qo‘shimcha qo‘shish) va kompozitsion (so‘zlearning qo‘shilishi) yo‘llar bilan yasaladi. 2008-yilda kirill alifbosida chop etilgan “Hozirgi o‘zbek tilining izohli lug‘ati”da holat fe’llarining umumiy ko‘لامи quyidagicha aniqlanganini qayd etamiz (2-jadval).

2-jadval. Tub va soddda yasama fe’llarning aniqlanganlik ko‘لامи



Qo‘shimcha qo‘shish orqali yasalishda ko‘pincha (asosan) *qilmoq*, *etmoq*, *bo‘lmoq* so‘zlarini ishtirok etgan *bayon qilmoq*, *kashf etmoq*, *kasal bo‘lmoq* kabi

fe'llar fe'l yasovchi affikslar bilan yasalgan fe'llarga ma'nodosh bo'ladi: *kasal bo'lmoq* – *kasallanmoq*, *hozir bo'lmoq* – *hozirlanmoq* kabi. Fe'l bo'limgan so'zning *qilmoq*, *erimoq*, *aylamoq*, *bo'lmoq* fe'llaridan biri bilan birikishidan hamma vaqt ham qo'shma fe'llar hosil bo'lavermaydi. Masalan, *o'qituvchi edi*, *o'qituvchi bo'ldi* shaklidagi birikuv tarkibidagi fe'llar ot kesimga qo'shiladigan bog'lamalardir.

O'zbek tilida ikki fe'lning birikuvidan hosil bo'lgan qo'shma fe'llar uncha ko'p emas hamda bunday fe'llar kompozitsiya usulida yasalgan fe'l hisoblanmaydi. Masalan, *olib kelmoq*, *sotib olmoq*, *terib bormoq* kabi qo'shma fe'llar shular jumlasidandir. Bu qo'shma fe'llarni *ko'rib qolmoq*, *o'qib chiqmoq*, *ishlay boshlamoq* singari ikkinchi qismi mustaqil ma'noga ega bo'limgan ko'makchi fe'lli birikmalardan farqlash lozim.

Shu o'rinda ta'kidlash mumkinki, fe'l so'z turkumining yasalishi qadimgi turkiy tillarda ham, bugungi o'zbek tilida ham o'ziga xos. Tub va yasama fe'llarning to'g'ri ajratilishi etimologik jihatdan turkiy tillarning leksik imkoniyatlarini aniqlashga imkon beradi. Bu hodisa o'zbek tilida leksemalashuv jarayonini quyidagicha baholash mumkin (3-jadval).

3-jadval. O'zbek tilida fe'llarning leksemalashuv jarayoni

Sodda yasama fe'l (Asos+so'z yasovchi)	Qo'shma fe'l (asos+asos)	Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi
<i>Afsuslandi</i>	<i>Afsus qildi</i>	<i>Afsus qilib qoldi</i>
<i>Asabiylashdi</i>	<i>Asabiy bo'ldi</i>	<i>Asabiy bo'lib qoldi</i>
<i>Achchiqlandi</i>	<i>Achchiq qildi</i>	<i>Achchiq qilib qoldi</i>
<i>Tashvishlandi</i>	<i>Tashvish qildi</i>	<i>Tashvish qilib qoldi</i>
<i>Xavotirlandi</i>	<i>Xavotir qildi</i>	<i>Xavotir qilib qoldi</i>

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ko'makchi fe'l o'zining leksik ma'nosini qanchalik darajada yo'qolishiga bog'liq holda qo'shma fe'l yoki analistik shakl yasashi mumkin.

I bob bo'yicha xulosa

Fe'l so'z turkumi haqidagi ma'lumotlarni XI asrlarda Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lo'g'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarlarida, XIV- XV asrlarda esa A.Navoiyning "Muhokamat ul lug'atayin", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarlarida ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari XX asrda Abdurauf Fitratning fe'l so'z turkumi bo'yicha o'quv qo'llanmalari va darsliklarini ko'rishimiz mumkin.

Fe'llarning semantik guruhlarini belgilab chiqish va har bir guruhnini chuqur o'rganish, alohida ilmiy ishlarning obyekti bo'lib, maxsus tadqiqot talab etadi.

Fe'llarning semantik va uslubiy jihatdan guruhlarga va bu muammo ustida ilmiy ish olib borish (rus tilshunosligida ham, turkiy tillarda ham) ko'p tilshunos olimlar diqqatini o'ziga jalb qilib kelgan .

Kuliev fe'llarni 10 ta semantik guruhgaga ajratadi. Ular quyidagilar: 1) Ish faoliyat fe'llari; 2) sezgi ifodalovchi fe'llar; 3) nutq fe'llari; 4) ko'rish fe'llari; 5) tafakkur fe'llari; 6) harakat fe'llari; 7) ruhiy holatni ifodalovchi fe'llar; 8) tovushga taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llar; 9) taqlidiy so'zlardan yasalgan fe'llar va 10) tabiat hodisalarini aks ettiruvchi fe'llar.

A.Hojiyevning fe'l so'z turkumiga bag'ishlangan bir qator "Fe'l", "O'zbek tilida ko'makchi fe'llar", "To'liqsiz fe'llar", monografiyalari, maqolalari, M.Sodiqovaning "Fe'l uslubiyati", Sh.Shukurovning "Fe'l tarixidan", "O'zbek tilida fe'l mayllari taraqqiyoti", Sh.Rahmatullayevning "O'zbek tilida fe'l zamonalari taraqqiyoti", "O'zbek tilida fe'l frazemalarining bog'lashuvi", U.Sanaqulovning fe'l so'z turkumi haqidagi maqolalarini fe'l so'z turkumi bo'yicha tadqiqotlar safiga kiritishimiz mumkin.

II BOB. HOLAT FE’LLARINING GRAMMATIK TABIATI

2.1. Holat fe’llarining grammatik shakllar bilan ifodalanishi

Holat birlashtiruvchi semali fe’llar farqlovchi semadan boshqa semaga ega bo‘ladi. Bu sema “holat” birlashtiruvchi semali fe’llarning ma’lum guruhlari uchun umumiylis hisoblanadi. Bunday semalar birlashtiruvchi sema bilan farqlovchi semalar o‘rtasida turadi, muayyan xabar tashiydi – birlashtiruvchi sema sanaladi. Birlashtiruvchi semalar ham nisbatan mustaqil bo‘lib, farqlovchi semalarga nisbatan hajm tomondan keng, ya’ni biror leksik-semantic guruhi kiruvchi so‘z ma’nolarga xos umumiylis xususiyatlarni o‘z ichiga oladi. Ammo birlashtiruvchi sema birlashtiruvchi semaga nisbatan hajm jihatdan tor, chunki u faqat muayyan kichik doiraga xos so‘z ma’nolarning tarkibiy qismlari bilan bog‘lanadi. Birlashtiruvchi sema esa so‘z ma’nosining hajm jihatdan eng keng, mazmunan boy mantiqiy bo‘lagi chegarasidir. “Holat” birlashtiruvchi semali fe’llarning har bir ichki leksik-semantic guruhi o‘ziga xos birlashtiruvchi semalarga ega bo‘ladi.

O‘zbek tili so‘z turkumlari orasida uslubiy jihatdan eng e’tiborga loyig‘i fe’l bo‘lib hisoblanadi. M.N.Kojina: “Shuning uchun ham fe’l shakllarining qo‘llanish chastotasiga ko‘ra ilmiy va rasmiy nutq so‘zlashuv va badiiy nutqqa birmuncha qarama-qarshi qo‘yiladi”²⁷. Rasmiy nutqqa rasmiy xarakterdagi oborot xarakterli: tashrif buyurmoq, hozir bo‘lmoq, ishtirot etmoq, ma’lum qilmoq, e’tirof etmoq, kamchiliklarni bartaraf etmoq va hokazo.

Badiiy, ommabop va so‘zlashuv uslublarida harakat fe’llari ko‘p uchraydi va otli qurilmalardan qochiladi. Ilmiy nutqda gap predmetlarning, qonuniy hodisalarning doimiy belgilari va sifatlari haqida ketganligi va tasvir asosiy o‘rinni egallaganligi uchun ularda til tizimidan tegishli leksemalar va fe’l birliklari tanlab olinadi. Masalan, aynan ilmiy uslubda hozirgi zamonda qo‘llaniladigan holat fe’llari nutq paytidagi so‘zlashuv-maishiy nutqqa xos bo‘lgan dinamik holatni

²⁷ Kojina M.N. Stilisticheskie resursi russkogo yazika kak predmet issledovaniya lingvisticheskoy stilistiki. Glava vtoraya. Data indeksirovaniya: 30.11.2004. 120 Kb - <http://syr27rik.narod.ru/kozhina.htm>.

emas, balki sifatni bildiradi: *Suv allaqachon qaynayapti* - *Suv 100 gradusda qaynaydi.*

Turli fe'l kategoriyalari va shakllarining uslubiy xususiyatlari ularni funktsional uslublarda qo'llash darajasi bilan belgilanadi. Masalan, boshqa uslublarda ekspressivligi va emotzionalligi aniq ko'rinish turadigan va keng qo'llaniladigan buyruq shakli ilmiy va rasmiy uslublar uchun xos emas Bu maylning ayrim shakllarini farmonlar, qarorlar va buyruqlarda uchratish mumkin.

Fe'lning grammatik ko'rsatkichlari o'rtasida sinonimiya kuchli. Masalan, bu holatni zamon shakllarida ko'rishimiz mumkin. Ular birining o'rnida ikkinchisi qo'llanilaveradi. Badiiy uslubda bu shakllarning turli ko'rinishlarini uchratish mumkin. Ammo ilmiy yoki rasmiy uslublarda bu imkoniyatlar chegaralangan. Hatto bu uslub doirasidagi fanlarga qarab ham bu qo'llanishlar chegaralanishi mumkin. Biologiya fani bilan tarix fanidagi bayon uslubi bir-biriga o'xshamasligi mumkin. Shaxs ko'rsatkichlari sinonimiyasi g'oyatda kuchli. Ular nutqqa qo'shimcha ma'no beradi hamda ekspressivlikni oshiradi.

Fe'l zamonlari ko'rsatkichlari ham uslubiyatda qiziqish uyg'otadi. Hozirgi zamon shaklining qo'llanishi badiiy, rasmiy va ilmiy nutqlarda farqlanadi. "Turlituman zamon ma'nolarining hammasi badiiy nutq uchun xarakterli, biroq ular odatda ilmiy nutqdan farqlanadi"²⁸. Bu yerda tez-tez hozirgi-tarixiy yoki jonli tasvirga xizmat qiladigan o'tgan zamon fonidagi shakllar qo'llaniladi. Badiiy va so'zlashuv uslubida, ayniqsa, o'tgan zamon shakllarining ma'nosini vazifasi turlitumandir. Fe'l mayllari sinonimiyasi ham mahsuldor. Ravishdosh va sifatdoshlar kitobiy uslubiy xarakterga va bo'yoqqa ega.

Tantanavorlik. Zamon. "Kontekstual va situativ ma'no real ma'noga, ya'ni shaklning odatdagisi ma'nosiga mos kelmay qolishi natijasida ma'noda ko'chishi yuz beradi, ya'ni ma'lum shakl o'zi anglatishi kerak bo'lgan ma'noni emas, balki boshqa ma'noni ifodalash uchun xizmat qiladi" Fe'l zamonlaridagi ma'no ko'chishi va ular orqali ma'lum uslubiy maqsadlarning yuzaga chiqishi badiiy

²⁸ Shomaqsudov A., Rasulov.R. I., Qo'ng'urov R., Rustamov H. O'zbek tili stilistikasi. – T.: O'qituvchi, 1983. - 248 b.

matnlarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. Syujetli badiiy asardagi voqealar odatda o‘tgan zamonda sodir bo‘lgan, ammo uning tasviri turli zamon shakllarida ifoda etiladi.

Rasmiy va ilmiy uslubdagi matnlardagi zamon shakllarida birmuncha turg‘unlik hukmron bo‘ladi. Ular, asosan, zamon shaklida ifoda etiladi. Lekin so‘zlashuv uslubidagi nutqning zamon shakllari haqida gapirish qiyin hisoblanadi, chunki og‘zaki nutqda har uch zamon shaklining baravar ishlatilaverishi ushbu uslubning o‘ziga xos xususiyati sanaladi.

O‘tgan zamon ko‘rsatkichlari: -di, -gan edi, -(i) bilan edi, -(a)r edi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, ularda harakat bajarilishining aniq va aniq emaslik bo‘yoqlari mavjud. Ana shu bo‘yoqlar farqlanmaganda ularning biri o‘rnida ikkinchisini ishlatish mumkin. Misol uchun: -di harakatning bajarilish jarayonini, -gan bajarilish natijasini ko‘rsatadi. Buning ustiga -gan ish-harakatning -di ga qaraganda yana ham ilgari bo‘lib o‘tganiga ishora qiladi. Fe’l zamonlari shakllarining sinonimiyasiga e’tibor qaratamiz: -di -gan, -di -(i)b, -di -gan edi, -gan edi -(i) bilan edi, -yotgan edi, -yotib edi, -moqda edi, -(a)r edi, -guvchi edi kabi shakllar gaplar tarkibida sinonimlikni hosil qiladi.

Uslubiy xoslanishga misol keltiramiz, *-moqda edi* kitobiy uslubga xos, rasmiy-idoraviy uslubda ishlatiladi; *- guvchi edi* so‘zlashuv uslubiga xos hisoblanadi.

Hozirgi zamon ko‘rsatkichlari *-yotir*, *-yap*, *-moqda* kabi vositalar o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘ladi. Uslubiy bo‘yoqlari bilan farqlanadi. *-yotir*, *-moqda* kitobiy, *-yap* og‘zaki uslubda ko‘proq qo‘llanadi. *-moqda* harakatning uzoqroq davom etishini ko‘rsatadi. Bu grammatik shakllar hamma vaqt ham uslubiy jihatdan sinonim bo‘lavermaydi. *-moq* dagi rasmiylik bunga yo‘l qo‘ymasligi mumkin. Sintetik shakl: *ishlamoqda*; analitik shakl: *ishlab yuribdi*. *Yot*, *tur*, *yur*, *o‘tir* fe’llari. *Borayapman*, *boraman*, *borajakman*, *kelajaksan*, *keladigansan*. Misollarning mazmunan har uch zamonga tegishliligi yuqoridagi fikrlarimizning isbotidir.

Mayl. “Fe’lning mayl shakllari harakat bilan subyekt aloqasining obyektga munosabatini bildiradi”²⁹. Fe’l mayllarining har biri o‘z grammatik ko‘rsatkichiga ega va ular modal ma’nolarni ifodalashi bilan o‘zaro farqlanadi. Biri o‘rnida ikkinchini qo’llash o‘zbek tili uchun xos xususiyat. (Ijro mayli grammatik ko‘rsatkichga ega emas). Ijro mayli. Kechirasiz – iltimos bo‘yog‘i. *Borasan, kelasan* – buyruq shakli ijro ma’nosida (o‘ziga nisbatan). Oldik–ijro shakli buyruq ma’nosida. “*Va’da berdingmi – bajar, va’da bersang – bajar*”.

Buyruq mayli. Buyruq shakli ijro ma’nosida: *-diring, -diribsiz; -sin, -adi*. Bu kabi mayl almashishlari badiiy matnda katta emotsional- estetik effekt beradi.

Gumon mayli. *-masin* (olgan bo‘lmasin kabi). Sinonimiya: *-sin, -sa. Ishoning ishonsangiz ham.*

Shart mayli *-sa* bo‘ladimi (ijro ma’nosida), *-sang* (iz) – buyruq ma’nosida. Shaxs-son. Adresant – so‘zlovchi, adresat – tinglovchi, nutq jarayonida ishtirok etmagan shaxs. I shaxs ko‘pligi – birlik o‘rnida kamtarinlik, manmanlik, mag‘rurlanish, o‘zini katta olish bo‘yoqlari. Kamtarinlik – ilmiy uslubda. O‘z-o‘ziga murojaat qilish. III shaxs shakli I shaxs ma’nosida: *muallif o‘z minnatdorchilagini bildiradi*. “Ba’zan so‘zlovchi tinglovchiga II shaxsga murojaatda I shaxsning ko‘pligidan foydalanadi, ya’ni *ishingiz qanday, sog’ligingiz yaxshimi, yaxshi uxladingizmi* deyish o‘rniga *ishimiz yaxshimi, sog’ligimiz yaxshimi, yaxshi uxladikmi* tarzida murojaat qiladi. Tinglovchini o‘ziga qo‘sib oladi va uning ko‘nglini ko‘taradi. Bu xususiyat og‘zaki nutq, badiiy asar tili uchun xarakterlidir”.

II shaxs ko‘pligi – ham ko‘plik, ham hurmat. II shaxs birlik ko‘plik o‘rnida – *hech qaysing ketmaysan, ketsang ko‘radiganingni ko‘rasan*.

II shaxs birligi I shaxs birligi o‘rnida. Odam, kishi so‘zlarining ishtiroki.

Sof buyruq maylidagi fe’l harakatning bajarilishiga qat’iy undash bilan bog‘liq. Bu faqat o‘zakdan iborat bo‘lgan fe’llarda aniq sezilib turadi: tur, o‘tir, yur kabi. Qo‘sishchalar qo‘shilgan holatlarda ma’noda kengayish yuz beradi, ya’ni

²⁹ Sodiqova M. Fe’l stilistikasi. –T.: Fan, 1975. – 108 b.

so‘z ham vaziyatga qarab, ham sof buyruqni, ham boshqa qo‘sishimcha bo‘yoqlarni ifoda etishi mumkin. Masalan, *boring, bajaring* kabi so‘zlarni ikki ma’noda ham buyruq, ham iltimos ma’nosida tushunish mumkin. Uning qanday ma’noda ekanligini ohang hal qiladi. Agar urg‘u birinchi bo‘g‘inga tushsa, so‘z buyruq ohangini, so‘z oxiridagi bo‘g‘inga tushsa, iltimos ma’nosini anglatadi. -sin anglatadigan ma’nolar ko‘lami keng. U rasmiy uslubda sof buyruq ma’nosini anglatadi: *Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat” markazi Respublika Ma’naviyat va ma’rifat kengashining amaliy targ‘ibot yo‘nalishida faoliyat olib boradigan Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markaziga aylantirilsin. Quyidagilar Respublika Ma’naviyat targ‘ibot markazining asosiy vazifalari etib belgilansin.* (Prezident qaroridan).

Fe’l tarkibida *deb, uchun* so‘zlarining ishtirok etishi -sin shaklli fe’lning buyruq bo‘yog‘ini o‘zgartirib yuboradi. *Ularni sodiq bo‘lsin desang, qilichingni ilgingda mahkam ushla! Boshimga ne musibat tushmasin sendan nolimaymen, bil’aks, minbaad shukrona aytamen.* “Fuqaro ko‘rmasin deydur!”— Mirzo Ulug‘bek yuragida ko‘tarilgan alamlı tug‘yonni ichiga yutib, Muhammad Xisravning ust- boshiga razm soldi. Onhazratim sizni g‘animlar ko‘zidan yiroq bo‘lsin, - dedilar, kamina o‘zim borib kelur. *Qochsin, shahzoda odamlarining ko‘ziga tushmasin debdi!* Zero, muslimalar ham o‘qisin deb, ularni yo‘ldan urib, gunohga botgandur! (O.Yoqubov).

Shunday ekan, o’shanda o‘rtoq Rajabov raport yozmasin edi! Keyin so‘zidan qaytmasin edi! *Yashasin va yashnasin, Ulug‘ Oktyabr sotsialistik revolyutsiyasi!* Yana qochib chiqish qulay bo‘lsin uchun, eshik oldirog‘idan joy oldi. (T.Malik)

Bu dunyoda rohat ko‘rmadi, aqalli, u yoqda tinch yotsin sho‘rlik! “Yo‘qolsin tekinxo‘r boy va eshonlar!” degan xitoblar yangradi. Nima qilsin. dehqon! *Qishloqda sut aynimasin deb ichiga qurvaqa solib qo‘yishardi.* Kim bilsin tag‘in... *Iloyo Qur’on ursin seni, bildingmi?* — Fotima ko‘zlari o‘tdek yonib Soatga chaqchaydi-da, tizzalariga shapatilab, faryod soldi: — *Qur’on urmasa, rozimasman.* Onam rozi bo‘lsin desang, har kuni xat yoz Shahnozaga! Bunaqa

paytda o‘q o‘tmas nimcha u yoqda tursin kombinezon ham ortiqchalik qilib qoladi. Ammo qayoqqa borsin yarim kechada? Kechasi bo‘lgan voqeani eslamaslikka harchand urinmasin ayasining zor qaqshab yig‘lagani, anavi “Soat aka”ning dag‘dag‘alari yodiga tushib, yuragiga vahima o‘rmaladi. — Nima? Bolalar?! — Komissar kvartiraga o‘rnatilishi ehtimol bo‘lgan “qulqlar” yoki pastda, yo‘l chetida poylab turgan mashinadagi “lokator” eshitsin uchun ovozi boricha hayqirdi: — Itdan bo‘lgan qurbanlikka yaramaydi! Jillaqursa, kaftdek bospana bersin menga. (O‘Hoshimov)

Bugun bir bor siylasin meni!

Ko‘zlarimni tark aylasin xob,

Xayolimda ko‘rayin seni... (M.Ali. Seni sog‘inganda).

Ularga ne kerak, ne kerak endi, / Axir yosh joningga qilishsin shafqat! (M.Ali. Irmoq). Fikr: matnda yuzaga kelayotgan effektni faqatgina mayl ko‘rsatkichlariga bog‘lab qo‘yish to‘g‘ri emas Masalan, yuqoridagi misrada iltimosning yuqori darajasi bo‘lgan iltijoning berilishida ne kerak jumlasining takrorlanishi, axir yuklamasining keltirilishi ham ma’lum darajada rol o‘ynagan. *Qushlar yuraversin ozod fazoda, / Shamol esaversin orzu samoda* (M.Ali. Senga bag‘ishlangan sonetlar). *Ko‘nglin asrasinmi, yo yozsinmi she‘r, Qay biriga etsin bittagina qalb?* (M.Ali. Shoir). *Toshni olsin, farmon etsin lashkarga, Lanka yoqqa kelsin endi vallomat!* (M.Ali. Sitaning qasami). *Ont ichay: gar senga jilmayib boqsam, Bitsin o‘shal zahot baxtli kunlarim!* (M.Ali. Sitaning qasami). (shart va buyruq mayli shakllarining matnda parallellik hosil qilishi).

Har kishini dardi bo‘lsa, yig‘lasin yor oldida,

Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida. (Mashrab).

Ukajon, senga bir dildor uchrasin, Masiho nafasli nigor uchrasin! (misraning oxiriga olish, uni olti qatorlik besh bandli she‘rning har oxirgi ikki qatorida takrorlash). *Kimlarga ham borib dod desin endi, Qaylarda ham kezsin qop-qora qaqshab?* (M.Ali. Mashrab). *Qaydan bilsin buni yigitlar? Odimi sher, shahdi burgutlar?* (M.Ali.Sukunat). *Bundan ortiq yana qanaqa hukumat bo‘lsin?* (T.Malik)

2.2. Holat fe'llari va nisbat kategoriyasi

Fe'l nisbatlari. va fe'l darajalari ilmiy adabiyotlarda bir xil ma'noda qo'llaniladi. Fe'llari quyidagicha guruhlanadi: aniq, o'zlik, orttirma, birqalik, majhullik nisbatlari. Bosh nisbat – harakat grammatick subyekt tomonidan bajariladi va bunda mantiqiy va grammatick kategoriylar bir-biriga mos kelgan bo'ladi: *keldim, kelding, keldi*. Bu fe'lllar harakat ma'nosini bildirsa, *ikkilandim, hayratlandim, zavqlandim* so'zlari esa holat semalidir.

O'zlik nisbat – harakat bajaruvchisi ham, harakat obyekti ham bir xil shaxs yoki predmet bo'ladi: *yuvindi, kiyindi, tarandi*. Bunda: -n(-in). Qiyoq: almashibdi – almashtirilibdi – almashinibdi: *Bilasizmi, - dedi Nosirov kuyunib, ... kolxozi sekretari besh marta almashinibdi* (A.Qahhor).

Analitik usul ham mavjud: o'zini-o'zi. orttirma nisbat – bajartiruvchi-bajaruvchi munosabatini aks ettiradi: *yig'latdi, kuldirdi*. Bunda: dir, -tir. Bularga – kaz sinonim bo'lishi mumkin. Farqlar ochilishi lozim. *Olaytirdi, chaqchaytirdidagi-tir* orttirma daraja emas.

-t, -dir/- tir sinonimiya: *to'lat, to'ldir. - kaz - dir/- tir* sinonimiya: *bitkaz, bitir, yurgiz- yurdir*.

M.Sodiqova: -kaz, -giz (-g'iz), -qiz – jonli so'zlashuv uslubiga xos. -r (o'tkar eski o'zbek tiliga xos. Majhul nisbat -il/-in. Uslubiy xoslanish mavjud. Rasmiy farmonlarda, buyruqlarda shuning uchun, tomonidan kabi ko'makchi va ko'makchili qurilmalar bilan birqalikda qo'llaniladi.

Birqalik nisbat qo'shimchasining stilistik o'ziga xosliklari haqida gapiradigan bo'lsak, *gapirishdi* – *gaplashdi, yoqalashgan* – *yoqalatishgan, xayrlashdi* – *xayrlashishdi; yuvishishdi, tozalashishdi, tashishdi, ko'maklashdi* kabi so'zlardagi ma'no ottenkalariga e'tibor qaratamiz.

-sh: *tog'amlar kelishdi* hurmat ma'nosini hamda birqalik nisbatni bildiradi, *asabiylashdi* esa birqalik nisbat shakli emas.

Birgalik va majhullik ko‘p hollarda yonma-yon qo‘llanadi. Masalan, *almashdi*, *almashildi*, *almashindi*, *almashtirdi*, *almashtirildi*, *almashtirishdi*, so‘zlarini keltirishimiz mumikin.

Fe’lning bo‘lishsizlikni ifoda etuvchi maxsus grammatik shakli mavjud bo‘lib, u *-ma* shaklidir. Ammo bu ma’noni ifoda etishning boshqa vositalari ham mavjud: -may, mas+edi kabi shakllardan foydalaniladi. Bu esa ana shu vositalar o‘rtasidagi funksional chegaralanishlarni, sinonimik munosabatlarni aniqlash va ular keltirib chiqaradigan uslubiy bo‘yoqlarni farqlash imkonini beradi. M.Sodiqova: *-ma* orqali ovutish, achinib gapirish, jon kuydirish, nasihat, himoya, muhofaza qilish, uqtirish, ogohlantirish, qat’iy tartibga chaqirish, man etish, istak, iltimos, iltijo, so‘rash, ta’kid kabi modal ma’nolar ifoda qiladi. M.Sodiqova: kesimni bo‘lishsiz shaklda qo‘llash jonli nutqqa xos degan fikrni ilgari surgan. Bunday holda sinonimiya hodisasi sodir bo‘ladi. Masalan, -may, -masdan: *qo‘rqmay* - *qo‘rqmasdan*; -mas, -maydigan: *gapirmas* - *gapirmaydigan*; -magan/-gan emas; -maydi/maydigan, -adigan/ydigan emas: *kulmaydi* - *kuladigan emas* kabi misollarni ketirish mumkin. M.Sodiqova bu grammatik shakllarni jonli so‘zlashuvda qo‘llanilishini ta’kidlaydi. Ular alohida emas, balki ko‘makchi fe’llar bilan birgalikda qo‘llaniladi. Sinonimik munosabatda ikkinchi holat birinchi holat anglatadigan barcha ma’nolarni qamrab ololmaydi: hali veri bormaydi – *hali veri boradigan emas*; *maktabga bormaydi* – *maktabga boradigan emas* Ko‘rmaganman - *ko‘rgan emasman*, *qo‘rqmaganman* – *qo‘rqqan emasman*. Sinonimiya: *borgani yo‘q* - *bormagan*. Sinonimiya: *kelasanmi* – *kelmaysanmi*. Ular o‘rtasida, ya’ni bo‘lishlilik va bo‘lishsizlik o‘rtasida tenglik paydo bo‘ladi, lekin uslubiy noziklik mavjud. Mana bu narsa muhim: *bolasi tushmagur*, *yigit o‘limgur*, *qurib ketmagur*. Na. *Na kului*, *na qatra to‘kdi yoshini* – *kulmadi*, *ko‘z yoshi to‘kmadi*.

Infinitiv shakl va ekspressivlik ottenkasi. *Na kitob bor*, *na daftar – kitob ham yo‘q*, *daftar ham*. Shu o‘rinda na va ham sinonimiyami? M.Sodiqova ham bo‘lishsizlik ko‘rsatkichlarining semantik bo‘yoqlari va stilistik qo‘llanish xususiyatlari keng ekanligi haqida fikr yuritgan. Tildagi bo‘lishli-bo‘lishsizlik oppozitsiyasida bo‘lishsizlik ma’nosini ifoda etuvchi grammatik shakllarning

nafaqat o‘z ma’nolari doirasida, balki bo‘lishlilikni, tasdiqni ifoda etishda ham ishtirok qilishi uning uslubiy imkoniyatlari keng ekanligidan dalolat beradi. Misol uchun, *aytmay qo‘ymadi, gapirmay qo‘ymadi, yemay qo‘ymadi, olmay qo‘ymadi* kabi qo‘shma fe’llar tarkibida –ma ning takrorlanishi bo‘lishlilik ma’nosini keltirib chiqaradi. M.Sodiqovaning ta’kidlashicha, “Bo‘lishsizlik ma’nosи ba’zan bo‘lishsizlik shakllari qo‘llanmagan taqdirda ham ifodalanadi: intonatsiya ta’sirida, turli yuklamalar vositasida bo‘lishli shakldagi gaplar ham bo‘lishsiz ma’nolarni bera oladi. Bular ko‘proq ekspressivlik, modallik ma’nolarini bo‘rttiradi, ta’sirchanlikni oshiradi”³⁰. *Qani endi gap uqtirib bo‘lsa* (A.Qahhor).

M.Sodiqova xudo biladi, Ollo biladi, balki, ehtimol kabi ehtimollikni kuchaytiruvchi vositalar borligini ham ta’kidlaydi. Masalan, *kim biladi - bilmayman, kim bilsin - bilmayman, qayoqdan bilay - bilmayman*. Bular safini kengaytirish mumkin. Ammo ularning uslubiy qiymati (muvozanati) bir xil. Misol uchun, birinchi qismida kuchli, kinoya bo‘yog‘i bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari M.Sodiqova: “Bo‘lishsizlik, zidlash kabi mazmunlarni berishda aktiv qo‘llaniladigan bo‘lmasa, bo‘lmasin, bo‘lmasa-chi, qaramay, qaramasdan kabi bir qancha bo‘lishsiz “fe’l ko‘makchilar” borligini ham e’tirof etadi.

Madaniy muomala: aytolmaysizmi, berib turolmaysizmi kabi. *Kim senga aytdi yomon deb - yomon emas. Yo‘q emas - bor, nolimagan odam yo‘q - hamma noliydi. Gapirib bo‘pti - gapirolmaydi. Gapirib ko‘rsin-chi - gapirolmaydi* – tahdid ma’nosи anglashiladi. Uylanganini ko‘ray - uylanmaydi, uylana olmaydi M.Sodiqova akkilamay o‘l, gapirmay o‘l – gapirganing uchun o‘l ma’nosи. Fe’llarning semantik-uslubiy xususiyatlari. M.Sodiqova fe’llarni uch guruhga ajratib tahlil etgan. Bular harakat fe’llari, holat fe’llari va munosabat fe’llari hisoblanadi.

Harakat fe’llari. Muallif yurmoq fe’lini tahlil qilib, u yolg‘iz holda qo‘llanilganda yurish harakatidagi barcha usullarni, undagi ma’nolarni ocha olmaydi. Buning uchun tilda leksik vositalar (ravishlarni qo‘llash), morfologik vositalar (ravishdoshlar, ko‘makchi fe’llarni qo‘llash), sintaktik-uslubiy usullar

³⁰ Sodiqova M. Fe’l stilistikasi. –T.: Fan, 1975. – 135 b.

(tasviriy yo'llar bilan berish) ishga solinadi. “Yurish usullaridagi turliliklarni, ma’no nozikliklarini ifodalashga xizmat etuvchi ko‘makchi fe’llarning o‘zi ham ayni vaqtda mustaqil fe’l vazifasida kelib, “yurmoq” fe’liga sinonimik variant bo‘la oladi”, yo‘rg‘alab yurmoq – yo‘rg‘alamoq. Mana shu misol asosida tahlilni kengaytirish mumkin. Fe’l-so‘z o‘rtasidagi sinonimik munosabatni leksik uslubiyat bo‘limiga qoldirib, fe’l uslubiyati qismida fe’lga daxldor bo‘lgan morfologik ko‘rsatkichlar sinonimiyasi o‘rganilishi maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ammo funktsional taqsimlanish masalasida fe’l so‘zlariga ham murojaat qilishga to‘g‘ri keladi. Ekspressiv ma’nuning ifoda etilishida fe’l asosiy vazifani o‘z zimmasiga oladi. Ayni paytda, bu ma’nuning yuzaga chiqishida olmosh, yuklama, ko‘makchi kabi lingvistik vositalar majmuasi ham faol ishtirok etadi.

Holat ifodalovchi fe’llar haqida to‘xtalsak, holat fe’llari turg‘un birikmalarning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Munosabat fe’llari. Sodda fe’llar bilan ko‘makchili fe’llar o‘rtasida sinonimiya kuzatiladi. Ammo ularning ekspressivlik xususiyati bir xil emas. Betti qursin – qurib ketsin, o‘lsin- o‘lib ketsin, o‘ldim-o‘lib bo‘ldim, o‘lib yuribdi, o‘lib qoldi.

Fe’lning semantik strukturasi murakkab hisoblabanadi. Fe’l struktural jihatdan bir, ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin. Bir ma’no atrofida birlashadigan mana shu struktural farqlar o‘rtasida sinonimik munosabat bo‘lishi mumkin.

M.Peshkovskiydan: “fe’l - gapning joni”, “so‘z turkumlarini fazoda harakat qilib yurgan planetalar deb faraz qilsak, fe’l ularning quyoshidir”³¹, - deydi. Harakat ma’nosи bir fe’l shakli va ko‘makchi fe’llar yordamida ham ifodalanishi mumkin. Ko‘makchi fe’llar tarkibidagi yordamchi fe’l harakat ma’nosini ifoda etmaydi, ammo ular qo‘srimcha ma’no ifolashaga xizmat qiladi. Bu ma’nolar grammatik yoki uslubiy ma’no hisoblanadi.

Yordamchi fe’llarni A.Hojiyev uch guruhga bo‘lib ko‘rsatgan: bog‘lama vazifasini bajaruvchi, ko‘makchi va to‘liqsiz fe’llar. Ular orasida qo‘shma va

³¹ Hojiev A. Fe’l. – T.: Fan, 1973. - 192 b.

ko‘makchi fe’llar uslubiy nuqtai nazardan ahamiyatlidir. Bu, ayniqsa, ularni bir ma’noni ifoda etuvchi sodda fellar bilan taqqoslaganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Fe’llar ikki xil yo‘l – affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan yasaladi.

2.3. Holat fe’llarining analitik shakllari

Fe’lning funksional shakllarining asosiy qismini analitik shakllar tashkil etadi. Bu shakllarning ko‘makchi fe’l va to‘liqsiz fe’l ishtirokida hosil bo‘luvchi shakllari o‘ziga xos ahamiyatga ega.

Ko‘makchi fe’llar harakatning turli xil tomonlarini ifodalovchi, bundan tashqari turli modal ma’nolarni ko‘rsatuvchi shakllarini yasash uchun ham xizmat qiladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida butunlay ko‘makchi fe’l sifatida qo‘llanadigan fe’llar uchramaydi. Ba’zi mustaqil fe’llar ko‘makchi fe’l vazifasini bajarib keladi va turli ma’nolarni ifodalaydi. Ko‘makchi fe’l bog‘lanib kelgan mustaqil fe’l yetakchi fe’l sanaladi: *avj ol- ib ketdi, avra- b qoldi, ajablan- a boshladi*. Ketdi, qoldi, boshladi fe’llari ko‘makchi fe’l bo‘lib o‘z mustaqil ma’nosini yo‘qotib, harakatning davom etishi va boshlanishini ifodalovchi holat fe’llari sanaladi.

Hozirgi o‘zbek adabiy tilida quyidagi fe’llar ko‘makchi fe’l o‘rnida ham kela oladi: boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bo‘l, bit, ol, ber, qol, qo‘y, chiq, bor, kel, ket, yubor, tashla, sol, tush, o‘l, o‘t, et, ko‘r, qara, boq, yoz.

Ko‘makchi fe’l yordamida yasaluvchi analitik shaklning bir yetakchi va bir ko‘makchi fe’ldan hosil bo‘lgan turi juda faol hisoblanadi. Ikki va undan ortiq ko‘makchili shakli kam qo‘llanadi. Birdan ortiq ko‘makchi fe’lli analitik shakli ravishdoshning -(i)b, -a, -y affiksi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l ishtirok etsa, yetakchi fe’lga oldin -(i)b affiksi yordamida birikuvchi ko‘makchi fe’l, keyingisi -a, -y affiksi orqali birikuvchi ko‘makchi fe’l qo‘shiladi. Masalan, *yayra- b tur- a qol, yaltira- b tur- a berdi*.³²

‘Aynan bir fe’l bilan hosil qilingan analitik shakldagi ko‘makchi fe’llar uyushiq bo‘lak vazifasida bo‘lsa, ko‘makchi fe’lning bir marta, ya’ni ketma-ket

³² O‘zbek tilining izohli lug‘ti. www.zivo.uz.com kutubxonasi.5- tom 30- 32 b.

qo‘llanmagan holda uyushiq bo‘laklarning eng oxirgisi bilan qo‘llanishi kuzatiladi: *Vaqt o‘tgan sari mehmonlar bezovtalanib, zerikib, xijolat tortib qolishdi.* Ushbu misolda bezovtalanib, zerikib, xijolat tortib yetakchi fe’l, qolishdi fe’li esa ko‘makchi fe’l bo‘lib, o‘zidan oldin uyushib kelgan barcha yetakchi fe’llarga taalluqlidir.

Ko‘makchi fe’llarning analitik shaklini hosil qilishda qo‘llanish imkoniyati har xil. Ularning ba’zilari barcha fe’llar bilan birika olsa, boshqalari esa sanoqli fe’llar bilan birikish imkoniyatiga ega. Masalan, boshla ko‘makchi fe’li hamma fe’llar bilan birika olsa, yoz ko‘makchi fe’li *quvonmoq, tekshirmoq, o’smoq* kabi fe’llar bilan birika olmaydi³³.

Shart mayli –sa qo‘shimchasini olgan fe’l shakli shart ma’nosini ifodalaydi. Bo‘yoqlari: istak, xohish, orzu, iltimos. Lekin bilib qolsam, ko‘radiganingni ko‘rasan, deyilsa, fe’l shakli ularning birontasini ham ifoda etmaydi, balki so‘zda ekspressiv bo‘yoq yuzaga keladi. - sa shaklli fe’llar bilan birga shoyad, zora, qani, qani endi, koshki, koshki edi, nima qilarkan, nima qilarkin-a kabi yordamchi so‘z va iboralar qo‘shilib ishlatilsa, ekspressivlik kuchayadi.

- *sa ham mayli, -sa bo‘ldi, -sa bas, -sa bo‘lgani kabi qoliplar ham ekspressivlikni kuchaytiradi.*

Shoyad shunday bo‘lsa! Shoyad! – Mavlono Muhiddin, dilida tug‘yon, ko‘z oldida qandaydir tuman, go‘yo kalima keltirayotganday "shoyad" so‘zini takrorlay- takrorlay, rasadxonaga yetganini ham bilmay qoldi.

Gumon: *Millioner bo‘lmasa, "Chayka"ni qayerdan oladi bular! Hushingni joyiga keltirib qo‘ymasam, yurgan ekanman! SMERSH- chilar jasorat ko‘rsatmasa, kim bilsin, nima bo‘lardi bu yog‘i!*

- sa nima qipti? –sa nima bo‘pti?

—*Tinchlik bermasa nima qilay? Yozug‘i shu bo‘lsa nima qilsin!* (O‘.Hoshimov.) - *Kunjara bersam, yemasa nima qilayin? Buni sovet tuzumi dushmanlari eshitib qolsa nima deydi? Birortasi yig‘lab-yig‘lab, yong‘oq ostida...*

³³ Shoabdurahmonov Sh, Asqarova M, Hojiyev A, RasulovI, Domiyorov X. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Tashkent – O‘qituvchi - 1980. 381-400 b.

uxlab qolsa nima bo'ladi? Qafasda yashayotgan kaptarni qo'yib yuborsa nima bo'ladi? —Makkajo 'xori bo'lsa nima bo'pti? — Sobiq bo'lsa nima qipti, sobiq bo'lsa nima qipti? (T.Malik).

Ajablanish, hayratlanish, hayajonlanish, tutoqish, kinoya, masxaralash, o'kinish, kuyinish, afsuslanish nahotki, muncha/buncha elementlari yordamida kuchaytiriladi. *Nahotki, shu mittigina keta balig'ichalik bo'lmasak?* “Nahotki, partiya tashkilotlari befarq qaraydi? - o'yladi. Botir firqa. — Nahotki, kommunistlar sukut saqlaydi?” (T.Malik) – “Nahotki, partiya tashkilotlari befarq qarasa? - o'yladi Botir firqa. — Nahotki, kommunistlar sukut saqlasa, bular buncha baqiradi?” Bular buncha baqirmsa? (T.Malik) Fe'lning mayl shakllari o'zidangina uslubiy bo'yoqlarni anglab olishi qiyin kechadi. Bu bo'yoqlar butun gapdan anglashiladi. Fe'lning mayl shakllari esa bu ma'noni kuchaytirishi mumkin.

Gumon, shubha, taxmin, hadiksirash ma'nolari bordi-yu, agar, birdan kabi yordamchi vositalar yordamida amalga oshiriladi. *Bordi-yu, ota-onasi, yorbirodarlaridan duo yoxud istig'for borib qolsa, bu marhum uchun dunyodagi barcha narsalardan mahbubroq bo'ladi.*

To'siqsizlik ma'nosini beruvchi -sa bo'ladi shakliga e'tiborimizni qaratamiz, *Mana endi pok vijdon bilan Xurshidabonuni olib o'z yurtiga ketsa bo'ladi. Bu qop-qopa harflardan qanday qutulsa bo'ladi?* Buning sinonimi sifatida: -sh mumkin shaklini olish mumkin. Misol sifatida, *Lekin ayrim hujayralarni oddiy ko'z bilan ham ko'rish mumkin. Qovun, tarvuz, pamidor singari o'simliklarning meva eti hujayralarini lupa yordamida ko'rish mumkin.* S.Mustafaevning “Botanika” darsligidan olingan betlik parchada o'n sakkiz marta qo'llangan. Ularni tamoyillar deb atash mumkin. R.Valijonov va boshqalarning “Menejment asoslari” kitobidan olingan o'ttiz to'qqiz betlik parchada o'n to'qqiz marta qo'llanganligi uning ilmiy matnlar uchun xos ekanligidan dalolat beradi.

-samikin/ samikan/ sami ekan. *O'zidan so'rasammikin? Yo bir Moskvaga borib kelsammikin? Kampirga aytsammikin? Chin-da, bitta meni kutib o'tiradimi? – dedi. – endi qaytib ketaversammikin?*

- sa kerak: *Oftob botgan bo 'lsa kerak, tevarak qorong 'ilashib qolgan, havo sovib, yana kechagiday etni junjiktiruvchi izg 'irin boshlangan edi. U ham soqolini tutamlab, bir nuqtaga tikilib o 'tirar, o 'z yurtini eslab, o 'ksingan bo 'lsa kerak, so 'nik yuzida teran bir mahzunlik aks etardi. Tong yaqin bo 'lsa kerak, har joy-har joyda xo 'rozlar qichqirar, itlar hurar, eshaklar hangrardi.*

- sa ham: *Tun oysiz bo 'lsa ham, yulduzlar aks etgan firuza gumbazlari allaqanday ko 'kish jilo taratib, g 'alati yaltillab turardi*

- sa bo'ladimi: *Petr Perviyni generali mana men Kutuzov deb, boshimga bir solsa bo 'ladimi? (T.M). Devor orasidan sirg 'alib chiqsa bo 'ladimi? Anavi masala bo 'yicha indinga borsa bo 'ladimi? – qiyos. Xuddi shuning ustiga anavi ahmoq kelib qolsa bo 'ladimi? Ko 'cha supurib turgan joyida tutib qolsa bo 'ladimi?* (O'.Hoshimov).

- sa mayli: *Boshim hech chiqmasa mayli, malomat birla bo 'htondan, / Fido jonimni qildim yo 'lingga, mayli, uvol bo 'lsam. (H.Olimjon). Sen uchun ochilgan, senga deb uzdim, / Ol, — deding,— qo 'lingda so 'lsa mayliga (Zulfiya. Hijron kunlarida). - sa edi: **Kimdandir qo'rquv, nimadandir qo'rquv:** gap tegib qolmasa edi. Shov-shuv bo 'lib ketmasa edi. Xo 'jayin bilib qolmasa edi. Reviziya kelib qolmasa edi. Oxiri voy bo 'lmasa edi. (T.Malik). Agar feodalizm zamonida bo 'lsa edi, Dilyaday ayollar... biror boyni yo o 'ninch, yo o 'n beshinchi xotini bo 'lar edi, — dedi Botir firqa. — Qayta quruvchilar... kulmasa edi, deyman- da? Shuni hayotida suitsid sodir bo 'lmasa edi, deb qo 'rqaman. (T.Malik).*

Payt ma'nosi: *Yoniga yugurib borsam, dadam g 'oyib bo 'lib qopti. (O'.Hoshimov). Maqsad, niyat ma'nosi: Nasib etsa, o 'z yurtinga omon-eson borsam, Shahnoza qizimning qo 'lidan albatta osh eyman. Xudo nasibamni qo 'shib omon eson borsam, kelinimni peshonasidan o 'pib, yana bir karra oq fotiha beraman. (O'.Hoshimov).*

Boshqa ma'no: *Maylimi borsam? (O'.Hoshimov). Afg 'onistonga yuborsam bo 'larkan – afsuslanish (O'.Hoshimov). Bo 'lsa: Kadr bo 'lsam, qonsa chanqoq o 'lkam talabi (Zulfiya. Qardosh qizga).*

Uyli bo'lsa, yayrab yolchisa, / Yayraganin o'lmayin ko'rsam. (Zulfiya. Hojar). Tun oysiz bo'lsa ham, yulduzlar aks etgan firuza gumbazlari allaqanday ko'kish jilo taratib, g'alati yaltillab turardi

Maqsad mayli. -moqchi: *Ammo... sening umringga zavol bo'lmoqchi emasmen. Ali Qushchi eshikni ohista yopib, orqaga qaytmoqchi bo'ldi. Ali Qushchi "ha, mulohaza qilib ko'rdim", - demoqchi edi. (O.Yoqubov)* -man deb: - Sovet tuzumi ana shu beshinchi karomatda...qosh qo'yaman deb, ko'z chiqarib qo'ydi! (T.M). Lekin uni bu ahvolda ko'raman deb, boshida eski kuloh, egnida juldur janda, soch- soqoli o'sib ketgan bir devona qiyofasida ko'raman deb, o'ylamagan edi. (O.Yoqubov). Zargar uning aytganini qilaman deb, bu uqubatga giriftor bo'ldi. Ali Qushchi shu sovuq bo'yrada yotaman deb oyoqdan ayrildi... – e'tibor berilsin (O.Yoqubov).

- sin uchun: *Yana qochib chiqish qulay bo'lsin uchun... eshik oldirog 'idan joy oldi. Yana yashirgan zeb- ziynatlari bilinsin uchun oyoqlarini erga urmasinlar! Botir firqa kulib yubormasin uchun — kaftini og'ziga qo'ydi. (T.Malik).* - sin deb: – Dafn etdik! – dedi. – Bir bandai mo'min ko'rmasin deb, Madrasa hovlisining bir burchiga erlatdim, pushtipanoh... Zero, muslimalar ham o'qisin deb, ularni yo'ldan urib, gunohga botgandur! Men zambaraklardan bir yo'la yigirmatadan o'q, otilsin deb buyruq berdim, xolos! – maqsad mayliga o'xshamaydi (T.Malik). Guman-taxmin mayli. -r(ar): bilsa bilar, bilmasa xudo biladi. -mikin: Yo boshiga tushgan tashvish bilan bo'lib, shogirdini chaqirgani yodidan ko'tarildimikin?.. Yo uni chaqirtirgani hazratlarining yodidan ko'tarildimikin? Yo u ham Mirzo Ulug'bekning fojiali taqdirini eshitib, o'ylanib qoldimikin? (O.Yoqubov).

-dir/ -dur: *Bu borada siz hazratimning qilgan xizmatlari shunday ulug'dirkim, bunga shak-shubha yuqdir ... – bu misol qiyos uchun. Balki janob undan norozi bo'lgandir yo bil'aks, bu ikki oyda qilgan yumushlaridan hisob so'ramoq maqsadidadir? U o'z qiblagohi uchun xun olmoq azmida qilgandur bu ishni! Xo'sh, qay ko'chada yotgandur oltin-u javohirlar? Demakkim, arshi a'lo hisoblanmish osmoni falakni ummonga, olloning shamchiroqlarini baliqlarga*

o'xshatmoqni ham o'shal betayfiq, vohidi zamon o'rgatgandur sizga? (O.Yoqubov).

- **mas:** *Agar mavlono Muhiddin Ali Qushchiga o'xshab, o'z so'zi, o'z e'tiqodida qattiq turganida shahzoda, ehtimol, boyagidan ham darg'azab bo'lar, balki, uni jallodga topshirishdan ham toymas edi.* - gumon bu erda balkisiz shakllanmaydi (O.Yoqubov).

- **ga o'xshaydi:** *Go'yo dorussaltana Samarcand tahlika ostida qolganini odamlargina emas, parranda va darrandalar ham sezganday, na qushlarning sayrashi eshitiladi, na qo'y-qo'zilarning ma'rashi! Hatto itlar ham pana-panaga kirib ketganga o'xshaydi. Filhaqiqat, bu so'zda bir hikmat borga o'xshaydikim, kimki u donishi jahonga g'animlik qilsa, holi voy bo'ldi.* (O.Yoqubov). — Janoblar, aftidan, keksa avlod osonlikcha taslim bo'lmoqchi emasga o'xshaydi. Keksa avlod osonlikcha jon bermoqchi emasga o'xshaydi! — dedi. (T.Malik).

- **sa kerak:** *U ham soqolini tutamlab, bir nuqtaga tikilib o'tirar, o'z yurtini eslab, o'ksingan bo'lsa kerak, so'nik yuzida teran bir mahzunlik aks etardi. Tong yaqin bo'lsa kerak, har joy-har joyda xo'rozlar qichqirar, itlar hurar, eshaklar hangrardi. Bu safar hazrat huzurida mu'tabar bir zot bo'lsa kerak, ichki va tashqi hovlidagi muridlar oyoq uchida yurishar, bir-birlarining quloqlariga shivirlashib so'zlashar, turnaqator bo'lishib, oshxonadan ichkariga kumush barkashlarda ovqat tashishar edi...* (O.Yoqubov). Menimcha, bolasi bo'lsa kerak, bag'riga bisib yetibdi. - endi... endi, gap bunday, — dedi Botir firqa. — Xabarlarining bo'lsa kerak, anavi suv bo'yida bir... eskilik sarqiti bo'lar edi. Ismi sharifidan... arab shayxlaridan bo'lsa kerak (T.Malik).

- **shi mumkin:** *Rost, bir oz pul yo tilla bo'lsa zarar qolmas edi, lekin tillani yolg'iz shahzoda in'om etishi mumkin.* balki, shekilli, ehtimol, xudo biladi, kim biladi so'zları ishtirok etadi. *Balki janob undan norozi bo'lgandir yo bil'aks, bu ikki oyda qilgan yumushlaridan hisob so'ramoq maqsadidadir?* Ammo balki hamma vaqt ham bun ma'noi beravermaydi: *Agar mavlono Muhiddin Ali Qushchiga o'xshab, o'z so'zi, o'z e'tiqodida qattiq turganida shahzoda ehtimol boyagidan*

ham darg‘azab bo‘lar, balki uni jallodga topshirishdan ham toymas edi.
(O.Yoqubov)

Darhaqiqat, fe'lning analitik shaklidagi to‘siksizlik ma’nosini beruvchi -sa vositasi istak, xohish, orzu, iltimos kabi bo‘yoqdorlikni ifodalaydi.

III BOB. HOLAT FE'LLARINING STILISTIKASI

3.1. Holat fe'llarining uslubiy xoslanishi

L.G.Barlas “Russkiy yazik. Stilistika” kitobida fe'l turkumi qo'llanish ko'lamining naqadar kengligini ko'rsatish maqsadida ularning uslublararo taxminiy qo'llanish chastotasini beradi va ularning badiiy uslubda rasmiy uslubga nisbatan 2,5 baravar, ilmiy uslubga qaraganda 1,7 marta ko'p qo'llanishini ta'kidlaydi.³⁴

Shuningdek, ommabop va so'zlashuv uslubida ham fe'llardan samarali foydalilaniladi. Ilmiy uslubda II shaxs birligi va ko'pligi qo'llanilmaydi. I shaxs birligi ham qo'llanilmaydi, ko'pligi esa qo'llaniladi, ammo o'z ma'nosida emas Nega ilmiy uslubda men o'rnida biz qo'llaniladi. Buni biz odatda kamtarlik ma'nosida sharxlaymiz. L.G.Barlas esa buni muallif subyektivligidan ko'ra obyektivligini ko'rsatishga xizmat qiladi, deb izohlaydi. Ayrim fe'l zamonlarining ilmiy uslubga xoslanishini ham shu tarzda izohlaydi.

Rasmiy uslubdagi matnlarda I va II shaxs shakllari deyarli uchramaydi. Bu matnlar uchun fe'lning noaniq (majhul nisbat) shakllari xos. Rasmiy va ilmiy nutqlarda fe'lning hozirgi zamon shakllari, badiiy nutqda esa o'tgan zamon shakllari mahsuldor. Ammo ular ham o'zaro farqlanadi. Ilmiy uslubning hozirgi zamon ko'rsatkichlari umumiy ma'nosini kasb etsa, rasmiy uslubda bu ma'nolar aniq ko'rsatiladi. (Kodekslardan misollar keltirish mumkin). So'zlashuv nutqida fe'l zamonlari shakllari teng proportsional. Badiiy nutqda hozirgi zamon hikoya fe'li shakli keng qo'llaniladi va ilgari bo'lib o'tgan voqeа haqida kitobxonda go'yo hozir bo'lib o'tgandek tasavvur paydo qiladi. Badiiy nutqdagi xuddi shakl so'zlashuv nutqida farq qiladi va shuning uchun ular qiyoslanishi lozim. Chunki og'zaki nutqda so'zlovchining bevosita ishtirok etishi nutq bo'yoqsiga ta'sir qiladi. Badiiy nutqda esa so'zlovchi yoki bayon etuvchi bilan voqeа o'rtasida jonli aloqa yo'q.

34. Barlas L.G. Russkiy yazik. Stilistika.– M.: Prosveshenie, 1978. – 256-b.

Ommabop uslubda muallif “men”i bevosita ishtirok etadi, bayon juda aniq beriladi. Bayonning hozirgi zamon shaklida berilishining badiiy ifoda uchun ham qulaylik tomoni bor. Ushbu zamon shakli beradigan emotсional ekspressivlikni o’tgan zamon shakli bera olmasligi mumkin. Hozirgi zamon shakli beradigan emotсionallik badiiy va so‘zlashuv uslublari uchun xarakterli. Hozirgi zamon shakli kelasi zamонни ifodalashi ham mumkin. So‘zlashuv nutqida o’tgan zamon shakli kelasi zamонни ifodalashi mumkin: Xo‘p, men ketdim - Xo‘p, men ketay kabi.

O’tgan zamon shaklini qo‘llash ilmiy va rasmiy uslublarga xos. O‘timli-o‘timlilik shakllari qo‘llanilishi ham funksional jihatdan farqlanadi. Rozental’ D.E: ayrim fe’llar semantik sabablarga ko‘ra I-II shaxs birlik va ko‘plik qo‘llanilmaydi: zanglamoq kabi. Chunki bu kabi fe’llar jonivorlarga, o‘simlik olamiga, tabiat hodisalariga nisbatan qo‘llaniladi. Bu kabi fe’llarning shu shaxslarda qo‘llanilishi obrazlilik talabi bilan (Misol sifatida jonlantirish, ritorik so‘roq kabilar) amalga oshirilishi mumkin. Ba’zi fe’llarning shaxs doirasida qo‘llanilishi semantik jihatdan chegaralangan. G‘alaba qilmoq. Nostrifikatsiya qilmoq, kompyuterlashtirmoq. Qo‘llanilishi eskirgan fe’llar ham bo‘lishi mumkin. Ayrim fe’llar bir zamon doirasida ikki xil ma’noni anglatishi mumkin. Fe’lning shaxs ko‘rsatkichlari o‘zaro sinonimik munosabatda bo‘ladi. Bu o‘rinda aytildigan gaplar xuddi olmoshlardagi singari bo‘lishi mumkin. Misol uchun, ko‘plikning birlik o‘rnida qo‘llanilishi: *qayd qilamiz, ta’kidlaymiz* kabi. Ularning ilmiy uslubga xosligi; 2-shaxs birligining 1-shaxs birligi o‘rnida qo‘llanilishi: *bir jahon og‘ushida sezasan o‘zingni* (*Zulfiya*); 3-shaxs birligining 1-shaxs birligi o‘rnida qo‘llanilishi: *O, odam, senga gapirayapti, qulog‘ingga tom bitganmi!*; 3-shaxs birligining 2-shaxs birligi o‘rnida qo‘llanilishi: *yana uning baqrayib turishini qara!* kabi; 1-shaxs ko‘pligining 2-shaxs ko‘pligi o‘rnida qo‘llanilishi: *mana biz qanday odamlarmiz!* 2-shaxs birligining 2-shaxs ko‘pligi o‘rnida qo‘llanilishi: *Ikki qator bo‘lib saflan!*; 3-shaxs ko‘pligining 3-shaxs birligi o‘rnida qo‘llanilishi: *nozik ko‘ngillari yana nimani xohlaydilar, a!* Bu sinonimik munosabatlar zamon ko‘rsatkichlari o‘rtasida ham sodir bo‘ladi: hozirgi

zamonning o‘tgan zamon o‘rnida: (taxminan) *borayapti, kelayapti* kabi. Bu (badiiy)bayon uchun eng qulay usul hisoblanadi.

Hozirgi zamonning kelasi zamon o‘rnida qo‘llanishiga misol keltiramiz, *bugun kechasi poyezdda ketayapman, ertaga ertalab samolyotda uchayapman* kabi. o‘tgan zamon shaklining kelasi zamon ma’nosida qo‘llanishi: *men ishga ketdim, sen esa bolani bog‘chaga olib borib, keyin ishga o‘tasan;* kelasi zamon shakli hozirgi zamon ma’nosida: masalan, *it huradi, karvon o‘tadi;* kelasi zamon shakli o‘tgan zamon ma’nosida: *ketayapman, ketayapman, yo‘lning hech oxiri ko‘rinmaydi.* Fe’l infenetiv shaklining zamonlar bilan sinonimik munosabatini ham tahlil qilish lozim.

Fe’l mayllaridagi sinonimiya. Fe’l mayllaridagi ma’no yaqinligi ularning sinonimiyasiga asos bo‘ladi. Buyruq-istik maylining boshqa fe’l mayllari o‘rnida qo‘llanishi. Bu esa istak, majbur bo‘lish, zarurat kabi turli xil bo‘yoqlarni keltirib chiqaradi. Buyruq-istik maylining o‘z doirasida ham turli xil ekspressiv bo‘yoqlar yuzaga kelishi mumkin.

Qat’iyat o‘timli-o‘timsiz o‘rtasida ham farqlanadi: bajaringlar, bajar. (ushbu misoldagi *-lar* qat’iyatning yumshashiga ta’sir qilishi mumkin. Chunki ko‘plikni *-ing* ado etmoqda, uni yana ta’kidlashga hojat yo‘q. U tufayli ohang ham o‘zgarishi mumkin. Xuddi shuningdek, unga qo‘shilgan *-chi* yuklamasi ham ohangga ta’sir qiladi, buyruqni yumshatadi. *-gin* ham alohida bo‘yoqlarni keltirib chiqaradi. Shu holatlar tahlil etilishi lozim. *Yuringlar, yuraylik* kabi holatlarni ham solishtirib ko‘rishimiz mumkin.

- *ma* qo‘sishimchasi harakatni bajarmaslikka da’vat etish bilan birgalikda ogohlantirishi, ehtiyotkorlikka chaqirishi ham mumkin. Buyruq-istik mayli ijro mayli ma’nosida: kun bo‘yi dalada ishlaysan, kechqurun charchab uyingga kelasan, uyda esa seni kutib oladigan odam yo‘q. Fe’lning o‘timli-o‘timsizlik shakllari o‘rtasida ham sinonimiya mavjud. Ammo fe’llarning bu shakllarda

berilishi ma’no bo‘yoqlariga ko‘ra farqlandi. Funktsional jihatdan ham farqlanishi mumkin.³⁵

Fe’llarda juftliklar bo‘lishi mumkin: slishal-slixal kabi. Ular ham funktsional jihatdan farqlanadi. Infinitiv ko‘rsatkichlari -*moq* va -(i)sh o‘rtasidagi sinonimik munosabat ham qiziqarli material beradi. O‘timli va o‘timsiz fe’llar o‘rtasida ham sinonimiya mavjud. Ravishdoshlarda ham sinonimiya hodisasi bor. Fe’l turkumida shakllarning sinonimik munosabati taraqqiy etganligi ushbu so‘z turkumining uslubiyresurslari ko‘p ekanligidan dalolat beradi. Undagi barcha kategoriylar deyarli o‘z variantlariga ega ekanligi avval ham bir o‘rinda aytilgan edi. Ayrim fe’l shakllarining funktsional xoslinishi u bilan birgalikda kelgan boshqa elementlarga ham, ko‘makchilarga ham bog‘liq bo‘ladi.

Fe’l mayllarining ko‘p ma’noliligi va sinonimiyasi haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, buyruq mayldagi bo‘yoqlar qat’iy buyruqdan iltimosgacha bo‘lgan oraliqda bo‘lishini kuzatishimiz mumkin. Bu hodisani graduonimiya hodisasi deb ta’riflanadigan ma’no ottenkalarining darajalanishi deb qarash mumkin. Ohang esa unga qo‘s Shimcha ekspressivlik va emotSIONallik bag‘ishlaydi. Emotsional-ekspressivlik darajasi bu fe’llarning o‘timli o‘timsizligiga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, o‘timlilik qat’iyatni ifoda etadi, shuning uchun rasmiy uslub uchun xos bo‘ladi. Boshqa uslubda bu tarzdagi qat’iyatni ifoda eta olmasligi mumkin. Rasmiy va badiiy uslubdan misollar solishtiriladi. O‘timsiz fe’l esa qat’iyat, buyruqdan ko‘ra iltimos va maslahat bo‘yoqlarini beradi.

Buyruq-istak maylining o‘timsiz shaklidagi keng semantik imkoniyatlar ularning barcha uslublarda baravar qo‘llanilishini taqozo qiladi. *Uyga borib, hammamiz biroz dam olamiz, keyin dars tayyorlaymiz, dedi o‘qituvchi. Hamma uyga borib biroz dam oladi, keyin dars tayyorlaydi.* (Mayl va shaxs jihatdan tahlil qilish uchun). Buyruq maylidagi so‘z harbiylarning tilida

³⁵ Bondaleto V.D. i dr. Stilistika russkogo yazika. – M.: Prosveshenie, 1989. - 223 S.

uchraydigan turli xil komandalarda me'yor sanalsa, oddiy muloqot jarayonida qo'pollikday tuyuladi. Masalan, tayyorlan, o'gril kabi.

Zamon shakllarining ko'p ma'noliligi va sinonimiyasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, bu morfemalarda ya'ni hozirgi zamon shaklida ilmiy va ommabop uslublarda etakchilik qiladi. Hozirgi zamon shaklining o'tgan va kelasi zamon ma'nolarini berishi stilistik jihatdan ahamiyatlidir. Bular so'zlashuv, badiiy va ommabop uslublarga xos. Bu ham ma'lum uslubiy maqsadlar bilan bog'liq. Misol sifatida, voqeani hozir bo'layotganday qilib, ishonarli tarzda, jonlantirib hikoya qilish, muhimligini ta'kidlash maqsadida va boshqa intilishlar. Ba'zan ikki zamon shakli uyg'unlashtiriladi. Hozirgi zamon shaklini kelasi zamon ma'nosida qo'llashda ham ma'lum ishora bor. Voqeanning sodir bo'lishiga ishonch qat'iy bo'lgandagina shunday qilinadi. Badiiy nutqda o'tgan zamon fe'lining chastotasi balanddir.

Sinonimlarga misol keltirib o'tsak, hozirgi va o'tgan zamon kelasi zamon, kelasi zamonning hozirgi zamon o'rnida kelishi katta hissiy-ekspressiv bo'yoq beradi: *O'z onasini, vatanini kim sevmaydi!*; kelasi zamonning o'tgan zamon ma'nosini berishi: *titrayman hamohanglarni jimgina*. (A.Oripov)

Fe'lning shaxs va son shakllaridagi ko'p ma'nolilik va sinonimiya. 1-shaxs birlik manosini o'zining asosiy vazifasidan tashqari 1-shaxs ko'plik shakli: *Ilmiy uslubda: fikrimizni isbotlashga urinib ko'ramiz*; 2-shaxs birlik shakli: *bir jahon og'ushida sezasan o'zingni*; 3- shaxs birlik shakli: *Senga joyingdan tur deyapti*.

Sifatdosh va ravishdoshlar, asosan, kitobiy uslublarda – rasmiy, ilmiy va ommabop uslublarda qo'llaniladi. Ular uslublararo quyidagicha taqsimlanadi: ktobiy uslublarda – kitobiy va neytarllari; og'zaki uslubda – neytral, ozg'aki, jonli tilga xos. Sifatdoshlar va ravishdoshlarning variantlari ularning eskirgan shakllari va hozirgilari o'rtaida yuzaga kelgan.

Ilmiy adabiyotlarda fe'l zamonlari uchta ekanligi ko'rsatiladi. Bu borada olimlarning qarashlarida ziddiyat yo'q. Ammo ularning har birining ichki bo'linishlariga bo'lgan munosabatda turli xilliklar, bir- biriga qarama-qarshi bo'lgan fikrlar uchraydi. Ammo o'zbek tilshunosligida 40-yillardan hozirgacha

davom etib kelayotgan bu munozaralarga munosabat bildirish bizning vazifamizga kirmaydi. Chunki uslubiyatni ushbu uch zamon – o‘tgan, hozirgi va kelasi zamon o‘rtasidagi o‘zaro ko‘chishlar va bu ko‘chish jarayonida yuzaga keladigan emotsional-ekspressiv bo‘yoqlar, zamonlarning grammatik ko‘rsatkichlari o‘rtasida sodir bo‘ladigan sinonimik munosabatlar hamda ularning uslublararo funktsional xoslanishlari qiziqtiradi. Shuning uchun ham fe’lga daxldor bo‘lgan til faktlarini ana shu nuqtai nazardan tahlil qilamiz. M.Sodiqova “Fe’l uslubiyati” asarida fe’l zamonlarining o‘zaro almashinib qo‘llanishiga nisbatan “garchi mantiqqa zid bo‘lsa-da”, degan jumlanishi shifratadi (25)³⁶. Ammo bu almashinib qo‘llanishda mantiqqa zidlikni, til nuqtai nazardan olib qaraganda me’yorning buzilishini kuzatmaymiz. Ma’lum bir fe’l shakli ma’lum bir matnda o‘zi anglatishi lozim bo‘lgan asosiy zamon doirasidan tashqariga chiqib, boshqa zamon ma’nosini ham anglatishga qodir bo‘lgan ekan, demak bu ikki hodisadan dalolat beradi: ikkinchi ma’no fe’lning zamonini ko‘rsatish tabiatida yo avvaldan bo‘lib, keyinchalik yo‘qolgan va yana qayta tiklangan yoki uning zamonni anglatishi siljishda ro‘y berib, imkonyati kengaygan.

Hozirgi tilimizda fe’l o‘zining asosiy zamonni ko‘rsatish ma’nosidan tashqari ikkinchi zamon ma’nosini ham bildirishi til taraqqiyoti, uning uslubiy imkoniyatlarining yana ham kengaya borayotganidan dalolat deb tushunamiz. *Negaki, ertaga Sochiga uchaman – ertaga Sochiga uchayapman* deyilganda, nafaqat, zamonda farqlar, balki ifodada ham uslubiy nozikliklar mavjud. Fe’lning hozirgi zamon shaklida berilishi aynan ana shu ma’no nozikligi bilan bog‘liq, ya’ni uchaman deganda fikr o‘ziga nisbatan qat’iy hukm tarzida aytidayotgan bo‘lsa, uchayapman bu qat’iyat va hukm yo‘q. Unda so‘zlovchining adresatga o‘zi amalga oshirishi lozim bo‘lgan harakati to‘g‘risida xabar ma’nosi bor, xolos. Yoki bo‘lmisin, *Ahmad zavodda ishlaydi* degan gapda fe’lning kelasi zamon shaklida berilishini olib qaraylik. O‘tgan zamonda Ahmad zavodda aniq bo‘ladi. Hozirgi zamon shaklini qo‘llab, *Ahmad zavodda ishlamoqda/yotir/yapti* deydigan bo‘lsak, aniq bir payt, ya’ni hozir nazarda tutiladi. Gapdan uning avval ishlagan,

³⁶ Maqsuda Sodiqova «Fe’l stilistikasi»

ishlamaganligi ma'lum bo'lmasdan qolmoqda. Gapda fe'lning kelasi zamon shaklida berilishida harakatning har uch zamonda davomlilik bo'yog'i mavjud va shu ma'noda so'zlovchining bayondan ko'zda tutilgan muddaosiga mos kelishi mumkin. Bundan tashqari matnni, ya'ni nutqiy vaziyatni ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Shu ma'noda bir zamon o'rnida ikkinchisining keltirilishida ham muayyan uslubiy maqsad nazarda tutilganligi haqida xulosa chiqarish noto'g'ri bo'lmaydi. O'tgan zamon ma'nosining kelasi zamon shaklida berilishi ma'lum uslub bilan bog'liq. Bo'lib o'tgan voqeа-hodisalarni hikoya qilish tarzi kelasi zamon shaklini ishlatishga yo'l qo'yadi. Shuning uchun ham badiyat bilan bog'liq janrlarda, Misol sifatida, xalq og'zaki ijodining ertak janrida, hikoyachilik va romanchilikda kelasi shaklidan foydalanish xos xususiyat sanaladi. Ushbu zamonni qo'llashning uslubiy ahamiyati shundaki, u bo'lib o'tgan voqeа-hodisani haqida aniq ma'lumot berishdan ko'ra, bu hikoya jonli usulda, go'yo hikoya qiluvchi ham shu jarayonning faol ishtirokchisi sifatida beriladi. Fe'lning bu shaklini kuchaytiruvchi vositalar ham gapda ishtirok etishi mumkin. Goh-goh, bir kabi so'zlar, takror usulini M.Sodiqova ana shunday vositalar deb hisoblaydi.

Shu vazifani hozirgi zamon shakllari bajarishi ham mumkin. Tilda shunday birliklar mavjudki, ularning zamon ko'rsatkichlari ma'nolarni farqlash nuqtai nazaridan ahamiyatli bo'lmaydi. Frazeologik birliklar, maqollarni ana shunday sintaktik qurilmalar qatoriga kiritish mumkin. Chunki ular mazmunan barchaga qaratilgan bo'ladi. M.Sodiqova edi to'liqsiz fe'li haqida quyidagilarni yozgan: "edi to'liqsiz fe'li turli xil shakllarga qo'shilib, subyektning obyektga, obyektiv borliqqa bo'lgan munosabatini, psixologik holatini, ekspressivlik ma'nolarini ifodalaydi, bunda zamon ma'nosini ko'pincha umumlik holatida bo'ladi".

Yuklama uchun. M.Sodiqova "Bu shakl yuklama (oxirida keladi) yoki kelishik qo'shimchalari (birinchi komponentga qo'shiladi) olgan holda qo'llanib, ekspressiv holat – kutilmaganlik ma'nolarini bera oladi: *U bedaning orasini ocha boshlagan edi-ki, to'satdan ovoz eshitildi* (O.Yoqubov)³⁷.

³⁷ Sodiqova Maqsuda. Fe'l stilistikasi. –T.: Fan, 1975. – 123 b.

-Sizdaqa... jonon qizlardan bir nechtasini bizning konservatoriyamizga olib borib qo‘yishganda edi... - dedi yigit (“Sharq yulduzi”). -mi edi yuklamasi bilan kelgan so‘zlar turli-tuman shakllarga ega bo‘lishi mumkin: -armi+edi, -sami+edi, -ibmi+edi (boruvmidi – toshk.shev.), -sinmi+edi, -moqchimi+edi, -ganmi+edi; kerakmi edi, bormi edi, yo‘qmi edi va b.

Kontekstga qarab, bu shakllar oddiy so‘roq, ritorik so‘roq ma’nolarini, ekspressiv-emotsionallik, achinish, afsuslanish kabi modallik ma’nolarini ifodalab kelishi mumkin. Bu shakllardagi zamon ma’nosи, ko‘pincha, abstrakt bo‘ladi. Bu yuklama unli bilan tugagani uchun edi to‘liqsiz fe’li -di shaklini oladi, o‘zidan oldingi so‘zga qo‘shib aytildi (- i+e→i). Orfografiyada ham shu hol saqlangan. Bundan tashqari, -mi yuklamasi edi (- di) bilan o‘rin almashinish xususiyatiga ega: *ko‘rgan midi? Ko‘rgan edimi?* kabi. Ekspressiv-emotsionallik holatlarini berishda shakl so‘ng -ya yuklamasi qo‘shilib, qo‘llanishi ham mumkin: aytmasa bo‘lmasmidi-ya?! -ar+mi+edi. Bu shaklda -mi yuklamasi ritorik so‘roq ma’nosini beradi va gapda bo‘lishsizlik va ekspressivlik ma’nolari, modal munosabat ma’nosи anglashiladi: *- Hazil emas, chin. Senga yolg‘on gapiरarmidim?* (A.Ibrohimov).

- (i) bilan edi -gan+edi sinonimiya. Mayl ko‘rsatkichlarining o‘z ma’nolaridan tashqari qo‘shimcha bo‘yoqlarni anglatishi mikroqurshovga bog‘liq bo‘ladi. Misol uchun, shart mayli ko‘rsatkichi -sa va buyruq mayli ko‘rsatkichi -sin ning ishtirokida matnda turli xil emotsional-ekspressiv bo‘yoqlarning yuzaga kelishi ular bilan birga keladigan edi to‘liqsiz fe’liga bog‘liq bo‘ladi. Sodda fe’llarda ma’no aniq, analitik fe’llarda esa ko‘pincha mavhum bo‘ladi. Bu esa analitik fe’llarning ma’no anglatish imkoniyatlari kengligidan dalolat beradi.

Shaxs-son shakllari. M.Sodiqova shaxs-son shakllarini murakkab hodisa sifatida izohlaydi va buni ularning bir necha grammatik vazifalarda kelishi bilan izohlaydi. Misol tariqasida, oldim so‘zidagi -da va -m ko‘rsatkichlari zamon, mayl va shaxs-son kabi grammatik ma’nolarni anglatib kelayotganini aytib, “Keyingi yaratiladigan ishlarda har xillikka yo‘l qo‘ymaslik uchun til sistemasining mustahkam grammatik qolipini yaratish va uni qoidalashtirish, til faktlarini grammatik jihatdan analiz qilish protsessida uslubiy hodisalarini ayrim qarash,

anormal – normaga zid holatlarni aralashtirib yubormalik, ularni alohida – uslubiy planda o‘rganish kerak deb o‘ylaymiz”, - deydi.

Nutqda, haqiqatdan ham, zamon shakllarini o‘rin almashtirib qo‘llash hodisasi uchraydi. Ammo unga adabiy til me’yori nuqtai nazaridan munosabat bildirish zarur. M.Sodiqova: “adabiy til normalariga muvofiq ishlatish (normativ holat) va uslubiy maqsadda – uslubiy talab bilan ishlatish (uslubiy holat)”, - deydi. Shaxs-son ma’nolarini gapda ot va olmoshlar ham ifoda etadi. Ammo asosiy ma’noni fe’l ko‘rsatkichi shakllantiradi. ega vazifasidagi so‘zlar esa bu ma’noni kuchaytiruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi, xolos. Demak, e’tibor fe’l ko‘rsatkichlariga qaratilishi lozim. *Onang urgilsin, akasi jonidan, o‘lsang armonda ketasan, ko‘rib-bilib chidab o‘tiraverasan; ketaverasan, yo‘lning oxiri ko‘rinmaydi; shu ishni uddalay olmasang yigit bo‘lib nima qilib yuribsan, rostini aytganda (aytsam), to‘g‘risini aytganda (aytsam) kabi holatlar.* Odam, kishi, kamina, faqir, kim so‘zlarining ishtiroki. M.Sodiqova: fe’llar ko‘makchilar, kirish bo‘laklar vazifasida keladi: bordi-yu, boring-ki kabi. Ushbu holatlar ham uslubiy jihatdan e’tiborga molik. *Uni qarang, qarang-a* kabi holatlardagi turg‘unlik ham. M.Sodiqova: “*Seni qara: sen o‘zingni (o‘zingga) qara;* keyin shakllarning semantik reduktsiyasi, ko‘chish, kontominatsiya kabi hodisalarning ta’siri bilan bu turg‘un ibora hosil bo‘lgan”.

3.2. Sodda va yasama holat fe’llarining uslubiy tabiatি

A.Hojiyevning ta’kidlashicha, o‘zbek tilida so‘z yasovchi qo‘shimchalar unchalik ko‘p emas, ammo ularning so‘z yasash imkoniyatlari nihoyatda keng. Misol sifatida, - *la* qo‘shimchasida bu imkoniyat yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ularning nutqda mahsuldor qo‘llanishi ayrim fe’llar bilan sinonimik munosabatlarni vujudga keltiradi va quyidagi misollarni keltiradi: *qilmoq: shibalamoq – shibba qilmoq, dambalamoq – damba qilmoq tambalamoq – tamba qilmoq, plombalamoq – plomba qilmoq, andavalamoq – andava qilmoq, kalavalamoq – kalava qilmoq, muqovalamoq – muqova qilmoq, maydalamoq – mayda qilmoq, ifodalamoq – ifoda qilmoq, burdalamoq – burda qilmoq,*

to ‘dalamoq – to ‘da qilmoq, tozalamoq – toza qilmoq, ermaklamoq – ermak qilmoq, xulosalamoq - xulosa qilmoq, egalamoq/egallamoq – egalik qilmoq kabi - la yasovchisi bilan sinonimik munosabatga kirishishi jihatdan o‘zbek tilida bermoq fe’li qilmoqdan keyin ikkinchi o‘rinda turadi: *baholamoq – baho bermoq, xabarlarimoq – xabar bermoq, zaharlarimoq – zahar bermoq, o‘g‘itlamoq – o‘g‘it bermoq, ta’riflamoq – ta’rif bermoq, kafolatlamoq – kafolat bermoq* singari.

-la qo‘shimchasining sinonimik munosabatlari ko‘لامи yana quyidagi fe’llar hisobiga kengayadi: *solmoq: yuganlarimoq – yugan solmoq, kishanlarimoq – kishan solmoq, quflamoq – qufl solmoq, dolamoq – dod solmoq; bog ‘lamoq: arqonlarimoq – arqon bog ‘lamoq*

-la qo‘shimchasi yordamida taqlidiy so‘zlardan ham fe’llar yasaladi: *vizillamoq, g‘izillamoq, chiyillamoq, chakillamoq, likkillamoq, dirkillamoq, tarillamoq, dirillamoq, pirillamoq* kabi.³⁸

Bu sodda fe’llarning qo‘shma fe’l variantlari hosil qilinganda uning taqlidiy so‘z qismi qavatlanadi: *viz-viz qilmoq, g‘iz-g‘iz qilmoq, chiy-chiy qilmoq, chak-chak qilmoq, lik-lik qilmoq, dirk-dirk qilmoq, tar-tar qilmoq, dir-dir qilmoq, pir-pir qilmoq* singari.

-la qo‘shimchasi bilan yasalgan fe’llar faqatgina qo‘shma fe’llarga emas, balki sodda fe’llarga ham sinonim bo‘ladi: *tomchilamoq – tommoq, o‘ylamoq – o‘ylantirmoq* singari va bu holat fe’llari uslubiy o‘ziga xosliklarga ham ega. -la qo‘shimchasi yordamida yasalgan fe’llarning yuqorida keltirilgan fe’llar bilan sinonimik munosabatga kirishishi ushbu qo‘shimchaning yasovchilik xususiyatidan tashqari tilda qo‘shimcha uslubiy vazifalarni ham ado etishi haqida dastlabki xulosalarni chiqarishga imkon beradi. Binobarin, u so‘z yasash bilan birgalikda tildagi soddalanish qonunining amalga oshishiga xizmat qiladi. Damba qilmoq, tamba qilmoq deyishdan ko‘ra dambalamoq, tambalamoq deyishning har jihatdan qulaylik va osonlik tug‘dirishi tildagi tejamkorlik qonunlariga ham mos keladi. Masalan, biz uchun o‘ta jiddiy va muhim tomoni – bu matnda parallel

³⁸ Каримов С. Ўзбек тилининг функционал стилистикаси – Самарканд: СамДУ нашри, 2012.

qo‘llanishdagi ikki tomonning birida o‘rnii bilan vujudga keladigan uslubiy o‘zgarishlardir. Bu sinonimik juftliklar umumiy ma’nodagina bir-biriga teng kelishi va biri o‘rnini ikkinchisi bosib turishi mumkin. Aslida esa, bu sinonimik parallelar hamma vaqt ham birining o‘rnini ikkinchisi bosavermaydi. Misol sifatida, suvamoq, tekislamoq, silliqlamoq ma’nosini beradigan andavalamoq o‘rnida andava qilmoqni ishlatish mumkin bo‘lgani holda, bu so‘zda ko‘chim yuz berib, bekitmoq, yopib ketmoq, xaspo‘shlamoq ma’nolarida qo‘llanilganda andava qilmoq fe’lini qo‘llab bo‘lmaydi.

Ovlamoq fe’li baliq ovlamoq, bedana ovlamoq, quyon ovlamoq jumlalarida ov bilan shug‘ullanish ma’nolarini berganda ov qilmoq shaklini qo‘llash mumkin. Ammo bu so‘z ma’nosida ham ko‘chim sodir bo‘lganda ularning o‘rnini almashtirish qiyin bo‘ladi. Qiyos uchun: *Shunda to‘rasi Xolbekaning boshiga soya solib, yorini suyab, ko‘nglini ovlab: - Bir g‘ayrat qil, yo‘limiz yaqindi, - deb ko‘nglini ko‘tarib bir so‘z dedi* (Kuntug‘mish). *Ko‘nglini qanday ovlaydi?* (O.Yoqubov). *Sadoqati zohir qulingiz sizday valine’mat pushti-panohimga kiyik ovlab, tog‘larda yurgan edim* (O.Yoqubov).

Og‘zaki so‘zlashuv uslubidagi nutqda ba’zan bu fe’lli birikma quyidagicha shakllanadi: *ernazar yigitlari bilan ov ovlab rabotda yotib edi* (Y.Ahmad). Shu tarzda ko‘plab misollarni tahlil etish mumkin.

Bu tahlillardan shunday xulosa kelib chiqadiki, o‘zaro sinonim bo‘lgan sodda va qo‘shma fe’l shakllaridan sodda fe’lning qo‘llanish darajasi yuqori bo‘ladi va bu hol unda ma’no taraqqiyotining yuz berishi, ko‘lamining kengayib borishiga yo‘l ochadi. Qo‘shma fe’l qo‘llanish darajasining pastligi uning imkoniyatlarini chegaralaydi va, asosan, o‘z – birlamchi hamda to‘g‘ri ma’nosida saqlanib qoladi. Bu kabi uslubiy bo‘yoqlardagi farqlanishlar va chegaralanishlar yana boshqa yo‘nalishda ham kuzatiladi. Sodda fe’l ma’nosida sodir bo‘lgan ko‘chim tufayli undagi ikki yoki undan ortiq ma’nolar turg‘unlashib, polisemantizm yuzaga kelishi mumkin. Masalan, xulosalamoq so‘zi ikki ma’noda tushuniladi:

- a) fikrning mantiqiy natijasini ifodalamoq, xulosani bayon qilmoq;

b) yakunlamoq (O'TIL, 1 том, 338- bet).

Ushbu har ikki ma'noni ifoda etishda xulosalamoq o'rnida xulosa qilmoq fe'lini qo'llash mumkin. Sen ushbu gapda tegishli xulosa chiqar; Men aytganlaringizdan xulosa qildim gaplaridagi xulosa chiqarmoq, xulosa qilmoq o'rnida esa xulosalamoqni qo'llab bo'lmaydi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, *xulosalamoq* va *xulosa qilmoq* fe'llaridagi harakatning davomlilik darajasi bir xil emas. *Xulosalamoqda*: harakat nihoyasiga etgan, *xulosa qilmoq* orqali esa bu harakat qandaydir ma'noda davom etib turganligi anglashiladi. Ular ma'nosidagi ana shu farqlar yuqoridagi gaplarda ularning o'rnini almashtirib qo'llashga imkon bermaydi.-la yordamida yasalgan fe'llar bilan ularga sinonim bo'lgan fe'l shakllari munosabatida yana bir bo'yoqni – qat'iyat, axborotning aniqligi ottenkasini sezish mumkin: ko'chani tozaladim – ko'chani toza qildim; erni egalladim – erga egalik qildim singari. Harakatni alohida ta'kidlash ustun bo'lgan holatlarda qo'shma fe'lga ko'proq murojaat qilinganligi ko'zga tashlanadi. Misol sifatida, O.Yoqubovning "Ulug'bek xazinasi" romanida shubhalanmoq so'ziga 1 marta murojaat qilingani holda shubha qilmoq so'zi 11 marta qo'llanilgan: *Lekin ovqatdan shubhalangan Mirzo Ulug'bek hanuz tuz totgani yo'q. –Nahot faqirdan shubha qilursiz, ustod?*

—Yo'q! Agar shubha qilsam bu sirni ochmas edim.

O'.Hoshimovning "Tushda kechgan umrlar" romanida ular faqat bir martadan ishlatilgan: "Mabodo u yoqqa olib ketishsa Mug'ulistonga tushdik, deb yozaver, bo'lmasa oyimlar Rustam borgan shaharning adresini nega yozmaydi, deb shubhalanadilar", - debdi. *Qurbanoy ayasining gaplari rostligiga shubha qilmasdi*. T.Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" romanida bir marta ham qo'llanilmagan. Ulardagi ana shu xususiyatlardan kelib chiqib, funktsional chegaralanishlar ham sodir bo'ladi. Boshqacha aytganda, sinonimik paralleldagi fikrni birmuncha aniq va qat'iyat bilan ifoda etadigan shakllar shu xususiyatlarga talab va moyillik kuchli bo'lgan rasmiy va ilmiy uslublarga xoslana boradi.

Rasmiy uslubda: - badiiy asar yaratish va uni tahlil qilish jarayonini o'z ichiga oladigan yo'naliш; - tabiatni muhofaza qilishning ekologik tamoyillari va

tabiatdan maqsadga muvofiq foydalanish, tabiatni buzmas texnologiyalar yaratishning kelajagi haqida: - *inson atrof-muhitini fizik, kimyoviy va biologik hodisalarining zararli ta'sirlaridan himoya qilish vositalari va usullari*;

Vaholanki, ushbu qo'shimchalar yangi fe'l yasashdan tashqari qo'shimcha grammatik vazifalarni ham bajaradi. A.Hojiyev -lan qo'shimchasi bilan yasaluvchi fe'llarda o'zlik darajaga xos xususiyatning, -lash qo'shimchasi yordamida yasaluvchi fe'llarda esa o'zlik va birgalik darajaga xos xususiyatning saqlanishini ta'kidlaydi. Shu holatning o'ziyoq ularning o'zaro almashinib qo'llanilishi qandaydir ma'noda mantiqqa zid ekanligini ko'rsatadi. Chunki bir vaqtning o'zida bir fe'lda ham o'zlik, ham birgalik darajasining mujassam bo'lishi qiyin. -lash qo'shimchasining darajani ko'rsatish imkoniyati -lan ga qaraganda keng bo'lib, u bir holatda o'zlik, boshqa bir holatda birgalik darajasini ifoda eta olishi mumkin. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, bu ikki qo'shimchaning daraja ko'rsatkichlari o'zaro mos kelgan, Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, o'zlik darajani ifodalagandagina ularning biri o'mnida ikkinchisini qo'llash mumkin bo'ladi: *darmonsizlanmoq - darmonsizlashmoq, dadillanmoq - dadillashmoq* va hokazo.

Yuqoridagi fikrning davomi sifatida: “-*lan*, -*lash* affiksi bilan yasaluvchi fe'llarda o'zlik yoki birgalik nisbatiga xos xususiyat ma'lum darajada saqlansa-da, lekin bu fe'llarni o'zlik yoki birgalik darajalari qo'shimchalari qatoriga kiritish mumkin emas. O'zlik va birgalik daraja shakllari maxsus affikslar yordamida yasaladi va bu affikslarni fe'l o'zak-negizidan ajratish mumkin bo'ladi. *Rivojlanmoq, og'irlashmoq* kabi fe'llarda daraja shaklsini yasovchi qo'shimcha yo'q. Fe'lning hech qanday daraja ko'rsatkichiga ega bo'lмаган esa aniq nisbat hisoblanadi”. Yuqorida keltirilgan va o'zaro almashtirib qo'llash mumkin bo'lган fe'llarning bu o'rinda qaysi darajada kelayotganligi emas, balki qanday sabablarga ko'ra bu almashinishning sodir bo'lishi sabablarini aniqlash muhim. Misollardan anglashilmoqdaki, yasovchi shakllar turlicha bo'lishidan qat'iy nazar, daraja mazmuni bir xil bo'lган holatlardagina ularni o'zaro almashtirib qo'llash mumkin bo'lmoqda. Ikkinchidan, obyektlı-obyektsizlik ham o'zaro almashinishga ta'sir o'tkazadi. Misol sifatida, *to'dalandi - to'dalashdi* fe'llarini olib qaraylik: *xashak*

to ‘dalandi – obyektsiz, xashakni to ‘dalashdi – obyektlı fe’l. Bunday paytda ularning biri ikkinchisining o‘rnini bosa olmaydi. *Odamlar to ‘dalandi – odamlar to ‘dalashdi* deyilganda esa ularning har ikkalasi ham obyektsiz fe’l va almashtirishni amalga oshirish mumkin.

Shunday qilib, *-lan* va *-lash* yordamida yasalgan fe’llar daraja va obyektlı obyektsizlik nuqtai nazaridan bir xil bo‘lganda ular bir xil ma’nolarni anglatishi mumkin. Ushbu qo‘sishimchalardan yasalgan fe’llarni imlo va ters lug‘atlar yordamida tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, bu kabi fe’llar o‘zbek tilida sanoqli miqdorni tashkil etadi. Shu o‘rinda bir fikrni ta’kidlab o‘tish joiz, ma’lum bir daraja shaklidagi yoki obyektga munosabatdagi ayrim fe’llarni o‘zaro o‘rin almashtirib qo‘llash mumkin ekan, ularni sinonim sifatida qarash yoki uslubiy farqlanishlarini aniqlash mumkinmi, degan savol tug‘iladi. Misollarga murojaat qilamiz: *eshik ochilganda bir zum ustodning asabiylashgan bo‘g‘iq tovushi eshitilib, eshik yopilishi bilan yana tindi* (*O.Yoqubov*)

- *eshik ochilganda bir zum ustodning asabiylangan bo‘g‘iq tovushi eshitilib, eshik yopilishi bilan yana tindi. Xayoli chuvalashib ketgan Qalandar, ko‘z oldi qorong‘ilashib, ustunga suyanib qoldi* (*O.Yoqubov*).

- *Xayoli chuvalashib ketgan Qalandar, ko‘z oldi qorong‘ilashib, ustunga suyanib qoldi.* Ushbu misollarda *-lan* va *-lash* ham, ushbu qo‘sishimchalar tarkibidagi o‘zlik ma’nosini ifoda etuvchi *-n* va *-sh* ham biror bir uslubiy bo‘yoqni bera olmayapti. Bu holat yuqorida keltirilgan boshqa misollarda ham kuzatiladi. Faqatgina shu narsani qayd etish mumkinki, bu parallellikda *-lan* ga nisbatan *-lash* ning faol ekanligi payqaladi. Jumladan, O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida shu narsa yaqqol ko‘zga tashlanadi. Ayrim misollarni keltirish bilan chegaralanamiz: *Salohiddin zargar asabiylashib, bir qo‘zg‘alib oldi* (3 marta).

Sharob uning fikrini ravshanlashtirdi, oyog‘ini, butun vujudini qaqshatgan og‘riqni xiyol bosdi (2 marta).

Qirlar balandlashgan sayin tuyalarning yurishi sekinlashib, “bo‘h- bo‘h” lari ko‘paydi. *Yaproqlari siyraklashib qolgan yarim yalang‘och bog‘ daryoday sokin*

shovillar, chirs- chirs uzilgan xazonlar havoda pir-pir uchib oyoq ostidagi “gilam” ustiga unsizgina qo ‘nar edi (3 марта).

Yo ko ‘k unga o ‘z sirlarini ochishni tilamas, yo uning aql ko ‘zgusi xiralashib qolgan (4 марта). -лан quyidagi gaplarda qo‘llanilgan: Otasi chiqishi bilan mavlono holsizlanib to‘shakka cho‘zildi. *Ali Qushchi darmonsizlanib ko ‘zlarini yumdi* (3 марта). Keltirilgan misollar shuni tasdiqlaydiki, yuqoridagi savolga ijobiy javob berib bo‘lmaydi. Taqlidiy-obrazli so‘zlardan fe’l yasagan -ira aslida -ir+ra qo‘shilmasidan hosil bo‘lganligi ilmiy manbalarda qayd etilgan³⁹ -illa ham bu qo‘shilmaning og‘zaki nutq uchun moslashgan shakli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ularning qo‘llanilishiga uslubiy nuqtai nazardan qaraganda -illa bilan yasalgan fe’l shakllarini og‘zaki, -ira, -irla yordamida hosil bo‘lgan variantlarini esa kitobiy uslublarga xoslangan deb aytish mumkin. Buning ustiga, ularda asta sekinlik bilan qo‘llanish ko‘lamida chegaralanish yuz bera boshlaganligini ham payqash mumkin. Misol sifatida, *bel zirqillaydi, yurak zirqiraydi; odam g‘ijillaydi, karavot g‘ijirlaydi; odam vag‘illaydi/vag‘irlaydi, motor vang‘illaydi/vang‘irlaydi; bola chug‘illaydi, chumchuq chug‘irlaydi* va boshqalar. O‘zbek tilida fe’lda sodda va qo‘shma so‘z shakllarining mavjudligi ularni o‘zaro sinonimik munosabatda olib qarash va funktsional chegaralanishlari haqida mulohaza yuritish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Ikki yoki undan ortiq (asosan ikki) so‘zning birikuvidan hosil bo‘lgan fe’llar yo qo‘shma, yoki ko‘makchili bo‘lishi mumkin. A.Hojievning qayd etishicha, o‘zbek tilida qo‘shma fe’llar ko‘pchilikni tashkil etmaydi. Ularning o‘ziga xos xususiyati sodda fe’llar bilan sinonimik muonsabatning yuzaga kelishidir (A.Hojiyev. O‘zbek tilida qo‘shma, juft va takroriy so‘zlar, 37- bet). Olim tomonidan keltirilgan olib bormoq fe’liga etmoqning sinonim bo‘lishi va olib bormoq ning bir so‘z sifatida qaralishi lozimligi haqidagi fikriga biz ham qo‘shilamiz. Ammo shu o‘rinda keltirilgan sotib olmoq, olib qolmoq, qoyil qolmoq, javob bermoq kabi qo‘shma fe’llar ulardagi sinonimik munosabatlarni bir sodda fe’l bilan bo‘lgan munosabat doirasida chegaralab bo‘lmasligini ko‘rsatadi.

³⁹ Qarang: G‘ulomov A., Tixonov A. Qo‘ng‘urov R. So‘z yasovchi va shakl yasovchi affikslar. O‘zbek tili morfem lug‘ati.– T.: O‘qituvchi, 1977, 419- b.

Tasdiq qilmoq – tasdiqlamoq, olib bormoq – eltmoq deyish mumkin bo‘lgani holda, sotib olmoqni bir so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydi, unga xarid qilmoq sinonim bo‘lishi mumkin. Sotib olmoq og‘zaki, xarid qilmoq kitobiy nutqqa xoslanadi. Qoyil qolmoqni ham bir so‘z bilan almashtirib bo‘lmaydi, qoyil qolmoq deyish mumkin. Qoyil qilmoq esa qoyillatmoq bilan sinonimik munosabatda bo‘ladi va uslubiy bo‘yoqlarida o‘zaro farqlanadi: Qoyil qilib bajarmoq – qoyillatib barajmoq kabi. Ikkinchchi holatda ekspressiya kuchli. Ulardagi ma’no bo‘yoqlarining farqlanishini quyidagi misollarda ham kuzatsa bo‘ladi: Hammani qoyil qilding deyish mumkin bo‘lgani holda hammani qoyillatding deb bo‘lmaydi.

Bu harakat obyekti predmet yoki narsa-hodisa bilan bog‘liq bo‘lgan qoyillatmoqni harakat obyekti odam bo‘lgan holatga qo‘llab bo‘lmasligi bilan izohlanadi. Ko‘makchili fe’l shakllari fe’llarning funktsional-uslubiy ko‘lamini yana ham kengaytiradi. Bunga ma’lum ma’noda ko‘makchi fe’lning semantik maydoni ham ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

3.3. Nutq uslublarida holat fe’llarining sinonimik tabiat

Sinonimik munosabatlar va funktsional chegaralanishlar asosiy va ko‘makchi fe’llarni biriktiruvchi - (*i*)*b* va -*a*, -*y* ravishdosh yasovchilar orqali reallashadi. Misol sifatida: *yozib boshlamoq* – *yoza boshlamoq* – *yozib turmoq* – *yoza turmoq* – *yozib bilmoq* – *yoza bilmoq*; *ishlab boshlamoq* – *ishlay boshlamoq*; *o‘qib bilmoq* – *o‘qiy bilmoq* kabi. Bu ikki ravishdosh qo‘srimchasi ishtirok etgan fe’lli birikmalarning adabiy tilda me’yorlashuv darajasi bir xil emas: *yoza boshlamoq*, *ishlay boshlamoq* fe’llari ularning yozib boshlamoq, ishlab boshlamoq shakllariga nisbatan faol qo‘llaniladi. Yozib turmoq, yoza turmoqqa qaraganda ko‘p qo‘llaniladi. *Yozib bilmoq*, *o‘qib bilmoq* ko‘rinishlari dialektal chegaralanishga ega. Shuning uchun -(*i*)*b* va -*a*, -*y* ishtirok etgan fe’llarning qaysi biri faolligi haqida qat’iy xulosa chiqarib bo‘lmaydi. Funksional jihatdan esa faqatgina yoza turmoqning kitobiy bo‘yog‘i ajarilb turadi. O‘qib bilmoq va o‘qiy bilmoq ma’nosida ko‘pincha *o‘qiy olmoq* fe’li mahsuldor qo‘llaniladi. *Sen mana shu qo‘lyozmani o‘qib bilasanmi* - *Sen mana shu qo‘lyozmani o‘qiy bilasanmi* -

Sen mana shu qo 'lyozmani o 'qiy olasanmi kabi. Ammo bu gapda o 'qiy bilmoq fe'li o 'qiy olmoq bilan sinonimik munosabatga kirisha olmaydi, uslubiy jihatdan ham farq qiladi, mazmun o 'zgarib ketadi. Umuman olganda, o 'zbek tilida bu kabi sinonimik holatlarning o 'zi kam. Asosiy holatlarda bu ikki qo 'shimcha yasagan fe'llar mazmun jihatdan farqlanadi. Shuning uchun ham A.Hojiyev quyidagilarni qayd etgan: “Ravishdoshning har ikki turiga birikkanda ham bir xil ma 'no ifodalash bir-ikki ko 'makchi fe 'ldagina uchraydi: savalab ketdi – savalay ketdi. Lekin shunda ham ravishdoshning - (i)b affiksli turiga birikkan shakl bilan - a, -y affiksli turiga birikkan shakl ma 'nodagi nozik o 'zgachaligi va boshqa xususiyati bilan bir-biridan farqlanadi”. Sinonimiya hodisasi fe'lning ko 'makchi qismlari o 'rtasida sodir bo 'ladi: *kitobni o 'qib chiqmoq* – *kitobni o 'qib tugatmoq* – *kitobni o 'qib bo 'lmoq* – *kitobni o 'qib tugallamoq* – *kitobni o 'qib tamomlamoq* – *kitobni o 'qib bitirmoq* – *kitobni o 'qib qo 'ymoq* – *kitobin o 'qib tashlamoq* kabi. Bu gaplarning barchasidan o 'qish harakatining o 'z nihoyasiga etganligi, yakunlanganligi anglashiladi. Ulardan ba 'zilarida bu ma 'nodan tashqari yana qo 'shimcha bo 'yoqlar ham anglashiladi. Misol sifatida: *kitobni o 'qib chiqmoqda batafsillik*, *boshdan-oxirigacha ma 'nolari*, *kitobni o 'qib tashlamoqda o 'qish jarayoni uzoq davom etmaganligi*, *tezda tugaganlik*, *kitobni o 'qib qo 'ymoqda kitob omonatga olingan-u*, *uni qaytarishga tayyor ekanligi ma 'nolari ustunlik qiladi*.

Ko 'makchi fe 'llar orasida turmoq har ikki ravishdosh yasovchi qo 'shimchani o 'ziga biriktira olishi bilan ajralib turadi. Uning bu xususiyatlari A.Hojiyev tomonidan yaxshi tahlil etilgan: “Ravishdoshning - a, -y affiksli turiga birikkanda: 1. Harakatning vaqtincha, biror boshqa harakat- hodisa yuz berguncha davom etishi ma 'nosni (hozircha degan ma 'noda) bildiradi: *bora tur, qo 'ya tur, yozatur, ishlay tur. Tur* ko 'makchi fe 'li -(i)b affiksli ravishdoshga birikkanda ham shu m 'noni ifodalay oladi. Lekin bu ikki shakl (*yozib tur va yoza tur*) o 'ziga xos farqli xususiyatlarga ega. Birinchidan, harakatning davomliligi yozib tur shaklsidagiga nisbatan yoza tur shaklsida qisqaroq bo 'ladi. Ikkinchidan, tur ko 'makchi fe 'li ravishdoshning -a, -y affiksli turiga birikkanda, “*vaqtincha*”, “*hozircha*” degan ma 'no kontekstdan tashqarida ham aniq ifodalananaveradi.

To‘rtinchidan, buyruq- istak mayli shaklsida qo‘llanganda, *yoza tur*, *ishlay tur* shaklsida buyruq juda kuchsizlanadi, hatto yo‘q holatda bo‘ladi. *Ishlab tur*, *yozib tur* shaklsida esa buyruq o‘z kuchida bo‘ladi”. Olim qayd etgan ko‘makchili fe’llardagi ma’no bo‘yoqlarining farqlanishi uslubiy nozikliklar sifatida baholanadi⁴⁰.

- (i)b va -a, -y qo‘shimchalari bilan shakllangan ravishdoshlarning bormoq ko‘makchi fe’li qatnashadigan birikuvlarida ham uslubiy bo‘yoqlar yuzaga keladi. Misol sifatida: *yo‘qolmoq* - *yo‘qolib bormoq*, *yo‘qola bormoq kabi*. -a, -y qo‘shimchalari ayrim fe’llarga qo‘shilganda -y ga aylanadi: *kamaymoq* – *kamayib bormoq*, *kamaya bormoq*; *ko‘paymoq* – *ko‘payib bormoq*, *ko‘paya bormoq*; *toraymoq* – *torayib bormoq*, *toraya bormoq*; *qoraymoq* – *qorayib bormoq*, *qoraya bormoq*, *kichraymoq* – *kichrayib bormoq*, *kichraya bormoq*, *zo‘raymoq* – *zo‘rayib bormoq*, *zo‘raya bormoq*; *pasaymoq* – *pasayib bormoq*, *pasaya bormoq*; *keksaymoq* – *keksayib bormoq*, *keksaya bormoq*; *susaymoq* – *susayib bormoq*, *susaya bormoq*, *ulg‘aymoq* – *ulg‘aib bormoq*, *ulg‘aya bormoq*, *sog‘aymoq* – *sog‘ayib bormoq*, *sog‘aya bormoq singari*. Keltirilgan har uchala variant ham o‘zaro sinonimik munosabatga kirishishi mumkin.

Mirzo Ulug‘bek to Afrosiyob xarobalariga yetguncha go‘yo onasidan ayrilgan bo‘taday orqasiga qaray-qaray bordi.(O.Yoqubov)

- *Mirzo Ulug‘bek to Afrosiyob xarobalariga yetguncha go‘yo onasidan ayrilgan bo‘taday orqasiga qarab- qarab bordi.*

Ali Qushchi tepaga chiqquncha orqasiga qaray- qaray bordi (O.Yoqubov)-
Ali Qushchi tepaga chiqquncha orqasiga qarab- qarab bordi.

“Ulug‘bek xazinasi” romanidagi ravishdosh yasovchi ushbu shakllarning qo‘llanish darajasi shuni ko‘rsatadiki, nutqda -(i)b qo‘shimasining qo‘llanishi nihoyatda faol. Asarda bu qo‘shimcha bormoq fe’lli birikuvda 119 marta ravishdosh yasagani holda, -y bor-yo‘g‘i ikki marta shu vazifani bajargan. Ilmiy matnlarda ham nisbatan shu holat kuzatildi. Buning sabablarini A.Hojiyev bormoqning -(i)b qo‘shimchasi orqali birikkan turi barcha zamon shakllarida

⁴⁰ Xojiyev A. Fe’l. Ko‘makchi fe’llar. Toshkent, 1966 y.

qo‘llanila olishi bilan izohliydi. -(i)b va -a, -y o‘rtasidagi uslubiy nozikliklarni esa quyidagicha izohlaydi: “-a, -y affiksi bilan yasalgan ravishdoshga birikkan shakli kontekstdan tashqarida ham harakatning yo‘lakay bajariluvchi harakat ekanligini aniq ifodalaydi: *Biz respublika qishloq xo‘jalik ilg‘orlarining hamma ishlarini kuzatib boramiz*. Bu misolda etakchi fe’ldagi harakatning asosiy harakat yoki yo‘lakay bajariluvchi harakat ekanligi aniq ifodalanmaydi. Agar kuzatib boramiz shakli o‘rnida kuzata boramiz qo‘llanilsa, yetakchi fe’ldagi harakat yo‘lakay bajariluvchi harakat ekanligi ifodalanadi. Lekin harakatning yo‘lakay bajariluvchi harakat ekani ko‘pincha, kontekst yoki umumiy holatdan ma’lum bo‘lib turadi. Shu sababli yo‘lakay bajarilish ma’nosida ham -(i)b affiksi bilan yasalgan ravishdoshga birikkan shakli qo‘llanilaveradi. Bu hodisa -a, -y affiksi bilan yasalgan ravishdoshga birikkan shaklining qo‘llanish doirasini ancha chegaralab qo‘yadi”.

A.Hojiyev “*Ot fe’l*” tipidagi fe’llarning komponentlari she’riyatda qofiya va boshqa talablarga ko‘ra o‘rin almashinishi mumkin”, - deydi va chekdi imzo, qilar seni yod kabi misollarni keltiradi⁴¹.

Ol ko‘makchi fe’lining yetakchi fe’lga birikuvida ham -(i)b, -a, -y ravishdosh yasovchilari qatnashadi. Ular o‘rtasidagi ham bormoq fe’li birikuvidagi singari sinonimik munosabat mavjudmi-yo‘qmi, degan savolga javob topish uchun O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidagi birikuvlarni qarab chiqamiz. -(i)b olmoq birikuvidagi fe’llar roman matnida ikki yuz yetmish to‘rt (274) marta uchragani holda -a olmoq, -y olmoq, -ya olmoq birikuvidagi fe’llar o‘n to‘qqizta (19) ni tashkil etgan. Bu raqamlar ravishdosh yasovchi qo‘shimchalarning bormoq fe’li birikuvidagi statistikani yana bir bor tasdiqlaydi. Ular ishtirokidagi misollarning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ularning olmoq ko‘makchi fe’li birikuvida butunlay boshqa manzara ko‘zga tashlanadi, ya’ni bu yerda ularning o‘zaro sinonimik munosabatga kirisha olmasligi ma’lum bo‘ladi: Lekin *Ali Qushchi uzangini topib, tipirchilagan otga o‘zi sapchib mindi- da, jilovini qo‘liga oldi: u “qushchi” nomini bekorga olmagan, a’lohzratlari bilan ovga chiqqan*

⁴¹ Xojiyev A. Fe’l. Ko‘makchi fe’llar. Toshkent.1966

paytlarida, ne-ne asov tulporlarni jilovlab, bir lahzada o‘ziga o‘rgatib olardi!.. Birinchi yasovul karnay qilib o‘rab olgan yorlig‘ini ko‘rsatib darvozaxonaga kirdi. Ularni eshikda kutib olgan tund yuzli tanish saroybon Ali Qushchini yuqoriga boshladi; Suyukli yurting, muqaddas Yassini badxoh Baroqxon zulmidan qutqara olmadim. Bog‘ tomondagi shu eshikdan kira olsa bas –mavlononing mehmonxonasinga o‘tib olish oson. Necha kunga bardosh bera oladi? kabi. A.Hojiyev bu holatning sabablarini ochib bergan. -(i)b ishtirok etgan holatda harakatning yo‘nalganligi, harakatning bajarilishi va holatning yuzaga kelishi va bir martalik ma’nolari anglashilsa, -a, -y, -ya ishtirok etgan holatda harakatni bajarishga qobiliyatililik, bajarish imkoniyatiga egalik, qodirlik, bajarishning uddasidan chiqa olishlik kabi ma’no bo‘yoqlari ifoda etiladi. Tabiiyki, bu kabi turli semantik ma’nolarning ifoda etilishi jarayonida ular o‘zaro sinonimik munosabatga kirisha olmaydi. Ber ko‘makchi fe’lining yetakchi fe’lga qo‘shilish jarayonida ham -(i)b va -a, -y qo‘shimchalari qatnashadi. O.Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanidan olingan -(i)b ishtirok etgan to‘qson ikkita(92), -a ishtirok etgan 2 ta, -y ishtirok etgan bir holatni qiyoslash shuni ko‘rsatadiki, ularning ber ko‘makchili fe’lli birikuvida sinonimiya hodisasi yuz bermaydi. -(i)b da harakatning tugallanganlik ma’nosи, -a, -y dan davomlilik ma’nosи anglashilganligi tufayli ularni ham sinonimik munosabatga kirishtirib bo‘lmaydi. Romanda bunday qo‘llanish o‘n ikki marta sodir bo‘lgan. I shaxs birligi o‘rnida II shaxs birligi: Misol sifatida, diqqatga sazovor tomoni shundaki, mazmunan gap I shaxs to‘g‘risida ketayotgan bo‘lsa ham uni aynan shu shaxs ko‘rsatkichi orqali ifodalab bo‘lmaydi. Agar shunday qo‘llansa, balki grammatik mantiq buzilmas, ammo uslubiy mantiq va badiiy ifoda mantig‘i buziladi, deb hisoblaydi olim⁴²

III bob bo‘yicha xulosa

So‘z ma’nolarning tarkibiy qismlari (semantik komponentlari, semalari)ni miqdor jihatdan chegaralash nisbiydir. Asosan, diqqat-e’tibor so‘z ma’nosining

⁴² Hojiyev A. Fe’l. Ko‘makchi fe’llar. Toshkent, 1966

eng muhim semalariga; ma’noni til “birligi” sifatida shakllantiruvchi, nutq faoliyatida faolligini ta’minlovchi semalarga, ya’ni farqlovchi semalarga qaratiladi. So‘z ma’nolarining semalar tarkibida esa farqlovchi semalar odatda, bittadan ortiq bo‘ladi. Bunday hollarda tekshirish manbaining tabiatidan, talabidan, maqsadidan kelib chiqib, farqlovchi semalardan eng zaruriysi, muhimi olinadi, boshqasi imkoniyat sifatida saqlanadi, demak, holat fe’llarining ma’no tarkibidagi muhim zaruriy farqlovchi semalarni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Holat fe’llarining birlashtiruvchi semasi “holat” birlashtiruvchi va farqlovchi semalardan ravshanlashib, aniq izohga ega bo‘ladi. Birlashtiruvchi va farqlovchi semalar manoning aniqlik kirituvchi mantiqiy bo‘laklari, tarkibiy qismlari sifatida birlashtiruvchi sema bilan dialektik bog‘liqlikni tashkil qiladi, semantik sistemani shakllatiradi.

Birlashtiruvchi sema va farqlovchi semalarning ifoda vositalari asosida tuzilgan sintaktik birliklar holat fe’li ma’nosining izohi bo‘ladi.

O‘zbek tillaridagi holat fe’llari ma’nosini tarkibiy qismlarga ajratib o‘rganish natijasida bu semantik maydonning quyidagi leksik-semantik guruhlardan tashkil topishi aniqlandi: Davomli holat fe’llari. Harakat natiasi bo‘lgan holat fe’llari. Ijro holati fe’llari. Harakatning holati fe’llari. Malaka holat fe’llari, obrazli holat fe’llari.

Biologik holat fe’llari. Fiziologik holat fe’llari. Ruhiy holat fe’llariga ajratib o‘rganiladi.

XULOSA

Til va nutqning dialektik munosabati tiln birligida – so‘zda ko‘rinadi. So‘z ma’nosiga – ma’no tuzilishiga ko‘ra tavsiflanadi. So‘zning ma’no tuzilishi, ma’no tarkibi nihoyatda murakkab bo‘lib, bu o‘zbek tilshunosligida (turkiy tilshunoslikda ham) nisbatan kam e’tibor berilgan va yetarli darajada o‘rganilmagan masaladir. Binobarin, so‘zning jumladan holat fe’llarining ma’no tuzilishini o‘rganish katta ilmiy – nazariy va amaliy ahamiyatga egadir.

Fe’l turkumida shakllarning sinonimik munosabati taraqqiy etganligi ushbu so‘z turkumining uslubiy resurslari ko‘p ekanligidan dalolat beradi

Badiiy, ommabop va so‘zlashuv uslublarida harakat fe’llari ko‘p uchraydi va otli qurilmalardan qochiladi. Ilmiy nutqda gap predmetlarning, qonuniy hodisalarning doimiy belgilari va sifatlari haqida ketganligi va tasvir asosiyo‘rinni egallaganligi uchun ularda til tizimidan tegishli leksemalar va fe’l birliklari tanlab olinadi. Misol sifatida, aynan ilmiy uslubda hozirgi zamonda qo‘llaniladigan holat fe’llari nutqpaytidagi so‘zlashuv-maishiy nutqqa xos bo‘lgan dinamik holatni emas, balki sifatni bildiradi.

O‘zbek tili holat fe’llarining ma’no tuzilishini o‘rganish quyidagi natijalarga olib keldi: “holat” semasi – tarkibiy qismi (mantiqiy bo‘lagi) asosida ajratilgan holat fe’llari o‘zbek tili turkumining asosiy, eng yirik semantik maydonlaridan birini tashkil etadi.

O‘zbek tili holat fe’llari, asosan, o‘timsiz ba’zan o‘timli bo‘ladi. Holat fe’llari ma’nolarini aniqlash va izohlash uchun ularning ma’no tarkibidagi mantiqiy bo‘laklarini (semalarini) mohiyatiga ko‘ra: birlashtiruvchi sema (arxsema), birlashtiruvchi sema (integral sema) va farqlovchi sema(differensial sema)larga ajratdik. Birlashtiruvchi sema asosida holat fe’llarining semantik maydoni hosil qilinadi. Birlashtiruvchi sema asosida holat leksik – semantik guruhlari yuzaga keladi.

Holat fe’li ma’nosining farqlovchi semasi har bir leksik-semantik guruhlariga kiruvchi paradigmatic munosabatdagi so‘zlarning ma’nosini muayyan

nutqiy sharoitda boshqa so‘z ma’nolaridan ajratib turuvchi, uning nisbiy mustaqilligini ko‘rsatuvchi, mantiqiy bo‘lak bo‘lib, unda har bir fe’l ma’nosining o‘ziga xos xususiyati, hissiy ta’sirchan bo‘yog‘i belgi darajasi kabilar aks etadi. Birlashtiruvchi, birlashtiruvchi va farqlovchi semalar ifoda birliklari asosida tuzilgan nutq birliklari holat fe’li ma’nosining izohi bo‘lib keladi. Fe’ldan anglashilgan holatni o‘zida tashuvchi, muayyan holatga ega predmet sifatida inson, hayvon, narsa va voqeа-hodisalar kuzatiladi. Holat fe’llari semantik maydoni tub va yasama fe’llardan tashkil topadi.

Holat fe’llari leksik-semantik guruhlarining ichki semantik guruhlarini tashkil qiluvchi fe’l so‘zlar til birliklari sinonimik qatorni hosil qilib, ular o‘zaro qo‘llanishi, belgi darajasi, hissiy ta’sirchan bo‘yog‘iga ko‘ra uslubiy jihatdan farqlanadi. o‘zbek tilidagi holat fe’llarining ma’no tuzilishi, ma’no tarkibi haqida fikr yuritar ekanmiz, fe’l ma’nosi tahlil qilinishi natijasida uning tarkibiy qismlari, mantiqiy bo‘laklari (semalari) aniqlanib, shu asosda fe’l ma’nosi izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. Siyosiy adabiyotlar :

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати ва Конунчилик палатасига Мурожаатномаси. – Халқ сўзи. – 2017. – 23 декабрь.

2. Мирзиёев Ш.М. “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислоҳотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги Қарор. – Халқ сўзи. – 2018. – 6 июнь.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сон “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони. – “Халқ сўзи” газетаси. – 2017 йил, 8 февраль. №28 (6722).

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 21 октябрдаги ПФ-5850-сонли “Ўзбек тилининг давлат тили сифатидаги нуфузи ва мавқеини тубдан ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони // www.lex.uz

II. Ilmiy risola, maqola, tezis, monografiya, darslik, o‘quv va metodik qo’llanmalar:

1. Кўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. – 153 б.
2. Кўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. I қисм. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1978. – 96 б.
3. Кўнғуров Р. Ҳозирги ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. II қисм. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, 1980. – 56 б.
4. Неъматов X., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Т.: Ўқитувчи, 1993. – 120 б.
5. Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Т.: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
6. Нигматов Х.Г. Функциональная морфология тюркоязычных памятников XI- XII вв. – Т.: Фан, 1989. – 190 б.
7. Низомиддинова С. Ҳозирги замон ўзбек тилида сон. – Т.: ЎзФА нашр., 1963. – 96 б.
8. Нурмонов А. Лингвистик белги назарияси. – Тошкент: Фан, 2008. – 150 б.
9. Нурмонов А., Йўлдошев Б. Тилшунослик ва табиий фанлар. – Т.: Шарқ, 2001. – 160 б.
10. Нурмонов А., Маҳмудов Н., Аҳмедов А., Солихўжаева С. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1992. – 300 б.
11. Нурмонов А., Расулов Р. Ўзбек тили жадвалларда. – Тошкент:

Ўқитувчи, 1993. – 184 б.

12. Нурмонов А.Н. Ўзбек тилшунослиги тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон 2002. – 232 б.
13. Облоқулов С. Ўзбек тилида субстантивация (отлашиш) // Тилшунослик масалалари. 1- китоб. – Т.: ЎзФА нашр, 1960. – 256 б.
14. Расулов Р. Ўзбек тилида ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари. – Тошкент: Фан, 1989. – 186 б.– 131 б.
15. Ўзбек тили грамматикаси. II том. – Тошкент: Фан, 1976. – 520 б.
16. Ўзбек тили грамматикаси. I. Морфология. –Т.: Фан, 1976. – 612 б.
17. Форобий Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент:Мерос, 1993.- 174 б.
18. Фузаилов С. Ўзбек тилида равишлар. –Т.: ЎзФА нашр, 1953. –186 б.
19. Хайдаров И.М. Диалектика становления, функционирования и развития системного качества. –Ташкент, 1984. - 334 б.
20. Хайруллаев М., Ҳақбердиев М. Мантиқ. – Тошкент:Ўқитувчи, 1993. –105 б.
21. Ҳозирги ўзбек адабий тили / Ф.Камол таҳрири остида. – Тошкент: ЎзФА нашр., 1957. – 526 б.
22. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – 447 б.
23. Неъматов Ҳ. Феъл, унинг форма ва категориялари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1972. - № 1. – Б.39 – 47.
24. Ҳамдамов Ж. Ўзбек тилида равишдошларнинг бошқа сўз туркумларига кўчиши // Ўзбек тили грамматик қурилиши ва лексикологияси масалалари. VI чиқиши. СамДУ асарлари, янги серия. – № 356. – Самарқанд: СамДУ, 1978. – Б. 26- 31.

III. Dissertatsiyalar va dissertatsiya avtoreferatlari:

1. Асадов Т. Сўз туркумлари тизимида равиш: Филол. Фанлари номзоди... дисс. автореф. – Тошкент, 2009. – 18 б.
2. Аширбоев С. Ўзбек тили грамматик қурилишининг ўрганилиш тарихидан (1875 – 1917 йиллардаги рус туркололари асарлари асосида). – Филол. фанлари номзоди... дисс. – Тошкент, 1975. –155 б.
3. Мадраҳимов И. Ўзбек тилида сўзнинг серқирралиги ва уни таснифлаш асослари: Филол. фанлари номзоди... дисс. автореферати. – Т., 1994. – 21 б.
4. Махмудов Н. Эллипсис в современном узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1978. – 17 б.
5. Менглиев Б. Р. Лисоний тизим яхлитлиги ва унда сатҳлараро муносабатлар: Филол. фанлари доктори... дисс. автореферати. – Тошкент, 2002. – 42 б.

6. Менглиев Б.Р. Морфологик воситаларнинг маъновий хусусиятлари ва синтактик имкониятлари: Филол. фанлари номзоди ...дисс. – Тошкент, 1996. – 24 б.
7. Мусулманова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно муносабати: Филол.фандари номзоди ...дисс. – Тошкент, 2007. – 124 б.
8. Нурманов А. Принципы экономии в фонетических изменениях узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973. – 18 с.
9. Сайдова М.Р. Сравнительно - типологическое исследование односоставник предложений в русском и узбекском языках: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1996. – 22 б.
10. Сураймонов Ф.С. Ўзбек тилида сон-миқдор микромайдони ва унинг лисоний-нутқий хусусияти: Филол. фандари номзоди ...дисс. – Самарқанд, 2004. – 24 б.
11. Хайдаров И.М. Особенности действия закона взаимоперехода количественных и качественных изменений в современных условиях (09.620-Диалектический и исторический материализм): Автор. дисс... канд. филос. наук. – Ташкент, 1971. – 112 б.
12. Шахабитдинова Ш.Х. Грамматик маъно талқини ҳақида: Филол. фандари номзоди ...дисс. – Самарқанд, 1994. – 22 б.
13. Ширинова Н.Д. Ўзбек тилида предметлик ва белги- хусусият маъноларини фарқлаш воситалари: Филол. фандари номзоди...дисс. автореф. – Тошкент, 2010. – 9 б.
14. Элтазаров Ж.Д. Ўзбек тилида сўз туркумларининг ўзаро алоқаси ва кўчиши: Филол. фандари доктори ...дисс. автореф. – Тошкент, 2007. – 22 б.
15. Элтазаров Ж.Д. Усечение в узбекском языке: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Самарканд, 1992. – 21 б.
16. Юсуфов Б. Местоимения в староузбекском языке (XV- XVI вв): Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Т., 1988. –19 б.